

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“MADANIYATSHUNOSLIK”
KAFEDRASI

MADANIYAT MUASSASALARIDA TARG`IBOT-TASHVIQOT
ISHLARI METODIKASI

fanidan

O`QUV-USLUBIY
MAJMUA

Bilim sohasi:	100000	–	Gumanitar soha
Ta`lim sohasi:	150000	–	San`at
Ta`lim yo`nalishi:	5151700	–	Madaniyat va san`at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish

O`quv-uslubiy majmua O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2019 yil 20 iyuldagi №654-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

O.R.Topildiyev –tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:

Z.U.Xaydarov - tarix fanlari nomzodi, dotsent

O`quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashining 2021 yil ___ sentyabrdagi ___-son yig`ilishida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Ma'ruza matni	
Seminar mashg'ulotlar topshiriqlar.....	
Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari.....	
Glossariy.....	
Ilovalar:	
Fan dasturi	
Ishchi fan dasturi	
Tarqatma materiallar	
Testlar.....	
Nazorat uchun savollar (J.N., O.N., Ya.N.).....	
Baholash mezonlari	


O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“MADANIYATSHUNOSLIK”
KAFEDRASI

MADANIYAT MUASSASALARIDA TARG`IBOT-TASHVIQOT
ISHLARI METODIKASI
fani bo`yicha

MA`RUZALAR MATNI



NAMANGAN -2021

Ushbu ma`ruzalar matni Namangan davlat universiteti «Madniyatshunoslik» kafedrasining 2021__ yil _____dagi №__-sonli bayonnomasi bilan muhokama qilingan va Namangan davlat universiteti Musiqa ta`limi va madaniyat fakul'teti kengashining 2021__ yil _____dagi №__-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Namangan davlat universiteti Kengashining 2021__ yil ____ _____dagi №__-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlanib,foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

O.R.Topildiyev –tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:

Z.U.Xaydarov - tarix fanlari nomzodi, dotsent

“Madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari metodikasi” fanining qisqacha tavsifi.

1-Mavzu: Madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja:

1. “Madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari metodikasi” fanining predmeti.
2. “Madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari metodikasi” fanining maqsadi va vazifalari
2. Targ`ibot-tashviqot so`zlari xaqida tushuncha.
3. Targ`ibot-tashviqot g`oyaviy-tarbiyaviy ish.

Tayanch iboralar

Targ`ibot, tashviqot, mafkura, san`at, sotsial, manaviy tarbiya, moddiy boylik, barkamol avlod, vatan tuyg`usi, ma`naviyat va ma`rifat.

O`zbekiston Respublikasida 2017 yildan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarning yangi bosqichiga qadam qo`yildi. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi natijasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalari rivojlana boshladi. Bu o`rinda targ`ibot-tashviqot ishlari asosida aholining ma`naviy-ma`rifiy qarashlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo`yilgan. Milliy ma`naviy - ma`rifiy qadriyatlarning jamiyat va xalq hayotida tutgan o`rni beqiyos bo`lib, bu o`rinda targ`ibot-tashviqot ishlarining muhim ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko`rsatmoqda.

“Madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari metodikasi” fanining predmeti targ`ibot-tashviqot tushunchalari bilan bog`liq amalga oshiriladigan ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayonga tegishli faoliyatni o`rganish va taxlil qilishdan iborat. Targ`ibot-tashviqot bilan bog`liq amalga oshiriladigan ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayonga tegishli faoliyatni o`rganishda talabalar kerakli usullar orqali aholining keng qatlami ongiga ta`sir etish metodlarini o`rganadilar. Qolaversa targ`ibot va tashviqot ishlari azaldan biror ma`lumotni tarqatish va yoyishda ommani maqsad sari intilishi, safarbar etishda muhim ahamiyatga ega bo`lib kelgan. Chunki, aholining keng ommasi bilan ishlash jarayonida, faqat kasb maxoratini egallashning o`zi kifoya qilmaydi. Targ`ibot-tashviqot natijasida targ`ibotchi aholining orasiga kirib ularning bir maqsad sari olg`a boshlab kerakli ma`lumotni singdirish uchun tasviqotni amalga oshiradi. Yuqoridagi muhim vazifalarni xalq etish jarayonida targ`ibotchi, rahbar, xodim, o`qituvchining tashkilotchilik, targ`ibotchilik, tashviqotchilik va notiqlik mahorati muhim rol` o`ynaydi.

“Madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari metodikasi» fanning asosiy maqsadi talablarga targ`ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish metodologiyasini o`rgatishga oid ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayon bilan bog`liq bilimlar berish, maxsus ko`nikmalar hosil qilishga ko`maklashishdan iboratdir.

Madaniy-ma`rifiy muassasalar o`z faoliyatini aholi turli guruhlarining mutaxassisligi, milliy, hududiy, yosh, jins va boshqa xususiyatlar hamda ularning talablari, qiziqishlarini hisobga olgan holda amalga oshiradi. Bu vazifalarni bajarish uchun targ`ibot-tashviqot ishlarining ommaviy, tarbiyaviy va boshqa rang-barang vositalari, shakllari va usullaridan unumli foydalaniladi.

“Madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari metodikasi» fanning asosiy vazifasi talabalarda ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayon bilan bog`liq targ`ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishning muhim jihatlarni o`rganish hamda targ`ibot jarayonida targ`ibotchining nutq mahorati, aholi orasidagi suhbat, bahs-munozara va boshqa munosobatlarga e`tibor berishi va mahsus ko`nikmalar hosil qilishga ko`maklashishdan iboratdir.

”Madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot ishlari metodikasi” fanini o`rganish jrayonida bakalavr qo`yidigalarni bilishi lozim:

- Targ`ibot- tashviqot ishlari madaniy–ma`rifiy faoliyatning eng muhim sohasi, katta ijtimoiy qudratga ega bo`lgan ta`lim va tarbiya vositalaridan biri ekanligini bilishi;

-Targ`ibot–tashviqot ishlarini tashkil etish ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy faoliyatning ajralmas qismi ekanligini, joylarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni qaror toptirishda, xalq havaskorlik ijodiyotini o`stirish, aholining, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma`rifiy ehtiyojlarini qondirish, ularni maqsad sari safarbar etishda targ`ibot- tashviqot ishlarining ahamiyatini bilishi.

- Respublikamizning ta`lim sohasidagi davlat siyosati asosiy yo`nalishlari va strategiyasini yanada kuchaytirishga, xukumatning madaniy-ma`rifiy faoliyat sohasidagifarmonvaqarorlarniijrosini ta`minlashdagi faoliyatni rivojlantirish, jamiyatimizda olib borilayotgan ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy faoliyat bilan bog`liq targ`ibot-tashviqot ishlarini tahkil etishga salmoqli hissa qo`sha olishi.

- Targ`ibot-tashviqot faoliyatiga oid adabiyotlar bilan samarali ishlash;

- Mustaqil ravishda biron bir suhbat, uchurashuv yoki bahs-munozora kechalarini o`tkaza olishi;

- Bugun dunyoda kechayotgan zamonaviy ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy o`zgarishlar va yangiliklardan boxabar bo`lishi;

-Mustaqil ravishda aholi o`rtasida targ`ibot –tashviqot ishlarini o`tkazishda faol ishtirok etish.

Targ`ibot (lotincha propoganda-tarqatiladigan) siyosiy, ilmiy, falsafiy, ba`diiy va boshqa qarashlar hamda g`oyalarni ijtimoiy ongda joriy etish, ommaviy faoliyatini faollashtirish maqsadida ularni yoyish, tarqatishga aytiladi. Targ`ibot-tashviqot bir-biri bilan yaqindan bog`liq bo`lib,muayan guruxlar manfaatini ifodalaydi. Targ`ibot qilish g`oyalar, qarashlar, nazariyalarni og`zaki, matbuot, radio, televideniye, internet yoki boshqa vositalar yordamida yoyish demakdir.

Tashviqot (agitatsiya) tushunchasi ham lotincha so`z bo`lib, keng xalq ommasiga siyosiy ta`sir ko`rsatishni bildiradi. Tashviqot deganda keng xalq ommasiga siyosiy ta`sir ko`rsatish orqali safarbar etish maqsadida axoli o`rtasida og`zaki yoki yozma ravishda olib boriladigan ommaviy, siyosiy ish, faoliyat tushuniladi. Qisqasi, tashviqot deganda, biz ommani xayojonga solish uni o`z orqamizdan ergashtirish uchun ularning hissiyotiga ta`sir etsh san`atini tushunamiz.

Keng ma`noda olganda, targ`ibot tushunchasi faoliyatning aloxida turini anglatadiki, ma`lum qarashlar, tasavvurlar va emotsional xolatlarni vujudga keltirib, ular orqali kishilarning xulq atvoriga ta`sir etish maqadida bilimlar g`oyalar,badiy boyliklar va boshqa xil axborotlarni etkazishhisoblanadi.Fan, mafkura, san`atdan farqli o`laroq, targ`ibotning asosiy vazifasi yangi ma`naviy boyliklarni yaratishdan iborat bo`lmasdan, balki ularni yoyish, joriy etishdan iboratdir. Fan soxasida, olamni badiy o`zgartirishda kashf qilingan jamiki narsalar targ`ibotchi-tashviqotchi tomonidan idrok qilinadi, targ`ibot yordamida konkret shaxs bilan bog`liq yangi ma`lumotlar tarqatiladi. Targ`ibotning maqsadi faqat ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayon bilan bog`liq ma`lumotlarni shunchaki kishilar ongiga etkazishdangina iborat bo`lmasdan, balki ularni konkret vaziyatni, auditoriya xususiyatlarini, bu ish kechayotgan sharoitni xisobga olgan xolda ijodiy tarzda qayta ishlashni ham nazarda tutiladi. Biroq, targ`ibotchining ishi bilan tashviqotchining vazifasi bir biridan farq qiladi.Targ`ibotchining vazifasi ommaga ko`proq g`oyalarni tarqatish va ommaviylashtirishdan iborat bo`lib, shu qadar ko`p g`oyalar berishi kerakki, bu g`oyalar nisbatan unchalik ko`p bo`lmagan kishilar tomonidan o`zlashtirilib olinadi. Tashviqotchining zimmasidagi vazifa esa, ma`naviy-ma`rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-tarbiyaviy jarayon bilan bog`liq masalalar xaqida gapirganda tinglovchilarning har-biriga alohida ta`sit etish. Tinglovchilarning hammasiga, har biriga ma`lum bo`lgan eng muhum misollarni tanlab olishga bitta g`oyani singdirish uchun bor kuchini sarflashdan va masaladagi qarama-qarshilikni to`la tushuntirish ishini tashviqot qilishdan iborat.

Targ`ibot ishlari ko`pincha bosma matbuot, OAV orqali tashviqot ishlari esa og`zaki olib boriladi. Jonli so`z ya`ni og`zaki tashviqotni asosiy maqsadi — konkret, yorqin, oddiy va tushunarli misollar asosida kishilarning davlat siyosatining to`g`riligiga ishonirishdan, vakilimizdagi faktlar va xodisalarning ijtimoiy shakllantirish masalasiga aloxida e`tibor berib kelinmoqda. Ma`lumki targ`ibot va tashviqotning xarakteri, mazmuni, metodlari, maqsad va vazifalarini belgilashda xal qiluvchi rol o`ynaydi. SHu bois ham targ`ibot-tashviqot ishlarining zamon talabiga, ruxiga mos, yangi bosqichga ko`tarishda yangicha noan`naviy metodlardan foydalanish maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikada asosan ma`naviyat va ma`rifat kengashi ma`naviy-ma`rifiy tarbiya, targ`ibot-tashviqot ishlari bilan shug`ullanuvchi tashkilotlarning asosiysi hisoblanadi. Shunigdek, madaniyat muassasalari, muzeylar, madaniyat va istiroxat bog`lari, madaniyat markazlari targ`ibot-tashviqot ishlarida muhim o`rin egallaydi. Bugungi globallashuv jarayonlari mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida, yosh avlod ongiga Ona vatanga cheksiz sadoqat, mexr-muxabbat, ozod va obod vatan barpo etishdek ulug` g`oya, maqsadga e`tiqod ruxini singdirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Madaniyat markazlari, kutubxonalar, muzeylar va boshqa madaniyat markazlari o`ziga xos shakl, usullarda milliy umumbashariy g`oyalarni, davlat siyosatini targ`ib qiladilar. Milliy qadriyatlarimiz va ulug` mutafakkirlarimiz merosidan butun xalqimiz, jumladan yoshlarimizning baxramand bo`lishiga xar bir fuqaroda o`z xaq-huquqini, o`z taqdirini o`zi belgilay olishiga, mamlakatda kechayotgan yangilanishlar, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlarni faol ishitrochisi va kurashchisiga aylanishiga ko`maklashadi. Ma`naviyat va madaniyat muassasalaridagi targ`ibot-tashviqot ishlari bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni bajaradi, ya`ni ommaga siyosiy bilimlar berish, ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etish hamda shular asosida jamoatchilik fikrini hosil qiladi. Ayni paytda shaxsga ta`sir etish nuqtai nazaridan targ`ibot-tashviqot ishlarining o`ziga xos vazifasi shundan iboratki har bir kishi bu ishda o`zini faqat tomoshabin yoki faol kuzatuvchi sifatida emas, balki ro`y berayotgan xodisalarning faol qatnashchisi, o`z qarashlarini isbot etuvchi shaxs sifatida namoyon qilishi mumkin. SHu bilan birga, targ`ibot-tashviqot ishlari insonga o`zining faol hayotiy nuqtaiy-nazarini vujudga keltirishga yordam beradi va shaxsning ijtimoiy jixatdan o`z-o`zini namoyon qilish vositasiga aylanadi. SHunday qilib targ`ibot-tashviqot ishlarining ommaviyligi milliy g`oya, milliy mafkurani shakllantirilayotgan jamiyatimiz uchun muhim bo`lib, bu jamiyatning har bir a`zosiga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi.

Savol va topshiriqlar

1. Tashviqot so`zining ma`nosi nima?
2. Targ`ibot so`zi imani angalatadi?
3. Mafkura ishlarini targ`ib qilishda nimalarga e`tibor berishi kerak?
4. Ma`naviy-ma`rifiy tarbiya bilan shug`ullanuvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari.
5. Madaniy-ma`rifiy muassasalar targ`ibot-tashviqot ishlarini qanday yo`l bilan olib boradilar?

2-mavzu:Targ`ibot-tashviqot ishlarining jamiyat hayotida tutgan o`rni

Reja:

1. Targ`ibot-tashviqot murakkab va ko`p qirrali ijtimoiy xodisa sifatida.
2. G`oyaviy tarbiyaviy ishlarda og`zaki tashviqotning o`rni.
3. Og`zaki tashviqot ishlarining ommaviyligi va ko`p qirraligi
4. Targ`ibot va tashviqot ishlarida mahalliy faktlar asoslanishi

Tayanch so`zlar

Tashviqot, targ`ibot, ma`ruza, mafkura, g`oyaviylik, san`at, voizlik san`ati, targ`ibot, tashviqotning ta`sirchanligi, targ`ibotchining vazifasi, milliy mafkura, milliy g`oya, nazariya.

Targ`ibot-tashviqot ishlari murakkab va ko`p qirrali ijtimoiy xodisa sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim o`rin tutadi. Targ`ibot-tashviqot ishlari har qanday jamiyatning mafkuraviy

quroli sifatida uning hayotida muhim rol o'ynaydi. Targ'ibot – tashviqot faoliyatisiz har qanday jamiyat, davlat bir kun ham yashay olmaydi. Shunday ekan, ayni paytda «targ'ibot», «tashviqot» tushunchalarini o'zlashtirish, mazmun va mohiyatini to'la anglab olish muhim ahamiyatga ega. Targ'ibot tarqatiladigan siyosiy, ilmiy, falsafiy, badiiy va boshqa qarashlar hamda g'oyalarni ijtimoiy ongda joriy etish, ommaviy faoliyatni faollashtirish maqsadida ularni yoyish, tarqatishiga aytiladi. Targ'ibot-tashviqot bir-biri bilan yaqindan bog'liq bo'lib, muayyan guruxlar manfaatini ifodalaydi. Targ'ibot qilish g'oyalar, qarashlar, nazariyalarni matbuot, og'zaki, radio, televideniye yoki boshqa vositalar yordamida yoyish demakdir. «Tashviqot» tushunchasi ham «keng xalq ommasiga siyosiy ta'sir ko'rsatish, uni biror bir ishga safarbar etish maqsadida axoli o'rtasida og'zaki yoki yozma ravishda olib boriladigan ommaviy-siyosiy ish, faoliyatdir. Tashviqot deganda, biz ommani hayajonga solish, uni o'z orqamizdan ergashtirish uchun ularning hissiyotiga ta'sir etish san'atini tushunamiz. Targ'ibot ijtimoiy faoliyatning alohida turini anglatadiki, ma'lum qarashlar, tasavvurlar va emotsional holatlarni vujudga keltirish, ular orqali esa, kishilarning xulq-atvoriga ham ta'sir etish maqsadida bilimlar, g'oyalar, badiiy boyliklar va boshqa xil axborotlarni etkazish hisoblanadi. Fan, mafkura, san'atdan farqli o'laroq, targ'ibotning asosiy vazifasi yangi ma'naviy boyliklarni yaratishdan iborat bo'lmasdan, balki ularni yoyish, joriy qilishdan iboratdir. Fan sohasida, olamni badiiy o'zgartirishda kashf qilingan jamiki narsalar targ'ibotchi tomonidan tashviqot jarayonida idrok qilinadi, targ'ibot yordamida konkret kishi uchun bamisoli yangidan kashf qilinadi. Targ'ibotning maqsadi faqat ma'naviy boyliklarni shunchaki kishilar ongiga etkazishdangina iborat bo'lmasdan, balki, shu bilan birga ularni konkret vaziyatni, auditoriya xususiyatlarini, bu ish kechayotgan sharoitni hisobga olgan xolda ijodiy tarzda qayta ishlashni ham nazarda tutadi. Targ'ibotchilik faoliyatida ko'pincha fanning xulosalari, san'at asarlari ommalashtirilibgina qolmay, balki ularning boyishi, rivojlanishi ro'y beradi. Targ'ibot va tashviqot ishlari mamlakat ichki hayotini, jahondagi ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishini tezkor tarzda aks ettiruvchi axborot ishi bilan juda chambarchas bog'langandir.

Og'zaki tashviqot ishlarining ommaviyligi va ko'p qirraligi ijtimoiy faoliyatning aloxida turi bo'lgan targ'ibot va tashviqotning muhim o'rnini ko'rsatadi. Og'zaki tashviqot ishlarining ommaviyligi va ko'p qirraligi bir tomondan, muayyan bilimlarni, ma'naviy boyliklarni etkazish, qayta ishlash, ularga targ'ibotchi-tashkilotchilarning manfaatleri va maqsadlariga eng qulay tarzda muvofiq keladigan hamda tinglovchilarning xususiyatlarini hisobga oladigan shakllar tusini berish;

Ikkinchi tomondan og'zaki tashviqot ishlari orqali yoyiladigan axborot vositasida tinglovchilarning ongiga ta'sir etiladi. Agar yangi bilimlar, ma'naviy boyliklar, fan, mafkura, san'atning bevosita natijasi bo'lsa, tinglovchilarning ongida muayyan holatni vujudga keltirish, dunyoqarashni o'zgartirish, vaziyatni baholay bilish layoqatini shakllantirish va ularga muvofiq keladigan xarakatlarga rag'bat berish esa og'zaki targ'ibot va tashviqotning natijasidir. Uni bunday keng ma'noda tushunish uning g'oyatda xilma-xil boshqa shakllaridan farqlovchi umumiy jihatlarini aloxida ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Uchinchi xil ma'noda olingan og'zaki targ'ibot-tashviqotda uning ichki tuzilishi, siyosiy-targ'ibot bilan siyosiy tashviqotning nisbati to'g'risidagi masala olib qaraladi. Bunda og'zaki targ'ibot-tashviqot orqali ommaga g'oyaviy-siyosiy, ta'lim-tarbiyaviy ta'sir etishning turli xil usullari va nisbatan mustaqil tizimlari tarzida namoyon bo'lib, ular o'rtasida chuqur ichki aloqadorlik mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Targ'ibot va tashviqot ishlarida mahalliy faktlar ham muhim ahamiyatga ega. Targ'ibot va tashviqot ishlarida mahalliy faktlar targ'ibot-tashviqotning bir-biri bilan bog'liq tomonlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi masalalarga e'tiborni qaratadi. Haqiqatdan ham, hayotda targ'ibot bilan tashviqot o'rtasida qandaydir to'siq yo'q. Aksincha, ular ko'pincha bir-biri bilan qo'shilib ketadi va doimo bir-birini to'ldiradi. Targ'ibotchi o'zi o'tkazgan mashg'ulotlar natijalariga beparvo qaray olmaydi, chunki, ularning so'zi tinglovchilarga ijobiy ta'sir etgan taqdirdagina muvaffaqiyatli chiqqan bo'ladi. Targ'ibotchining vazifasi ommaga ko'proq g'oyalar tarqatish va ommaviylashtirishdan iborat, u shu qadar ko'p g'oyalar berishi

kerakki, bu g'oyalar nisbatan unchalik ko'p bo'lmagan kishilar tomonidan o'zlashtirib olinadi. Tashviqotchi madaniy-ma'rifiy soha xodimining zimmasidagi vazifa esa, shu masala haqida gapirganda tinglovchilarning hammasiga, har biriga ma'lum bo'lgan eng muhim faktlarni, misollarni tanlab olib ommaga bitta g'oyani singdirish uchun bor kuchini sarflashdan va mazkur masaladagi qarama-qarshilikni to'la tushuntirish ishini tashviqotchiga qoldirishdan iboratdir. Targ'ibot ishlari ko'pincha bosma matbuot orqali, tashviqot ishlari esa, jonli so'z orqali olib boriladi. Jonli so'z ya'ni, og'zaki tashviqotning asosiy maqsadi konkret, yorqin, oddiy va tushunarli misollar asosida kishilarga etkazish. Hayotimizdagi hodisalarning ijtimoiy mohiyatini ochib berish ularga siyosiy ma'no berish, butun xalq manfaatlarini himoya qilish og'zaki tashviqotning asosiy maqsadi bo'lishi lozim. Xo'sh, g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning umumiy tizimida og'zaki tashviqot qanday vazifalarni bajaradi? Birinchidan, u turli axborotlar tarqatadi, kishilarni faktlar, voqealar, ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. O'z-o'zidan ayonki gazeta va jurnallar juda katta tirajda chiqayotgani, yoki radio va televideniye deyarli har bir oilaga kirib borgani, internetni rivojlanayotgani hozirgi kunda aholi axborotni asosan shu vositalar orqali olmoqda. Biroq og'zaki targ'ibot va tashviqot ham har qachongidek juda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Og'zaki targ'ibot-tashviqot respublikamiz ichki va tashqi siyosatining dolzarb masalalaridan ommani yaxshiroq xabardor bo'lishida, atroflicha axborotga kishilarning qiziqishi va o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishda davlat va jamoat tashkilotlariga ko'p jihatdan yordam beradi. Shuningdek, axborot xabarlarini farqlab borish tashviqotning muhim vazifasi hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasiga oid ma'lumotlarning ma'lum yiqindisini tinglovchilarga shunchaki taqdim etibgina qolmay, balki shu bilan birga ularning ijtimoiy-siyosiy ma'nosini ochib beradi, axamiyatini, boshqa voqealar va hodisalar bilan aloqadorligini tushuntirib beradilar. Bu bilan axborotning mazmuni chuqur, har tomonlama ochib beriladi, ijtimoiy-siyosiy voqealar, dalillar milliy manfaatlar nuqtai nazaridan baholanadi, ular xaqida jamoatchilikning to'g'ri ijtimoiy fikri hosil qilinadi.

Shu bilan birga og'zaki tashviqot chaqiriq, undash funktsiyasini ham bajaradi. Bunda olingan axborotni, uning ahamiyatini, ijtimoiy-siyosiy ma'nosini tushuntirib berish asosida kishilar faol ishlab chiqarish yohud boshqa ijtimoiy faoliyatga yo'naltiriladilar, ish sifatini va ishlab chiqarish samaradorligini o'stirishga, kuch-g'ayratlarini oshirishga safarbar qilinadilar. Bunday chaqiriq u yoki bu xildagi shiorlar shaklida bo'lishi shart emas, albatta, u suhbat, siyosiy axborot, ma'ruza va boshqa ommaviy-siyosiy tadbirlarning mazmunidan kelib chiqishi mumkin, Ularning ishonarli tarzda, isbotlangan, aniq milliy mafkuraviy yo'nalishga ega bo'lishi ommada unga javoban bunyodkorlik ishlariga ehtiyoj tug'diradi. Tashviqotchilik ishlari ma'lum darajada jo'shqinlik kasb etsa, ommani hayajonga keltira olsa, kishilarning xis-tuyg'ulariga ta'sir etsa, ularning chaqiriq, undash funktsiyasi kuchayadi. Og'zaki tashviqotning axborot beruvchilik, sharhlovchilik va da'vat qiluvchilik funktsiyalari bir-biri bilan chambarchas boqlangan bo'lib, doimo birga harakat qiladi, bir-birini to'ldirib turadi. Xullas, pirovardida targ'ibot va tashviqot qilinayotgan g'oyalar, nazariyalar ommaning e'tiqodiga aylanib borishi, ularning ishlarida, faoliyatida o'z ifodasini topishi, xulq-atvor normasi bo'lib qolishi lozim. Davlatlar va partiyalarning siyosatida yuz bergan o'zgarishlar targ'ibot va tashviqotning mazmuni, metodlari va shakllariga jiddiy ta'sir qiladi. Biroq, jamiyat taraqqiyotida turli mafkuralar kurashi ham, targ'ibot va tashviqot ishlari ham sira to'xtab qolmaydi. Bugungi kunda turli xil mafkuralar, g'oyalarning o'zaro kurashi sharoitida mamlakatimizda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish masalasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Tashviqot so'zining ma'nosi nima?
2. Targ'ibot so'zi imani angalatadi?
3. Mafkura ishlarini targ'ib qilishda nimalarga e'tibor berishi kerak?
4. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari.
5. Madaniy-ma'rifiy muassasalar targ'ibot-tashviqot ishlarini qanday yo'l bilan olib boradilar?

3-mavzu: Targ`ibot-tashviqot ishlarining psixologik, pedagogik va mantiqiy asoslari

Reja:

1. Targ`ibot – tashviqot ishlarining psixologik tomonlari.
2. Targ`ibot – tashviqot ishlarida sotsiologik yondashuv.
3. Targ`ibot – tashviqot ishlarida Diqqat va uning turlari. Xotira.
4. Targ`ibot - tashviqotning mantiqiy asoslari.

Tayanch iboralar

Sotsiologik yondashuv, sotsial-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, targ`ibot-tashviqotning maqsadi, odam xotirasi, ko`rgazmali xotira, nutqqa qiziqish, pedagogic tamoyil, dunyoqarashni shakllantirish, mafkuraviy vazifa. Isbotlash strukturasi, rad qilish usuli, bevosita va bilvosita isbot qilish, deduktiv xulosa, induktiv xulosa.

Targ`ibot – tashviqot ishlarining psixologik tomonlari. Kishilarga ta`lim –tarbiya berish va ularning madaniy dam olishi bilan bog`liq bo`lgan har qanday faoliyat singari Targ`ibot tashviqot ishida ham tashkilotchi faqat o`z tajribasi va fahm - farosatigagina qarab ish tutmay, balki inson psixologiyasining obyektiv qonunlarini bilimlarini o`zlashtirish va shaxsning kamol topish jarayonini o`rganadigan fanlarning yutuqlarini bilib ish tutgandagina muvaffaqiyatli bo`lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, har bir targ`ibotchi o`z faoliyatida psixologik va pedagogik tomonlarni hisobga olishi zarur. Chunki tashviqot murakkab va ko`p qirrali ijtimoiy voqea. Shuning uchun targ`ibotda – tashviqotchi uning turli tomolarini, ya`ni sotsiologik , sotsial –psixologik, pedagogik, mantiqiy yo`nalishlarini o`rganadi. **Sotsiologik yondashganda targ`ibot–tashviqotning maqsad va vazifalarni**, mazmunini, asosiy yo`nalishlarini, bilimlarini tarqatish turlari va vositalarining o`zaro aloqalarini unga turli darajada rahbarlik qilish masalalarini aniqlash bilan bog`liq bo`lgan tomonlari aspektlari ko`rib chiqiladi va baholanadi. Sotsial psixologiya tag`ibotchi va tashviqotchini kishilarning ijtimoiy ongida ularning moddiy, ma`naviy va sotsial ehtiyojlari aks etish qonuniyligi haqidagi bilimlar bilan qurollantiriladi. Sotsial psixologiya ehtiyojlariga sinflar va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy ongining holati sifatida qaraydi. Ehtiyojlar faoliyati sabablarida ,ya`ni sotsial hissiyotlar , kayfiyatlar, sotsial umidlar va talablarda o`z ifodasini topadi. Ehtiyojlarda insonning dunyoga munosabati va dunyo haqidagi axboroti birinchi o`rinda turadi. Targ`ibot – tashviqot ishlarida shunga amal qilish muhimki, ehtiyoj obyektiv borliqni aks ettiribgina qolmay , balki ichki psixik hayot sifatida, biron – bir obyektga qaratilgan munosabat sifatida mavjuddir. Shu sababli ham madaniyat xodimlari Targ`ibot – tashviqotchi sifatida madaniyat muassasalariga keluvchilarning talab va ehtiyojlarini o`rganish nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Targ`ibot – tashviqotchilik faoliyatida auditoriya (tinglovchi , tomoshabin) bilan aloqada bo`lish jaryonida qadriyatlarni hisobga olish zaruriyati paydo bo`ladi. Kayfiyatlar his – tuyg`ular , sezgilar, idrok (tushunish ,anglash) negizida yuzaga keladi. Kayfiyat shaxs psixik faoliyatining ko`pgina tomonlarini, ta`sirlanish, iroda va xulq – atvorini qamrab oladi. Masalan, kishining ko`tarinki kayfiyati odatda faollik (harakatchanlik) tug`diradi, fikrlash jarayonini faollashtiradi.

Kayfiyatning nozik, jo`shqin ,ta`sirli tomonlari ham bor. Ular quvonch, g`azab, xayratlanish his tuyg`ularida namoyon bo`ladi. Targ`ibot – tashviqotchi real amalda mavjud bo`lgan kayfiyatlarnigina hisobga olish bilan cheklanmasdan, balki ijobiy – yaxshi kayfiyatni vujudga keltirishga, ularni ma`lum yo`nalishga solishga harakat qilishi kerak. Juda qisqa vaqt ichida yaxshi kayfiyat o`rnini salbiy ruhiy holat egallashi, ko`tarinki kayfiyat pastga tushishi mumkin. Targ`ibotchi – tashviqotchi bo`lgan madaniyat xodimi tinglovchilardan hamisha ko`tarinki kayfiyatda bo`lishiga erishishi lozimki, bu uning faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishiga imkon yaratadi. Ayni paytda psixologik qonuniyatlarning hamma sohasini qamrab chiqishning iloji yo`q. Shuning uchun ham ularning targ`ibot -tashviqot ishlariga bevosita aloqador bo`lgan ayrimlari to`g`risidagina to`xtalib o`tamiz. Bu shart madaniy –ma`rifiy axborotni auditoriya –tinglovchilar tomonidan zo`r diqqat –e`tibor bilan tinglanishidir. Shu munosabat bilan targ`ibotchi diqqat nima ekanini diqqat qay vaqtda yetarli va

mustahkambo`lishini bilishi lozim. Biz ongimizning biror faoliyat jarayonida muayyan narsa, predmetlarga qaratilishi va jam bo`lishini bilishini diqqat, deb ataymiz. Xuddi shu diqqat tufayli his-tuyg`ularimiz, idrokimiz butun aqliy faoliyatimiz yana ham kamol kasb etadi, aqliy faoliyatimiz biz o`rganayotgan predmet va qoidalarning o`ziga xos xususiyatlarini o`zida aks ettiradi.

Diqqatning o`zaro uch turi: ixtiyorsiz ixtiyoriy va ixtiyordan keyingi turlari farq qilinadi:

1) **ixtiyorsiz diqqat** biz ongimizni biror narsaga jalb etishini avvaldan istamaganimiz holda vujudga keladi. Bu diqqat biz tomonimizdan hech qanday kuch sarf qilinmagan holda, sezgi organimizga ta`sir etuvchi obyektning o`z xususiyatlari tufayli sodir bo`ladi;

2) **ixtiyoriy diqqat** inson qo`yilgan maqsadga muvofiq tarzda iroda kuchi bilan o`z ongini negadir o`zi uchun muhim deb hisoblagan obyektga (narsaga) qaratishi natijasida sodir bo`ladi va ilgaridan qo`yilgan maqsad bilan bog`liq bo`ladi;

3) **ixtiyordan keyingi diqqat** biror ishga berilib ketgan odamda paydo bo`ladi. Bu odam shuning uchun diqqat qiladiki, o`sha ish unda qiziqish tug`diradi, odam unga berilib ketadi. Diqqatning bu turi ixtiyoriy diqqat o`rniga keladi. Psixik jarayon sifatida ini diqqat bir qancha xususiyat, qonuniyatlarga egadir. Madaniyat xodimi targ`ibot – tashviqotchi uchun diqqatning konsentriyalanishi, mustahkamligi, shuningdek aloqasi aholida qiziqish tug`diradi.

Biz diqqatni yuksak darajada jamlashga qulay shart–sharoit yaratish uchun mashg`ulot, suhbat, ma`ruza–munozara o`tkazishdagi o`rinsiz ta`sir etadigan, jihatlarni bartaraf etish choralarni ko`rishimiz kerak. Tinglovchilar auditoriyada yaxshi joylashgan bo`lishlari, tashqaridagi g`ala – g`ovurni eshitmasligi, auditoriya meyorida yoritilgan bo`lishi kerak va hokazo. Ikkinchidan, konsentratsiya tashviqotchi mashg`ulot suhbat, ma`ruza paytida bayon etadigan axborotni tinglovchilar qay darajada tushunishi bilan belgilanadi. Agar tashviqotchining hikoya yoki ma`ruzasi tinglovchi tushunadigan shaklda olib borilsa, tinglovchi ularda o`zining tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarini kengaytiradigan axborot topsa, agar bu axborot tinglovchining o`y –fikrlari doirasiga bevosita aloqador bo`lsa va oldiga qo`yayotgan masalalarga javob berishda ko`maklashsa, uning diqqati haddan tashqari yuksak darajada jamlanadi. Uchinchidan, diqqatni jamlanishi tinglovchilar o`rganayotgan predmet ularning ko`z oldiga qay darajada o`zgarishi va o`sishiga bog`liqdir. Targ`ibot–tashviqotchi o`z hikoyasini, suhbat va ma`ruzasini shunday ko`rish kerakki, har bir yangi so`z va jumla tinglovchilar tasavvurida qarab chiqayotgan masalalarning yangi-yangi tomonlarini ochib beradigan bo`lsin. O`rganilayotgan mavzu butun mashg`ulot davomida tinglovchilarning ma`naviy dunyosini boyitadigan faktlar, mulohazalar, ta`riflarning mantiqiy izchil almashinuvi sifatida namoyon bo`lsagina, diqqatni yuksak darajada jamlab tura olish mumkin.

Shuningdek, mashg`ulotlarda tinglovchilarning diqqati faqat jam bo`lib qolmay, balki mustahkam bo`lishiga ham erishish kerak. Diqqatning mustahkamligi ham asosli jamlanishini belgilaydigan omillar bilan belgilanadi. Diqqat yuksak darajada jamlangan va mustahkam bo`lishning asosiy sababi o`rganilayotgan predmetga qiziqish va targ`ibotchi mashg`ulot paytida beradigan yoki mustaqil ravishda o`rganishni tavsiya etadigan bilimlarni o`zlashtirish zarurligini anglashdir.

Ana shuning uchun ham targ`ibotchi – tashviqotchi o`rganilayotgan material tinglovchining o`ziga zarur ekanini, bu material kun sayin ularning oldida paydo bo`ladigan hayotiy muammolarni to`g`ri hal etishni osonlashtirajagini doimiy ravishda ko`rsatib turishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, har qanday mavzudagi mashg`ulot yoki ma`ruza, qanday bo`lmasin, turmush bilan bog`langan bo`lishi lozim. Xullas mustahkam va yuksak garajada jamlangan diqqat avvalo tinglovchilarning iroda kuchiga etiborini ongli ravishda maqsadga yo`naltira olishga asoslanishi zarur. Binobarin tinglovchilarda burch tuyg`uchini va turmush bilan teng odim tashlash uchun tarixiy davr talablarni o`rganish zaruriyatini ketirib chiqaradi. Targ`ibot-tashviqotchi uchun diqqat qonuniyatlarini bilish nechog`lik muxim bo`lsa odam xotirasi xaqidagi bilimlarni egallash xam shunchalik zarurdir. Shu bois idrok etish tasavvur qilish va xayol surishda xotiraning qanchlik muxim ahamiyatga ega ekanligini alohida isbot qilib o`tirishning xojati bo`lmasa kerak. Chunki ana shu jarayonlarni xar biri kishining o`tmish

tajribasini yoda qoldirish saqlash va esga olish xotira deb ataladi. Biz bunda xotira qancha yaxshi bo'lsa idroklash tasavvur etish va xayol qilish o'shancha durust bo'ladi deb davo qilmoqchi emasmiz. Bu sohadagi bog'liqlik nihoyatda murakkab bo'lib bir xil tariflanishi mumkin emas. Lekin xotira durust bo'lmasa idroklash tasavvur etish va xayol qilishning yaxshi bo'lmasligi xam butunlay ayondir. Xotira oid xamma masalalarni ko'rib chiqishdan oldin shu narsani takodlash kerak. **Xotira ko'rgazmali –obrazli, og`zaki-mantiqiy va emosional turlarga bo`linadi.**

Ko'rgazmali-obrazli xotira materialni ko'rish eshitish va boshqa tasavvurlar shaklida esda qolishi bilan xarakterlanadi. Masalan italyan rassom rafalining <<Madonna Konestabele>> suratida aks ettirilgan tasvirni eslashimiz bulbulning sayrashi kabilarni tasavvur qilishimiz mumkin. Mazmun xotirasi deb ataladigan og`zaki mantiqiy xotira-predmetlarining obrazlarini emas balki biz ko'rib chiqadigan xodisalarning mohiyatining mohiyatini aks etiruvchi so`zlarda ifodalangan fikrlarni esda saqlashdir. Emosional xotira-O`tmishda ro`y bergan emosional xolatlarni yodda qoldirishdadir xayajon shodlik qo`rquv va shu kabilarni tug`durgan yani xis-tuyg`ularga kuchli tasir o`tkazgan voqealar o`zining ko`pgina tafsilotlari bilan uzoq vaqt esda qoladi. Qalb xotirasi aql-idrik xotirasidan mustaxkamroqdir deb bejiz aytishmagan. Kishilarda xotiraning ayrim turlari o`rtasida keskin chegara yo`q albatta. Shu bilan birga ko'rgazmalik obrazli og`zaki-mantiqiy yoki emosional xotiragina ega bo`lgan kishilar xam yo`q. Lekin ana shu xotira turlarida birining kuchliroq ifodalanganligini deyarli xar bir kishida ko'rish mumkin. Basharti biz lektorlar u tinglovchilarimizga xavola qilayotgan axborot uular tomonidan qabul qilinishi saqlanishi va zarur bo`lib qolgan chog`da esga olinishi uchun xotiraning uchala turuga tasir qilishimiz zarur. SHu maqsadga ko'rgazmali o`quv qurollarini foydalanish uzoq vaqt esda saqlanib qoladigan yorqin ifodali so`zlar topish birovlarning yaxshi xatti-xarakatlarini misol qilib keltirish yo`li bilan ularga qoyil qolish nojo`ya xatti –xarakatlarga esa norozilik yoki g`azablanish kayfiyatlarini tug`dirib xis –tuyg`ularga tasir o`tkazishga intilish kerak. Shu tariqa tinglovchilarga so`z bilan xam shuningdek. tegishli tasvir bilan xam tasir o`tkazgan bo`lamiz. Idrok qilish tasavvur etish va xayol surish uchun xotira qanday katta axamiyatga ega ekanligi xaqida yuqorida gapirib o`tgan edik. Agar inson o`tmish tajribasini eslay olmaganda aslida ana shu jarayonlarning bo`lishi xam mumkin emas. Xotira g`oyat murakkab psixik jarayon sifatida targ`ibotchi va tashviqotchi faoliyatida xam juda katta axamiyatga ega. Xo`sh shunday ekan xotira faoliyatida targ`ibotchi va tashviqotchi avvalo qaysi qonuniyatlarni xisobga lishi kerak Birinchi axborotni-materialni tishunish bilan takrorlash o`rtasida o`zaro aloqa mavjudligini xisobga olish kerak. Gap shundaki xamisha tushuntirishni takrorlash bilan doimiy ravishda qo`shib yuboriladigan tushuntirishgina bir tomondan o`rganilayotgan muammo mohiyatini chuqur tushunishgina ikkinchi tomondan tushunilgan axborotni xotirada saqlab qolishga olib keladi. Ikkinchidan tashviqotchi –markaz xodimi yoddan chiqarishga qarshi izchil va rejali ko`rish olib borishi kerak. Bu o`rinda bir qancha tadbirlar yordam bilan yoddan chiqarishning oldini olishi mumkinligini nazarda o`tish lozim. Endigina o`zlashtirilgan materialni avvalo xayolda shu material rejasini tuzish acborotni manosiga qarab guruxlantirish va undan mano jihatidan yaqin jumalarni ajratish yo`li bilan doimiy ravishda eslab yurish shu tadbirlar jumlasiga kiradi. Tinglovchi xar safar biror nazariy materialni o`qir yoki tinglar ekan uni fikran taxlil qiladi; yani unda eng muxim _u nima ikkinchi darajali ekanligini sabab qayerdayu natija qayerdaligini nima ilgariroq nima keyinroq nima keyinroq sodir bo`lganligini va xokazolarni aniqlash materialni passiv ravishda o`qish yoki tinglash bilan qanoatlanmay uni xayolda aktiv ravishda o`zlashtirish qayta ishlash xaqida bormoqda. So`ngra materialni tushunishni chuqurlashtirish davomida o`tiganini takrorlash singari tadbirlarni xam nazarda tutish kerak. Faktlarni yodda saqlab qolishdan shu faktlar ichiga yashiringan manoni tobora chuqurroq ochish sari borib muamoni yaxshi anglashgina emas balki uni yaxshiroq yodda saqlab mustaxkamlab olish xam mumkin. Uchinchidan targ`ibotchi va tashviqotchi madaniyat xodimlari inson xotira faoliyatidagi individual tafavutlarni xisobga olishlari lozim. Bazi odamlar ko`rgan narsalarini yaxshiroq eslab qolishadi chunki ularning ko`rish xotirasi kuchliroq bo`ladi. Boshqa birovlar eshitish yoo`li bilan qabul qilinganlarni yaxshiroq eslab qoladilar. Odamlarning aksar ko`pchiligiga xotiraning aralash tipi ko`zga tashlanadi. Targ`ibotchi ana shuning hammasini

xisobga olib o'z faoliyatida tinglovchilarga tasir ko'rsatishning xilma-xil vositalaridan faqat og'zaki nutqgina emas balki ko'rgazmali vositalarni (sxemalar jadvallar diogrammlar diofilmlar kinofilmlar va xokazolar)xam keng foydalanishi kerak. To'rtinchidan targ'ibotchi mano mantiq xotirasinnig yuzaki xotiradan afzalligini ravshan anglab olish kerak.Mantiqiy yodlab olish o'rganilayotgan materialni tushunish bilan bog'liqdir yuzaki yodlab olish esa tushunmasdan yodda saqlab qolishdir.Og'zaki mantiqiy yodlab olish u yoki bu masalalarning mag'zini chaqish ekanligini to'g'risida gapirmaganda xam materialni yodlab olishga sarf bo'ladigan quvvat jihatidan xam u yuzakiyodlab olishga qaraganda ko'p marta tejamlidir targ'ibotchi va tomoshabinlarda og'zaki-mantiqiy xotirani xar tomonlama rivojlantirish buning uchun xamma usullarda foydalanishi kerak.Targ'ibot-tashviqot ishlarida pedagogik masalalarni madaniy-ma'rifiy faoliyatda ta'lim va tarbiyaning pedagogika tomonidan ishlab chiqilgan asosiy dedaktiv prinsiplari va ilmiy asoslangan usullarini bilish va ulardan foydalanish muvaffaqiyatga erishishning muhim shartidir.Bu prinsiplar va talablar qaysilar? Nega ularga izchil amal qilishimiz va faoliyatimizda qo'llashimiz kerak?

Ma'rifiy targ'ibot – tashviqot jarayoni madaniyat xodimi beradigan narsalarning hammasini tinglovchi va tomoshabinga avtomatik va mexanik tarzda singdirish jarayoni emas. Hayotda quyidagiga o'xshagan hodisalarni hammamiz uchraganmiz, yaxshi tayyorgarlik ko'rgan targ'ibotchi yoki madaniyat xodimi auditoriyada so'zlamogda.U chiroyli gapiryapti, nutqidagi mantiq ham benuqson, nutq mavzusini ham ilmiy jihatdan chuqur ochib bermoqda. Lekin shunga qaramay tinglovchilar uni tushunishmayapti.Tushunmagandan keyin esa, notiqning so'zlarini eshitish istagi bir lahzada tugaydi.Natijda shunday bir vaziyat vujudga keladiki, notiq o'z ma'ruzasi bilan ko'rinmas g'ovning bir tomonida, manaviy ehtiyojlari qonmagan auditoriya esa boshqa tomonida qoladi.

Xo'sh, nima uchun ilmiy – nazariy jihatdan nuqsonsiz ma'ruza yoki tadbir kechagicha qiziqish tug'dirmaydi?

Bunday hollarda sabab ko'p bo'ladi. Lekin hammadan ko'ra, pedagogik xarakterdagi xatolar tufayli kelib chiqqan sabablar ko' bo'ladi. Shuning uchun tashkilotchi avvalo tinglovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi shart.

Bular quyidagilar: Notiq tinglovchilar tarkibini va ular o'rtasidagi aloqalar o'zaro munosabatlar xarakterini hisobga olishi kerak.Agar madaniyat saroyi yoki madaniy-va'rifiy muassasalarga turli korxonalar, tashkilotlarda kishilar yig'ilgan bo'lsa, ular o'rtasida rasmiy va norasmiy munosabatlar tarkib topgan bo'ladi.Maslan, ishchi, boshliq, xodim va hokazo.Bu munosabatlar uchrashuvning ma'ruza va boshqa biron tadbirning qanday o'tishiga, ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Ba'zan shunaqasi ham bo'ladiki, bir kishining, lekin ancha obro'li kishining bildirgan fikri jamoada notiqga bo'lgan umumiy munosabatni ham bildiradi.Biz endi auditoriyaning bir xillik darajasini aniqlash haqida so'z yuritamiz. Bunda tinglovchilarning yoshi, jinsi, kasbini ular orasidagi xotin – qizlar bilan hisobga olish tushuniladi. Bu guruhlardan har birining o'ziga xos qiziqishlar, ehtiyojlari bo'ladi, tinglayotgan yoki tomosga qilayotgan material axborotga munosabati bir xil bo'lmaydi. Masalan ko'pchilik xotin qizlardan iborat bo'lgan auditoriya tarbiya, axloq insoniy munosabatlar kabi masalalarga ayniqsa moyil bo'lsa, erkaklar auditoriyasi esa sotsial ijtimoiy davlat munosabatlariga, siyosatga professional talimga katta qiziqish bilan qaraydi. Tabiyki ana shundan kelib chiqib misollar illyustratsiyalarnitanlash vaqtida buni hisobga olmasdan bo'lmaydi tinglovchilarning kasb –kori professional jihatdan bir xil bo'lishi targ'ibot –tashviqot ishida ancha qulaylik tug'diradi chunki, bunday bir xillik biror piredmet xaqida butun auditoriyada mavjud bo'lgan umumiy tushunchaga tayanish yani mazkur ixtisosdagi kishilarga mo'ljalangan misllarni keltirish imkonini beradi bu xol nutqni ancha tushunilarliroq va tasirchanroq qiladi.Agar madaniy-marifiy soha targ'ibot –tashviqotchisi auditoriya oldida so'zga chiqish kerak bo'lsa u tinglovchilarninig miqdoriga hech maxal befarq qaramaslik kerak.CHunki bir necha kishilik auditoriya bilan bir necha yuz kishilik auditoriya o'rtasida farq juda katta bo'ladi.Bu ikki auditoriyada bir xil ussulda gapirib bo'lmaydi.Negaki, so'zlovchining xatti xarakati uni gapirish uslubi to'panganlar miqdoriga bog'luq bo'ladi u oz kishi qatnashayotgan auditoriyada o'zin erkin tutadi har bir kishiga murojat qilish imkoniga ega

bo`ladi. Katta auditoriya bazi kishilarni ruhlantirib yuborsa boshqa kishilarni malum darajada cheklab qo`yadi. Tinglovchilar bilan notiqning loylashuv tartibi ham etibor berishni talab qiladi. Auditoriyaning muhim xususiyatlaridan yana biri tayyorgarlik darajasidir-bu tinglovchilarning bilim darajasi malumoti va profesionaligi jihatdan xabardorligi bilan belgilanadi. Auditoriyaning bu xususiyatlaridan yana biri tayyorgarlik bilan maruza yoki axborotni tinglashga moyiligi, intilishi o`zaro bog`liqdir bu yerda inson ehtiyojlari birinchi o`rinda turadi. Agar auditoriyada axboratlarni bilish, bilib olish istagi bo`lsa o`ziga kerakli materialni o`zlashtirib olishga tayyor turadi va aktivlik ko`rsatadi, Notiq foydalangan ilmiy tushunchalar tizimiga g`oyat aniq bo`lishi kerak, shuning uchun tinglovchilarning manaviy dunyosiga o`tadigan ko`prik ro`lini bajara oladi. So`ngra, tashviqotchi mutaxassis sifatida o`ziga oddiy xaqiqat bo`lib ko`ringan qoidalarni auditoriyaning katta bir qismiga izoxlab berish talab etilishini xisobga olish kerak bo`ladi. Aksincha lektor izoxlab bermaganligi sababli uning nutqi tinglovchilarga tushinarli bo`lmasligi shu sababli auditoriyaning qiziqtirilmasligi mumkin.

Pedagogik tasir ko`rsatishda tizim bo`lmasa xech qanday talim va tarbiya samarali bo`lishi mumkin emas. Bu gap tinglovchilarda muayyan psixik ko`nikma va odat paydo qilish jarayoniga xam taaluqlidir. Masalan tashkilotchi madaniyat xodimlari o`z tinglovchilari va tomoshabinlarida og`zaki mantiqiy xotira sust ruvojlanganligini aniqladi. Bu xolda u xotirani o`stirishda mo`ljalangan mashqlarni doimiy ravishda o`tkazib turish kerak. Mashg`ulot oxirida tinglovchilar oldida nechog`lik aloqa mavjudligini sabab nimayu oqibat nima ekamligini aniqlashga yordam berish zarur. Talim tarbiya jarayonida qattiq izchil xarakterda bo`lishi kerak Bu talab xar qanday bilimga xos xususiyatni aks ettiradi. Bu talab mustaxkam uzviy zanjir bilan bog`langan tushunchalar, xulosalar va prinsiplarining qattiq va izchil sistemasidan iboratdir. Shunday qilib izchilik prinsipi tashkilotchi tinglovchilar bilimidagi kuchsiz va kuchli tomonlarini puxta aniqlash agar tadbir joiz bo`lsa o`tgan materiallar takrorlash va chuqur o`rganish o`tilgan materiallar bilan yangi material o`rtasidagi aloqani takidlash xisobga kamchiliklarini bartaraf etish vazifasini yuklaydi. Madaniyat xodimi o`rganilayotgan materialning tushunarli va tinglovchilarning chog`iga yarasha bo`lishidan pedagogik prinsipga qattiq amal qilishi kerak. Bu prinsip osondan keyinga oddiydan murakkabga malum narsadan nomalum narsaga o`tishga majbur etadi. Og`zaki targ`ibot-tashviqotning mantiqiy asoslari Mustaqil Respublikamizda fan va mafkura siyosat va iqtisod ishlab chiqarish va madaniyat sohalaridagi targ`ibot-tashviqot taraqqiyotining xozirgi tarixiy bosqichda ikkita vazifani; keng xalq omasining sosial qonuniyatlarini xuxuqiy demokratik jamiyat ko`riahning aniq yo`llarini ilmiy asisida bilishini va shu asosdan o`sib kelayotgan yosh avlod qalbi va taffakurida miliy g`oya tomoyillarga asoslangan dunyoqarashi tarbiyalanishini amalga oshirishga qaratilgan. Manaviy madaniyat tarixi va xozirgi vaqtdagi mafkuraviy faoliyat etiqod va dunyoqarashi tarkib toptirishning bir –biridan tomoila farq qiluvchi ikki metodni; stixiyali va ilmiy metodni biladi; Bu muxim mafkuraviy vazifani muvaffaqiyatli bajarish tashviqotchilik maxoratining yuqori darajada bo`lishi eng avvalo tashviqotchi-targ`ibotchi nutqining mantiqiylikida namoyon bo`ladigan taffakur sifatleri asosiy g`oyalarning mazmunini aniq yani ravshan va tushunarli bayon qilib bersh qobiliyati muloxazada ziddiyatlarning bo`lmasligi bir fikrdan ikkinchi fikrga izchilik bilan o`tish materialni quruq bayon qilish emas balki isbotlab beruvchi yani faktik va nazariy fikrlarga tayanuvchi bayon nazarda tutiladi. Taffakur va nutqining bu sifatleri birgalikda mantiqiy madaniyatning asosiy xususiyatlari va xarakteri bo`lib maydonga chiqadi u og`zaki nutqning ishonarli bo`lishining eng tasirchan omillaridan biri bo`lib xizmat qiladi. Mantiq talablaridan xar qanday chetga chiqishlar yani fikrlarining nonaqlifgi zidiyatligi noizchil va isbotsiz bo`lishda ko`pchilik oldida so`zlanadigan muayyan nutqning samaradorligini yo`qqa chiqaradi. Shu bilan bilan birga muloxazada mantiqning yo`qligini odatda yaxshi nutqqa ega bo`lish bilan xam pisxalogik usullar bilan xam tasir ko`rsatishning texnikaviy yo`ki xar qanday boshqa usullari bilan xam tuzatish mumkin emas. Xuddi shuning uchun ishontirish sanatini egallash (busiz faol mafkuraviy tarbiya jarayonini tasavvur qilib bo`lmaydi) bilimlarning tegishli soxasini chuqur bilish bilan bi dallilar keltirishning oqilona usullari va metodlarini egallashni xam nazarda tutiladi. bazn kishida mantiqiy muloxaza yuritish qobiliyati bo`lmasa uni bunday muloxaza yuritishga o`rganish

mumkin emas degan soʻzlarni eshitish mumkin. Bu xildagi fikrga qoʻshilish qiyin. Grammatika qoidalarini bilish yozish va nutq madaniyatiga tasir qilgani kabi mantiqiy ussular va metodlarni bilish xam taffakur madaniyatiga muxim tasir koʻrsatadi. Shuning uchun xam dallilar bilan muloxaza yuritish sanatini muayyan bilimlar va tajribalar asosida qurilganligini oʻz natijalarini beradi. Xolbuki shu narsa yaxshi malumki konkret bilimlarning mavjudligi oʻz-oʻzidan xamisha xam fikran mohirlik bilan qilinavemaydi. Buning uchun muayyan tajriba tanqidiy analiz qilish va muloxazalar yuritish talab qiladi ular pirovard natijada notiqning fikrlash madaniyatini belgilab beradi. Isbotlash deb biron–bir fikrning xaqiqiyiyilgini boshqa xaqiqiy va u bilan bogʻliq boʻlgan fikrlarni asoslab berishdan iborat mantiqiy muloxazalarga aytiladi. Koʻpincha isbotli muloxaza yuritishning sinomi tarzida ishlatiladi chunki fanning empiric yoki nazariy asoslangan boʻlsa boshqacha aytganda u mazkur bilim soxasidagi qabul qilingan metodlardeb xisoblanadi va qabul qilinadi. Isbotlash fikr yuritishning pirovard maqsadi-xaqiqiy fikrlarga ega boʻlishdir. Isbotlash muloxaza yuritishning bu xususiyati qisqa va aniq qilib F.Engelisning quydagi soʻzlari bilan ifodalab beradi. Agar bizning nuqtai nazarimiz toʻgʻrib oʻlsa va agar biz ularga nibatan taffakur qonunlarini toʻgʻri tadbiq qilsak u xolda natija xaqiqatga muvofiq kelishi lozim Logik isbot qilish usullarni oʻrganadi fikrlarimizning konkret mazmunidan chetga chiqadi. Xaqiqiy fikr yuritishda esa fan yoki amaliyotning biror soxasi bilan bogʻliq fikr obektning oʻziga qarab turli–tuman asoslash usullarini foydalaniladi. Bu usullar bir-biridan boshlangʻich nuqtai nazarlari xulosadagi xar bir qadamning qatiyligi va xokazolar bilan farq qiladi. Bunda isbot qilishning xar bir soxasidagi pirovard natijalarning aniqlik darajasi xam bir xilda boʻlmaydi; meditsinada matematikadigaga nisbatan bishqacha tarixda deologiyadagiga nisbatan boshqacha boʻladi va xokazo. Biroq farqlarga qaramasdan isbot qilishnin xar bir operatsiyasi u formallashtgan detektiv sistemadagi qatyi mantiqiy amal boʻlsin yoki siyosat sohasidagi mazmunli muloxaza boʻlsin xamisha muayyan vazifani koʻzlaydi va shart –sharoitga rioya qilganda mazkur soxasidagi vositalar va qabul qilingan standartlar yordamida obyektiv xaqiqiy shubxasiz natijalarni isbotlashga erishish mumkin boʻladi. Yuqorida keltirilgan tarifga muvofiq isbot qilish jarayoni bir –biri bilan bogʻliq uchta elementni oʻz ichiga oladi. Ulardan birinchisi –isbot qilish tezisi yani maruzada suxbat yoki axborotda xaqiqiyilgini asoslab berish lozim boʻlgan qoidadir. Bunday tezis nimani isbot qilish kerak degan savolga javob beradi. Ikkinchi element isbot qilishning dalillari (dalil isbotasoslar) bular boshlangʻich faktlar tezsiz nima yordamida asoslangan degan savolga javob beradi Uchinchi element-namayish qilish yoki mantiqiy bogʻlanish bolib u dalillar bilan tezsiz oʻrtasidagi bogʻlanishni koʻrsatib beradi. U tezsiz asoslash qanday boriladi degan savolga javob beradi. Dalillar keltirish jarayonida tezsiz asoslash umumiy xolda ikki usul bilan bevosita yoki bevosita amalgam oshiriladi. Bevosita isbot qilish –xech qanday qoʻshimcha fikrlardan foydalanmasdan tezsiz dalillar bilan asoslab berishdir. Bu xolda fikrlar zanjiri dalillardan boshlanadi va tezsizni bevosita tasdiqlashga olib keladi. Asoslab berishning bevosita usuli shu xolda ishlatiladiki bunda maruzasi umumiy nazariy qoidaga yoki umum tomonidan qabul qilingan baxo berish meyoriga amal qilish konkret faktni baxolaydi. Masalan sud jarayonida birlamchi ishga xuquqiy baxo berish uni qonunda belgilangan umumiy xuquq normasiga joriy qilish yoʻli bilan xuquq tartibotini buzishlarining ana shu xillikni koʻzda tutiladigan yol bilan amalgam oshiriladi. Bevosita isbot qilish tezisinin xaqiqiyoyligi unga zid keluvchi fikr antitezis orqali asoslab beriladi. Bu xolda dalil keltirish ikki bosqichda amalgam oshiriladi. birinchi bosqichda muholifning tezisiga zid keluvchi davosining yolʻonligi asoslab beriladi. Tezsiz va bir-birini istisno qilishni va ular oʻrtasidagi (yo tufayli ikkinchi ikkinchi mavjud uchinchi berilmagan degan prinsip) amal qilishi tufayli ikkinchi bosqichda antitezning notoʻgʻriligidan tezising xaqiqiyilgini toʻgʻrisida xulosa chiqariladi. Bevosita va bevosita isbot qilish jarayonlari dalil keltirishning mustaqil ussulari sifatida namayon boʻlishi shu bilan birga ayni vaqtning oʻzida qoʻllanilishi xam mumkin. dalil keltirishning ayni bir xil jarayon mana shu ikki mantiqiy jarayoning birlashib ketishi _bunda bir tomondan soʻzga chiquvchi oʻz tesini ijodiy asoslaydi. Ikkinchi tomondan esa qarama –qarshi tomoning fikrlari asossiz ekanligini (antitazdallil bilan koʻrsatib beradi) muloxazaning isbot axamiyatni va ishonarliligini ancha kuchaytiradi.

Dalil keltirish sanati. Isbot qilish jaryon oilan bir qatorda tanqidning mantiqiy vosita-vazifasini bajaruvchi rad qilish usulini bilib olib taqazo qiladi. Rad qilish deb tezis sifatida ilgari surilgan fikrning noto`g`riligini yoki asossiz aniqlashning mantiqiy jarayonoga aytiladi. Rad qilish tushunchalari-nisbiy tushunchalar yani operasiasining U isbot qilishning sodir bo`lib o`rgan jarayon nisbatangina manoga ega bo`ladi. Bunda ishtirok etayotgan yoki qatnashchilarga tezisni ilgari suruvchini proponet rad qilib chiquvchi qarama-qarshi tomoni opponent deb ataydilar.Ilgari sodir bo`lgan isbotlashni buzishga qaratilgan jarayon xisoblanuvchi rad qilish uchta vusul bilan bajarilishi mumkin. Biribchi usul-tezisni rad qilishdir.Ikkinchisi usul namayon qilishni rad qilish uchinchi usul-dalillarni rad qilishdir.birinchi usul-tezisni rad qilish anchagina tanqid kuchiga egadir. Bu usuldan foydalanishning maqsadi davogar proponet tomonidan qo`yigan fikrni asossizligining xato ekanligini yoki yolg`onligini ko`rsatib berishdir. Tezisni rad qilish yo bevosita bajarilishi mumkin.Bevosita rad qilinganda dalil keltirish quydagicha amalgam oshiriladi.dastavval ilgari surigan tezis to`g`ri tezisdir deb shartli ravishda faraz qilinadi. So`ngara mazkur tazisdan kelib chiqadigan oqibatlar mantiqan keltirib quydagicha amalgam oshiriladi.Dastavval ilgari surilgan tezis to`g`ri tezisdir deb shartli ravishda faraz qilinadi so`ngra mazkur tezisdan kelib chiqadigan oqibatlar mantiqan keltirib chiqariladi va ular malum narsalar bilan fakt bilan ilgari berilgan qoidalar bilan yoki o`sha davogarning boshqa davolari bilan qiyoslab ko`riladi.Nixoyat keltirib chiqarilgan oqibatlar belgilangan xaqiqlar o`rtasidagi zidiyatlarni aniqlab yo`l qo`yigan narsa noto`g`ri tezis xaqiqatga to`g`ri kelmaydi xato tezislar degan xulosa chiqariladi. Tesisni rad qilishning bu usuli yo`qqa chiqarish deb ataladi.Tezisni bevosita rad qilish boshqacha tuziladi bunda apponent qarshi tomonning fikrini to`g`ridan – to`g`ri analiz qilmaydi dalillarni xam proponet (tezisni ilgari suruvchi) ning namayon xam tekshirmaydi.Balki butun diqqat etiborini o`z tezisni puxta va xar tomonlama asoslab berishga qaratadi.Agar bunday dalil keltirish yetarli darajada malakali bajarilsa xamda munozara qatnashchilarni va tinglovchilarini fikrining to`g`riligiga ishontira olsa u xolda shunday keyin ikkinchi yilib yani bu fikrning qadam qoyib yana bu fikrning to`g`riligidan proponet (tezisni ilgari uruvchi)ning tezisni noto`g`ri ekanligi oz –o`zidan kelib chiqadi va uning tesisni dastlabki tezisga zid bo`ladi.

Tanqidning ikkinchi usuli –namayon rad qilish bo`lib fikirlashda dalillarni tezis bilan mantiqan noto`g`ri bog`lashlarni yoki bunday boglanish umuman o`lmasligini aniqlashga qaratiladi. Dalil keltirishning bu usulini muvaffaqiyatli qo`lash uchun induksiya deduksiya analogiya kabi xulosalar chiqarich qoidalari to`g`risida tasavvurga ega bo`lish kerak.

Rad qilishning uchinchi usuli –dalilini tanqid qilishga qaratilgan proponentning dalillari noto`g`ri yoki asossiz ekanligini ko`rsatib bu bilan uning tezisi isbot qilinmagan degan xulosaga keladilar.Shuni nazarda tutish kerakki namayoshining rad etilishi xam shuningdek dalillarning rad etilishi xam o`z-o`zicha isbot qilish strukturasi buzadi va tezesning asoslanmaganligi ko`rsatadi xolos.shuning uchun xam bu usullarni axamiyatga ortiqcha baxo berib bo`lmaydi.

Dalilarga qo`yiladigan talablar

Ko`pchilik oldida so`zlanadigan nutqning ishonarli bo`lishi ko`p jihatdan dalillarga bog`liq bo`lib ular yordamida asosiy g`ya asoslab beriladi.Tinglovchilar xulosalarning to`g`riligiga avvalo dalillarning ishontiruvchi kuchi bo`lgan dastlabki faktik va materialning sifatiga qarab baxo beriladi.Nutq so`zlashga tayorgarlik ko`rish xamisha dastlabki faktik materialni puxta analiz qilib chiqishni statistik umumlashmalarini voqea-xodisani o`z ko`zi bilan ko`rgan kishilarning guvoxliklarini ilmiy malumotlarni va kabilarni taqazo qiladi.Zaif va shubxali dalil tashlab yuboriladi yoki aniqlanadi eng salmoqlilar dalillarning mukammal va zidiyatsiz sistemasini qilish sintezlashtiradi.Shu bilan birga lektorning mavzu ustidagi dastlabki ishi dalillar keltirishning aloxida strategiyasi taktikasini ishlab chiqishdan iboratdir. Taktika degan shunday dalillarni izlash va tanlab olish nazarda tutiladiki ular konkret auditoriya uchun ancha ishonarli bo`lib tinglovchilarning yoshi malumoti boshqa xususiyatlari xisobga olinadi.Uy-joydan ffoydalanish idorasi xodimlari yoki maktab o`quvchilari uchun mo`ljalangan ayni bir mavzudagi maruza faqat uslubi mazmuning chuqurligi psixologik yondashuvi bilangina emas shu bilan farqlanadi.Dalil keltirishning strategic vazifasini qilish ko`pchilik oldida so`zlanayotgan

no`tdagi dalillarga bo`lgan mantiqiy talablar bilan belgilanadi. Bu qoidalar mana shunday; 1) xaqiqiy fikirlargina dalillar bo`lib xizmat qilishi mumkin. 2) ularning xaqiqiyliги tezisdan qat'iy nazar belgilanadi 3) dalillar mazkur tezis uchun yetarli bo`lishi va bir-biriga zid kelmasligi lozim.

Dalillash usullari

Asosli va ishonarli maruza doklad yoki suxbatning muxim elementlaridan biri tashviqotchi fikrining oqilona va mantiqiy tuzilishidir.

Isbot qilish metodi yoki usulifikrining ichki mantiqiy tuzilishi boshlang`ich asoslari (dalillar xaqidagi malum bilimdon) xulosaga –tezik to`g`risidagi bilimga o`tishdir. Logikada isbot qilishning bu elementi namayon qilish deyiladi. Namayon qilib ko`rsatish –tezis logika qoidalariga muvofiq qabul qilingan dalillardan tabiiy ravishda kelib shiqishning yoki paydo bo`lishini ko`rsatibberish demakdir.

Dalillardan tezisga mantiqiy o`tish xulosalar chiqarishning mashhur shakllari:

1) deduksiya;

2) induksiya;

3) analogiyabilan mos keladi, ular bir–biridan mantiqiy amalning yo`nalishi vaxarakteri bilan farq qiladi.

Deduksiya–bu asosan umumiy bilishdan xususiy bilishga mantiqiy o`tishdir. **Induksiya –bu** odatda emperik material asosida vujudja keladigan umumlashtirishdir. **Analogiya –bir** xil voqealar va xodisalarni bir-biriga o`xshatish asosida xulosa chiqarishdir. **Tajribaning** ko`rsatishicha, xulosalarning bu shakllari xam mustaqil ham birgalikda qo`llaniladi, xar-bir konkret xolda ular tezisni asoslashning qabul qilingan usulini harakterlab beradi. O`z-o`zidan ravshanki, biron bir tezisni asoslash usuli ixtiyoriy bo`lmaydi. Fikirlash logikasi birinchidan, muxokama qilinayotgan mavzuning o`ziga xos xususiyatlari bilan; ikkinchidan, muhokama qilinayotgan mavzuning ishlayotgan boshlang`ich axborotning xarakteri bilan;

uchinchidan auditoriyaning xususiyatlari bilan belgilanadi. Har bir konkret holda notiq tinglovchilarning mazkur tarkibi uchun eng muvofiq keladigan dalillar keltirish usulini tanlab oladi. Maslan harqalo axvol iqtisod, fan va tez yutuqlari va boshqa ko`pgina mavzularga oid maruzalar aniq faktik materialarni taxlil qilish, umumlashtirishdan tez-tez foydalanib turiladi. Shu o`rinda ashyoviy materiallarni mantiqiy ishlash induksiya shaklida sodir bo`ladi. Nazariyaga murojaat qilish, deduktiv fikrlashdan foydalanishni taqozo qiladi. Xuddi shuningdek, bir – biriga o`xshash umumiy hadisalar, faktlar va vaziyatlarni taqqoslash va o`xshatish kerak bo`lib qolganda analogiyaga murojaat qilish zaruriyati bo`ladi. Bunda dalillar keltirish usullaridan ham mustaqil holda ham boshqalari bilan birga maydonga chiqishi mumkin. Notiq tarixiy voqealar va faktlarni aynan bir- biriga o`xshatganda farqlarni hisobga olishi juda muhim ekanligini also unutmasligi zarur.

Savol va topshiriqlar

1. Targ`ibot – tashviqot ishida psixologiyaning o`rni nimada?
2. Targ`ibot – tashviqot ishida sotsiologik yondashuv deganda nimani tushunasiz?
3. Targ`ibot – tashviqot ishida diqqat va uning turlari.
4. Targ`ibot – tashviqot ishiga pedagogic yondashuv deganda nimani tushunasiz?
5. Targ`ibot – tashviqot ishining mantiqiy asoslari nima?
6. Targ`ibot – tashviqot ishida qanday o`rin tutadi?

4-mavzu: Targ`ibot va tashviqot ishlarida statistik ma`lumotlardan foydalanish

Reja:

1. Statistika tushunchasi
2. Targ`ibot-tashviqotishlaridastatistikma`lumotlarningo`rni,
3. Statistik ma`lumotlardan ijtimoiy hayotda foydalanish.
4. Og`zaki nutqda statistik ma`lumotlarning o`rni va ularning turlari.

5. Targ'ibot-tashviqotning mazmunini ta'sirchan bo'lishini ta'minlashda kino, radio, televidenie, internet va boshqa vositalarning ahamiyati.

Tayanch iboralar.

Targ'ibot, tashviqot, Statistika, Targ'ibot-tashviqotishlaridastatistikma'lumotlarningo'rni, Statistik ma'lumotlardan ijtimoiy hayotda foydalanish, Og'zaki nutqda statistik ma'lumotlarning o'rni va ularning turlari.

“Statistika”- lotincha, status – so'zidan olingan bo'lib, “ahvol”, “holat” degan mazmunni bildiradi¹. SHu so'z ildizidan stato – “davlat”, statista - “davlat bilimdoni” degan so'zlar kelib chiqqan. SHuningdek, “statistica”- davlat to'g'risida muayyan bilim, ma'lumotlar yig'indisi degan mazmunni bildiradi. Statistika-birinchiidan, jamiyatdagi ijtimoiy ishlab chiqarishni miqdorko'rsatgichlarini, ularni o'zgarish va rivojlanishini o'rganuvchi, qayta ishlovchi – fandir. Ikkinchiidan, ommaviy ko'rinish-hodisotlarning miqdor hisobidir. Uchinchidan, matematik statistika – ilmiy, amaliy xulosalar qilish va tegishincha foydalanish uchun matematikuslub bilan tizimlashtirishga bag'is hlangan matematikaning bir bo'limidir. To'rtinchidan, demografik statistika- aholi joylashishining, harakatining (biryash joyidan ikkinchi joygako'chib yurishi), tarkibining (qanday millat, qanday irq, qancha erkak, qancha ayol, qancha voyaga etgan, qancha voyaga etmagan, qancha sinafaqayoshidavah.k.), miqdorining (aholinis onjihatdano'sishi, tug'ilish va o'lish dinamikasi) darajasiga oid ma'lumotlarni statistik uslub bilan tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi statistik sohasi hisoblanadi.

Statistik kuzatuv – orqali jamiyatdagi ommaviy ko'rinishlar, holatlar haqida aniqlanadigan ma'lumotlar to'planadi. Masalan, aholini ro'yhatdan o'tkazish orqali, insonlarning ko'payishi, tug'ilishi va o'limi dinamikasi, jamiyatda qaysi yoshdagi shaxslar qancha foizni tashkil etayotganligi, ularni qaysi manzillarda qancha miqdorda yashayotganligi aniqlanadi. Albatta bu ma'lumotlardan aholini keraqli bo'lgan iste'mol mollari, oziq-ovqat bilan ta'minlash, transport vositalarini qatnovini yo'lga qo'yish, ish joyi bilan, yashash joyi bilan ta'minlash va keraqli madaniy va maishiy xizmatlar ko'rsatish masalalarini o'z vaqtida to'g'ri hal qilish uchun, jinoyatchilik haqidagi ma'lumotlardan esa, jinoyatchilikka qarshi kurash borasida keng foydalaniladi. “Statistika- degan edi taniqli frantsuz davlat arbobi vatarixchisi A.T'er(1797-1877)– bu o'zing bilmagan narsalar haqida aniq ma'lumot berish san'atidir”. YO'zuvchi B. Dizraeli(1804-1881) “Hayotda, qoida bo'yicha kimda ko'p ma'lumot bo'lsa, o'sha ko'proq yutuqqa erishadi” – degan edi. Hamda uning o'zi tomonidan yana, “YOlg'onning uchta turi mavjud: uydirma, surbetlarcha uydirma va statistika” deb ta'kidlangan. Amerika iqtisodchisi va statisti U.K.Mitchel(1874-1948)ning ta'kidlashicha, “Statistika – men va menga o'hshagan har qanday iqtisodchi (press qilib) briket hosil qilish uchun jipslashtiradigan - poyacha(soloma)dir”².

Statistik tushunchasi haqidagi asosiy tushunchalarning gundandako'proq bo'lgan fikr-mulohazalarini o'zlarining bergan ta'riflarini mavjud. Bu tushuncha va fikr-mulohaza, o'hshatish va ta'riflarni juda ham uzoq muddat to'htovsiz davom ettirish mumkin. Bizning fikrimizcha, “Statistika – bu jamiyat hayotining diagnostikasi dir”. Inson kasalligi va uni davolash haqida, uning faqatgina tashqi turishiga qarabgina, hech qanday tekshiruvsiz va tahlilsiz, asossiz ravishda fikr bildirish emas, balki insonni butun mavjud a'zolarini fan-texnikaning eng ilg'or texnologiyalari yordamida batafsil tekshirib, turli uslublar bilan yagona va aniq bir xulosaga kelish uchun chuqur tahlilni amalga oshirish va uni kasalligini bexato ravishda aniqlash va albatta da'vo chorasini belgilashning eng to'g'ri yo'lini ko'rsatib berish meditsina diagnostikasining vazifasi bo'lsa, statistika – jamiyat hayotimizning barcha jabhalaridagi

¹Словарь иностранных слов .М., Русский язык., 1989. С.481.

² Занимательная статистика / Под ред. Бакланова Г.И., Кильдишева Г.С., М., 1980. С.10.
Савюк Л.К. Правовая статистика. М., ЮРИСТЪ., 1999. С.15.

dinamikani bexato aytib bera oladi. Uning yordamida jamiyatimizdagi har qanday siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy buhronlarni sodir bo'lishi mumkinligini oldindan bilishimiz, jamiyatimiz rivojlanishi uchun undagi kasallik qanday tarzda va qanday shaklda va qaysi bir bo'lagida paydo bo'layotganligi, uni da'volash uchun qanday choralar qabul qilinishi zaruriyati paydo bo'lganligini, ijtimoiy munosobatlarni tartibga solish uchun vujudga kelgan zaruriyat nimalardan iborat ekanligini, qanday qonunlar qabul qilinishi keraqligi, qaysi munosobatlarimizni huquqiy tartibga solinishi naqadar zarurligi to'g'risida aniq ma'lumotlar beradi. Statistika boshqacharoqilib, ta'riflash ham mumkin. Masalan, Statistika – bu, jamiyat hayotining ko'zgasidir. Statistika o'z ko'rsatgichlari yordamida, jamiyatdagi barcha o'zgarishlarni real ko'rinishini aks ettiradi.

«Statistika» (statisto) so'zi yugonish davrida Italiya davladi uchun kelgan bo'lib, uning ma'nosi dainsonni, siyosatdama xoratni, turli davlatlarning bilimdonlarini anglashgan. Bu so'z ancha keng ko'lamda qo'llanilgan bo'lsa kerakki, buyuk Shekspirning asarlari – «Gamlet» (1602 y) va «Tsinbelini» (1611 y) da qayta – qayta uchragan. XVII asrda «statistika» so'zi o'sha ma'nosi bilan nemis tiliga o'tgan. Undan Germaniyada lotin tilida chop etilgan ishlarda ilmiy qo'llanishga qo'yilgan lotincha sifati (statistus) paydo bo'ladi. «Statistika» va «statistika» so'zlarini XVIII asr nemis olimlari, ularning ostida davlat afzalliklari haqidagi barcha bilimlar yoki turli davlatlar ta'riflarini tushunib qo'llay boshlashdi.

“Statistika” atamasida 1749 yildan nemis statisti, falsafava huquq professori G. Axenval' (1719-1772) tomonidan davlatshunoslik to'g'risida chiqargan kitobida, davlatshunoslikning birtarmog'isifatida statistikaniko'rsatib o'tgan. E.V. Petrova va R.A. Shmoylovalarning fikricha Axenval' birinchi Marburg, undan keyin Gettingem universitetida yangi fan sifatida “statistikani” o'qigan. Lekin, aslida unga qadar G. Axenval'ning ustози M. Shmeytser 1723 yilda Yen universitetida “Siyosiy statistika haqida ommaviy ma'ruzalar” ya'ni, “Collegium politico statisticum” kursini o'qigan³.

O'zbek olimlaridan YO. Abdullaevning ta'kidlashicha, “Statistika ko'p asrlik tarixga ega. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, eramizdan 3500 yil ilgari Misrda aholi hisobi (ro'yxati) o'tkazilgan... Bxaskara (XII asr) va boshqa hind olimlari hisob-matematika adabiyoti fondida ajoyib namunalar qoldirdilar. Uning fikrini o'zbek olimlaridan yana X. Shodieva, Z. Toshmatov, M. Hamroev, X. Xo'jaqulovlar hamda shu fan o'qituvchilaridan T. Boltaev va R. Urinovlar ham tasdiqlab, quyidagigi fikrlarni bildirishadi “Hisob-statistika ishlarini rivojlanishga katta hissa qo'shgan olimlar xitoyliklardir. Ularga Kunfutsiya (Kun Futszu, 551-479 eramizgacha), Men Tso' (372-289 i. eramizgacha) va boshkalarni kiritish mumkin.

Eramizgacha to'rt minginchi yillarda yirik quldorlik davlatlaridan bo'lgan Misrda juda ko'p stikishlaramalga oshirilgan. eramizgacha bo'lgan uch minginchi yillarda Misr yozuvi paydo bo'lgan. Matematika juda rivojlangan. Ayrim ma'lumotlariga ko'ra eramizdan 3500 yil ilgari Misrda aholi ro'yxati o'tkazilgan. O'sha davrlarda Misrda kasrlar va arifmetik amallar ma'lum bo'lgan. Masalan: bir, o'n, yuz, ming va x., k. maxsus belgilar bilan bayon qilingan. Million raqami juda katta songa hayron bo'lib qo'lini ko'tarib turgan inson figurasi orqali belgilangan. Qadimgi Misrda geometriya va astronomiya fani ham vujudga kelib, insoniyat tarixyuida birinchi bo'lib kalendar' va kadastr tuziladi. YAngi eraning boshlarida hisob-matematika ishlari bilan juda ko'pchilik shug'ullana boshlaydi. Bu ish o'z hududiga Hind yarimorolidan Afrikaning shimoliy dengiz qirg'oqlari va Ispaniya janubigacha kengayadi. Bu xududlarda bosqinchilik urushlaridan so'ng (VII asr), islom dini tomonidan o'rnatilgan rasmiy (arab) tili zonasi paydo bo'ladi. Regionning ajoyib iqlimi, geografik, ho'jalik va siyosiy sharoitlari umuman fanning, shu jumladan statistika fanining ham rivojlanishiga katta yordam va turtki bo'lgan. Butun xududdan ilmiy asarlar to'planib, ular arab tiliga o'girilgan. Arab hind matematika asarlari o'ziga qisman antik grek mualliflarini hamda Hindiston, Xitoy, YAqin va O'rta SHarq mamlakatlari olimlarining asarlarini birlashtirib boshladi. Demak, xulosa qilish mumkinki, statistikaning kurtaklari ijtimoiy faoliyatning turisifatida davlatlarning

³Савюк Л.К. Правовая статистика. М., ЮРИСТЪ., 1999. С.17-18.

paydo bo'lishi bilan rivojlanib boshlangan. Buholat, statistikaning paydo bo'lish mexanizmini to'la tushunish uchun juda muhimdir. SHuni yaxshi anglash kerakki, qadimiy jamiyatlarda hisoblarning yoki hisobning ayrim belgilar mavjud bo'lgan holos. Davlatlarning paydo bo'la boshlashi, ijtimoiy faoliyat sifatida statistikaning ham paydo bo'lishini taqozo etgan. Davlatni boshqarish uchun zarur bo'lgan ommaviy va boshqa ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlil qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Hukmron sinf o'z hukmronligini ushlab turishi va uni boshqarishi uchun, davlat yig'imlarini to'plash uchun, er egalarida qancha er borligini, undan qancha daromad olishini, urush olib borish, egalikdagi hududni dushmanlardan asrash uchun qo'riqlash vazifasini bajaruvchi tabaqa-harbiylarni qanchasi zarur bo'lishi, shuning uchun aholining umumiy soni qanchali va shundan qanchasi katta yoshdagi erkaqlar, qanchasi ayollar va qanchasi qariya va yosh bolalarni tashkil etishini aniq bilish zaruriyati tug'ildi. Bu ishlar qadimgi statistik ishlardan farqqiladi, ya'ni u faqat ro'yxatga olish emas, ma'lumotlarni jamiyat va davlatni boshqarish uchun tahlil qilish bilan farqlanadi⁴

Statistika deganda dastlab davlat haqidagi bilimlarni majmuasini tushunilar, keyinchalik esa, zarur ma'lumotlarni to'plash va undan foydalanish imkoniyatini beruvchi fanning bir tarmog'i sifatida qarala boshlandi. Statistika- ma'lumotlar yig'indisi, statistika- ma'lumotlar yig'indisining parametri, statistika- faoliyat turi, statistika ommaviy ijtimoiy hodisotlar haqidagi fan, bular esa statistikaning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixidir. Bugungi kundagi statistika - ijtimoiy-ommaviy hodisotlarning va jarayonlarning o'ziga xos bo'lgan uslub va shakllar yordamida miqdoriy tomonini o'rganuvchi va ularning rivojlanish qonuniyatlarini hamda an'alarini miqdoriy ko'rsatgichda o'zida aks ettiruvchi fanning tarmog'idir. Statistikani ikki variantda ya'ni, keng va tor ma'nodagi statistikaga bo'lishimiz mumkin. Keng ma'nodagi statistika deganda, -qaysi sohaga taaluqli bo'lishidan qat'iy nazar, barcha ommaviy hodisotlarning yig'indisini o'rganadigan fanni tushunamiz. Tor ma'nodagi statistika deganda - birmuncha ixtisoslashgan, ijtimoiy-ommaviy hodisotlarning faqatgina miqdoriy tomoninigina o'rganuvchi fanni tushunamiz.

O'zbekistonda statistikaning vujudga kelishi va rivojlanishi.

O'zbekistonda statistikaning rivojlantirishda Toshkentda 1932 yildan boshlab o'z faoliyatini boshlagan "Statistika" kafedrasining olimlari o'zlarining munosib xissalarini qo'shishgan. Respublikamizda birinchi qatorida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoniga sazovor bo'lgan N.M. Soatov va E.A. Akromovlar shular jumlasidandir. 1979 yilda ushbu olimlarning muharrirligi ostida birinchi marta o'zbek tilida "Statistika asoslari" nomli o'quv qo'llanma "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan chop etilgan⁵. SHuningdek, statistika fanini rivojlantirishga o'z xissasini qo'shgan professorlar I.N. Ermatov, H.N. Nabiev, S. Sirojiddinov, R. Alimov, YO. Abdullaevlarni alohida e'tirof etishimiz mumkin.

Uzbekiston Respublikasida statistikaning rivojlanishida va uni o'zbek xalqiga o'rgatishda diqqatga sazovor ishlar qilingan. Birinchi "Statistika" kafedrasida 1932 yilda Toshkent, keyinchalik - Samarqand va boshqa shaharlarda tashkil etilgan. Hozirgi paytda deyarli hamma iqtisodiy institut va fakul'tetlarda statistika kafedralari mavjud. Ularda o'zbek statistikasini yaratgan va yaratayotgan ajoyib olimlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamizda birinchi bo'lib statistika doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxs bu O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoniga sazovor bo'lgan olimlarimiz N.M. Soatov va E.A. Akromovdir. Ularning muharrirligi ostida ilk bor o'zbek tilidagi "Statistika asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi chop etilgan. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan boshlab statistika faoliyatini tashkil etish masalasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Dastavval, statistika bashorat qilish ishlarini uyğun

⁴Шодиев Х.А., Ё.Абдуллаев,З.Тошматов ва бошқалар. Суд статистикаси. Дарслик. Т.: Тошкент Молия институту. 2004. –Б.9-10.

⁵Абдуллев Ё. Статистика назарияси. 100 савол ва жавоб. Т.: Мехнат.,2000, -Б.11.

ashtirish hamda metodologik-uslubiy masalalarni bozoriq-tisodiyot isharoitlariga moslashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 6 avgustdagi UP-949 sonli qaroriga ko'ra Davlat statistika qo'mitasi Taraqqiyot istiqbolini belgilash qo'mitasi bilan birlashtirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika ("O'zistiqlab") Davlat qo'mitasi tashkil qilindi.

Respublikamizda statistika ishlarini qonuniy va xalqaro standartlarasosida olib borish ishlarini tashkil qilish uchun 1993 yilning 2 sentyabrida Oliy Majlis tomonidan «Davlat statistikasiga to'g'risida» qonun va 1994 yilning 24 avgustida Vazirlar Mahkamasining 433-sonli qaroriga binoan «O'zbekiston Respublikasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tish bo'yicha Davlat dasturi» qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 21 dekabrda UP-3183-sonli «O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Farmoniga binoan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tashkil qilindi. Ushbu farmonga binoan statistika idoralari zimmasiga quyidagi vazifalarni hal qilish yuklatiladi:

statistika sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, zamonaviy xalqaro talablar va andozalarga mos keladigan statistika tashkili etishning samarali tizimini ta'minlash;

ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyotining asos tamoyillariga javob beradigan, milliy hisoblar tuzish ta'minlaydigan xamda xalqaro statistika andozalari muvofiq bulgan yagona statistika metodologiyasi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chikib, tadbiq etish;

statistika va hisobot ko'rsatkichlarining tezkorligi, ishonchliligini va xolisligini ta'minlash, statistika axborotini olish bema'lolligi, uning ochiqligi va oshkorligini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

statistika axborotini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashuvlarga yo'l qo'ymaydigan statistika ishlarini tashkil qilish tizimini yaratish;

statistika organlarini zamonaviy lashtirish hamda ularni statistik axborotlarni tezkor uzatish va kiy aytishlashni ta'minlaydigan zamonaviy komp'yuter hamda axborot kommunikatsiya tizimlarini va texnologiyalarini bilantsay tajixozlash, statistik buyicha yagona axborot tizimini yanadar rivojlantirish;

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri, iqtisodiy-statistik klassifikatorlar tizimini yuritish. Ushbu Farmonning 7 bandida statistik idoralari ga statistika axborotlarining haqqoniy ligini ta'minlash borasida kattavakolalar berilgan: «Belgilab qo'yilsinki, ishlab chiqarilgan vasotilgan maxsulot (ishlar, xizmatlar) xajmlarining sun'iy ravishda kamaytirilishiga, korxonalar faoliyatiga noxolis baxo berilishiga, pul mablag'larining bankdantashqarinoqonuniy ay lanishiga olib keladigan noto'g'ri statistik hisobotni takdim etishda, statistikama'lumotlarini yashirishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar qonunga muvofiq qattiq javobgarlikka, hatto jinoyat javobgarlikka ham tortiladilar».

2003 yilning 8 yanvarida Vazirlar Mahkamasining 8-sonli «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilinib, unda Respublika Davlat statistika qo'mitasi tizimining tuzilmasi, markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi, qo'mita to'g'risidagi Nizom, maxsus jamg'armat to'g'risidagi Nizom tasdiqlanib, Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi davlat statistika sinirini rivojlantirish, uning faoliyat ko'rsatishini va uning muvofiq lashtirish muammolarini buyicha kollegial maslahat organini tashkil etilishini belgilab qo'yilgan.

Dunyo jinoyatchiligiga nisbatan statistik ma'lumotlar birmuncha tashvishlanarli holatni ujudga keltiradi, chunki, bular ma'lumotlardan oxirgi 40-50 yil ichida a'ryuzidagi jinoyatchiliklariganisbatan 3-4 marta oshib ketgan. Masalan, sobiq ittifoq davlatlarida 6-8 marta, AQSHda 7-8 martagacha, Buyuk Britaniya va SHvetsiyada 6-7 marta, Frantsiyada 5-6 marta, germaniyada 3-4 marta, Yaponiyada 1,5-2 martagacha oshib ketgan. BMT ma'lumotlariga qaraganda, 1985-1990 yy. mobaynida jinoyatchilikning yillik o'sishi o'rtacha 5 % ni tashkil etgan respublikamizda jinoyatchilikning barkaror holatda saqlanib qolishiga, uning og'ir va o'ta og'ir turlarining kamayishiga erishilganligi statistik qiyoslashni amalga oshirgan. "Ma'lumotlarga ko'ra shu yilning 10 oyida mamlakat hududida umumiy jinoyatlar soni o'tgan yilga qaraganda 184 taga yoki 0,3 foizga kamaygan. Respublika miqyosida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar 2,1 foizga, o'g'irlik] 16 foizga, avtotransportni xaydab olib qochish 14,4: foizga, bezorilik 4,6 foizga, retsdiv jinoyatlar 4,9 foizga, jinoiy guruxlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 2,3 foizga, mast xolda jinoyat sodir etish 2,31 foizga, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 8,3 foizga, ularning jinoyatdagi ishtiroki 4,5 foizga, ayollarning ishtiroki 2,6 foizga, ishla-maydigan va ukimaydiganlarning ishtiroki 0,3 foiz-) ga kamayishiga erishildi.

Bu davrda umumiy jinoyatchilik hamda uning og'ir va o'ta og'ir turlarini fosh etish ko'rsatkichlari ham doimiy ravishda ortib bordi. Umumiy jinoyatchilikning ochilishi 1999 yilda 78 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 82 foizga, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning ochilishi esa 75,3 foizdan 85,5 foizga etdi.

Tergov sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar ham o'zining ijobiy natijasini berdi. 2004 yilning 10 oyi davomida prokuratura organlari tomonidan 16406 jinoyat ishlari buyicha dastlabki tergov xarakterlari olib borilib, ularning 11011 tasi ayblov xulosalari bilan sudlarga yuborildi.

Savol va topshiriqlar

1. Tashviqot so'zining ma'nosi nima?
2. Targ'ibot so'zi imani angalatadi?
3. Mafkura ishlarini targ'ib qilishda nimalarga e'tibor berishi kerak?
4. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning asosiy vazifalari.
5. Madaniy-ma'rifiy muassasalar targ'ibot-tashviqot ishlarini qanday yo'l bilan olib boradilar?

5-mavzu: Ma'naviyat va ma'rifat soha targ'ibotchisining ma'naviy qiyofasi va imidjini shakllantirish

Reja:

1. Imidj va etiket so'zlarga ta'rif
2. Madaniy-ma'rifiy sohadimlarining kasbiy etikasi
3. Ma'naviyat-ma'rifat soha xodimlarining xatti-xarakat tamoyillari
4. Boshqaruv etikasi
5. Madaniy-ma'rifiy soha xodimlarining jamiyatoldidagi pedagogik burchi

Tayanch so'zlar

Imidj, etiket, ma'naviy qiyofa, kasbiy etika, ma'naviy — ma'rifiy soha, ommaviy axborot vositasi, ma'naviy — ma'rifiy soha xodimlari, xatti — xarakat tamoyili, siyosiy — badiiy saviya, boshqaruv etikasi, pedagogik burch, pedagogik adolat, rahbarlik etikasi.

Insonning kasbiy faoliyati bilan bog'liq xatti — harakatlari o'z mehnatining jamiyat uchun, mehnat jamoasi uchun qanchalik axamiyatga ega ekanligi, xizmat vazifalari doirasi, muloqot madaniyati haqidagi tasavvurlari bilan belgilanadi. Madaniy — ma'rifiy soha xodimlari uchun bu tasavvurlar moddiy boyliklar ishlab chiqarishni emas, balki ma'naviy boyliklarni yaratish va tarqib etish orqali inson ma'naviyatini yuksaltirishni anglatadi.

Imidj hodisasi etiket bilan bevosita bog`liq tushunchadir. "Etiket" esa frantsuz tilidan olingan so`z bo`lib, "yorliq" ma`nosini anglatadi. Ikkinchi ma`noda esa "SHaxsning axloqiy xatti — harakatlari" va muomala madaniyati tushuniladi. etiket — ma`naviyatning tashqi ko`rinishi, ya`ni kishining axloq — odobiga doir xatti — xarakterlaridir. Inson xatti — harakatlari esa uning nechog`liq tarbiya topganligidan, ichki dunyosining qay darajada teranligidan dalolat beradi.

SHuni ham ta`kidlash joizki, kasbiy etika masalalarini o`rganishda biz nafaqat madaniyat sohasi kasbini hisobga olganmiz, balki bunday bilimlar har qanday soha xodimlari uchun ham zarur. Albatta, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq faoliyatda o`zaro munosabatlar madaniy — ma`rifiy soha xodimlaridan odob — axloq me`yorlari va qoidalarini, ular haqidagi bilim, ko`nikma va malakalarni puxta egallashni talab qiladi.

Madaniy — ma`rifiy coxa xodimlarining kasbiy etikasini belgilash uchun zamonaviy madaniyat — ma`rifat maskanlarining amaliy faoliyatiga murojaat etish keraq. Sotsiologik tadqiqotlar taqlili shuni ko`rsatadiki; ijtimoiy — madaniy faoliyat bilan shug`ullanuvchilarda boshqa soha xodimlari — boshqaruv apparati, tibbiyot xodimlari, o`qituvchilarga xos bo`lgan xususiyatlar bilan birgalikda o`z kasblariga tegishli bo`lgan alohida xislatlar va fazilatlar bo`lishi ham kerak. SHuningdek mutaxassis uchuno`qituvchi, rejissyorning etika me`yorlarini chuqur egallash, rahbarlik etikasi talablarini bilish va amalda qo`llay olish, o`z faoliyatining ma`naviy jihati uchun mas`ulligini chuqur anglash madaniy — ma`rifiy soha xodimi shaxsiyatini yanada boyitadi. CHunki aynan axloqiy xatti — xarakterlarda shaxsning o`zligi namoyon bo`ladi, Boshqarish, muloqot qilish, o`qitish va tarbiyalashni bilmaslik esa ijtimoiy madaniy faoliyatda kasbiy malakaning etishmasligidan dalolat beradi. Bu esa aholining madaniy — ma`rifiy soha xodimlariga bo`lgan munosabatiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bu o`rinda shuni unutmaslik joizki, madaniyat va, ma`naviyat mafkuraviy sohadir. SHu sababli, tanlangan soha bo`yicha savodxonlik, ongli vatanparvarlik, ma`naviy; etuklik, ijtimoiy — madaniy faollikning qaysi masalalari bo`yicha mafkuraviy jarayonlar kechayotganligini tushunish madaniy — ma`rifiy soha xodimlarining kasbiy burchidir.

Faoliyati odamlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va madaniy tadbirlarni uyushtirish bilan bog`liq bo`lgan, jamiyatning ilgor qatlami — ma`naviyat — ma`rifat sohasi xodimlari o`zlarining kelgusi faoliyatida quyidagi xatti — harakat tamoyillariga amal qilishi kerak:

1) muntazam ravishda o`zingizning siyosiy — badiiy saviyangizni oshirib boring, ijtimoiy — madaniy xayot yangiliklaridan doimo voqif bo`ling; sizning madaniyat va san`at bobidagi fikringiz odamlar tomonidan mutaxassis fikri tarzida baholanishi uchun quyidagilarga rioya hiling:

— madaniy xayotga faol aralashing (oyiga 2-3 marotaba teatr, kino va kontsertlarda bo`ling, muntazam ravishda badiiy adabiyotni o`qib boring); o`zingizdarejissyorlar, aktyorlar, Mualliflar familiyasini esda saqlab qolish xususiyatini tarbiyalang; taqrizlar o`qib boring; o`qilgan yoki ko`rilgan narsa haqida. o`z fikringizni hosil qiling;

— san`at va ma`naviyat bo`yicha maxsus adabiyotlar bilan tanishib boring;

— o`zingizning madaniytaassurotlaringizni yozib boring-busan`atasarlarigamustahilbahoberish) qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi, xotirani kuchaytiradi, kichik, lekin muxim epizodlardan tafsilotlarni yodda saqlab qolishga yordam beradi

2) sizning sohangiz boshqalarning madaniy kamol' topishi bilan bog`liq bo`lganligi tufayli, ularga nisbatan; xayrixoqlik munosabatida bo`ling, mulohazali va xush tabiatli bulishga intiling;

3) o`zingizda yuqori madaniyat malakalarini, xayrixoqlik va odamlarga e`tiborlilikni tarbiyalang, ularga nisbatan qo`pollik va beodoblikka yo`l qo`ymang;

4) kasbiy faoliyatingizda shaxsiy muloqotlar o`rnatishga intiling, to`garak yoki studiya a`zosining ijodiy muvaffaqiyatini ko`ra biling va rahbatlantiring, kitobxonlar qiziqishini qo`llab-quvvatlang, zarur adabiyotni topishga, tafsilotlarni aniqlashga, odamlar dunyokarashini kengaytirishga yordam bering; xam kasblar, tadbir ishtirokchilari va boshqalar bilan munosabatda doim aytgan ishingizni bajaring, o`zingizning va birovlarining vaqtini bexudasarflamang; maslahat va ko`rsatmalarni lo`ndaholdabayoneting;

nasihatgo`ylikkayo`l qo`ymang, kutubxonada sekin, boshqalarga xalal bermaydigai tarzda so`zlashing;

5) doimo esingizda bo`lsin — siz bo`lajak murabbiy, rahbarsiz. O`zingizni tugishingiz, yuksak; odob — axloqiy xulqingiz boshqalyarga ibrat bo`lishini unutmang; kitobga extiyotkorona munosabatda bo`ling (varaqli yuqori o`ng burchagidan ushlagan hodda varaqlang, kitoblarni batartib saqlang), barcha yozuvlaringaz aniq va lo`nda bo`lsin; musiqa asboblari, rekvizit, kostyum, mebellarni avaylang;

7) o`z nutqingizni kuzating, savodxonligingizni oshiring;

8) qadam tashlashingiz, imo — ishoralar, tashqi ko`rinishingizga e`tibor bering.

Umumiy qoidalarimiz ana shulardan iborat.

Madaniy — ma`rifiy soha xodimining kasbiy etikasi ularning faoliyatida uzviy aloqada bo`ladigan kasblarning etik me`yorlaridan kelib chiqadi. Bu sohalarga eng yaqini o`qituvchilik sohasidir. Bunday bog`liqlikning sababi shundaki, madaniy — ma`rifiy soha xodimi odamlarni turli o`quv fanlarini o`qitish orkali emas, balki estetikani, axloq — odobni, hayot tajribasini va milliy qadriyatlarini targ`ibot qilish orqali tarbiyalaydi.

Boshqaruv etikasi — menejmentning endigina qaror topayotgan sohasidir. Uni ba`zan ma`muriy etika, deb ham yuritishadi. Boshqaruv apparati xodimi, rahbar mehnati bilan bog`liq bo`lgan xatti — harakat me`yorlari ko`p jihatdan pedagogik etika masalalariga yaqin. U holda ham, bu holda ham odamlar bilan ishlashning asosiy tamoyili quyidagacha: har bir insonga hurmat va talabchanlik bilan munosabatda bo`lish. Biroq, ularning tafovutlari ham yo`q emas. Boshqaruv va rahbarlik etikasida tashkiliy jihatga ko`proq e`tibor beriladi, pedagogik faoliyatda esa tarbiyaviy jihatga. Madaniy-ma`rifiy coxa xodimining kasbiy xususiyati shundaki, unda rahbarlarga xos ishbilarmonlik, tadbirkorlik bilan birga, san`at xodimlari kabi emotsionallik, odamlarni ruxlantira olish kabi xislatlariga ega bo`lishi ham kerak. Hozirgi zamon talabi ana shunday. Kasbimiz, hayotimiz ba`zan bizdan bir-biriga zid xususiyatlarni talab etadi. Ayni paytda shunday betakror, ijodkor shaxslarga zaruriyat zamon talabidir. Madaniy-ma`rifiy soha xodimining murabbiylik etikasi Qayd etilganidek, har bir madaniy-ma`rifiy soha xodimi ayni paytda o`zi ishlayotgan jamoanint har bir a`zosi uchun sabr-toqatli murabbiy va tarbiyachidir. Ruxshunoslik va pedagogika kabi fanlar, tabiiy ravishdauni zaruriy bilimlar bilan qurollantiradi. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, pedagogikada eng asosiysi amaliyot, U esa insonning butun umri mobaynida nafaq o`qilgan kitoblar hisobidan, balki ichki dunyosi boy, kasbining ustasi bo`lgan odamlar bilan muloqotda boyiydi. E`tiborli vaqiziquvchan inson uchun esa bu borada "ahamiyatsiz" odam bo`lmasa kerak.

«Pedagogik etika» tushunchasi ostida pedagog xatti-harakatlardagi ma`naviy boyliklar qay tarzida, belgilanishi qabul qilingan. Bu qadriyatlar safiga pedagog burchi, pedagogik adolat, kasb sharafi va boshqa qadriyatlarni kiritish mumkin.

Madaniy-ma`rifiy soha xodimining jamiyat oldidagi pedagogik burchi har tomonlama rivojlangan, komil insonni tarbiyalash, uning ma`naviy dunyosini boyitishdan iborat.

Xo`sh, pedagogik burchning targ`ibiy qismlari nimalardan iborat? Bunga, eng avvalo, madaniyat xodimida doimo o`zustida ishlash, zamonaviy talablarga munosib bo`lish, san`at, ijtimoiy ruxshunoslik, ijod psixologiyasi, stsenariy va rejissyorlik mahorati borasidagi bilimlarni boyitish, san`atning turli sohalaridagi eng yangi, ilg`or g`oyalarni o`zlashtirish, kinoning teatrga, tasviriy san`atning fotografiyaga (va aksincha) ta`siridan foydalana bilish, madaniy xodisalar va ularning atrofidagi bahslardan xabardor bo`lish va x.o. talab etiladi.

Pedagogik adolat jamoa a`zolari bilan bo`ladigan turli munosabatlar paytida — ya`ni vazifalar, lavozimlar va mukofotlar taqsimotida, rag`batlantirishva ma`qullash, jazolash va tanbehberishda namoyon bo`ladi. Ayniqsa ixtilofli, keskin vaziyatlarda rahbarning adolatligi sinovdan o`tadi. Bu barcha kelishmovchiliklarni raxbarning o`zi qal etishi kerak, degan ran emas. Munozarali vaziyatda jamoa faollariga, ularning fikriga tayanishkerak. Biroq to`qnashuvlarning oldini olish uchun raxbar quyidagi etik qoidalarga qat`iy amal qilishi lozim:

- 1) ishni yaxshi tashkil etish uchun kuchni ayamasi kerak, adolatli tarzda moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga aloxida e'tibor qaratishi, ishning uzviyligini ta'minlashi, tadbirkorlik takliflarning isobini yuritish kerak;
- 2) vazifalarni belgilash, kadrlarni joy — joyiga qo'yishda o'z dunyoqarashi, his — tuyg'usiga ega tirik insonlar bilan Hin ko'rayotganligini unutmash kerak;
- 3) tanqiddan chuchimasligi, o'z vaqtida tegishli xulosa chiqarishga odatlanishi lozim;
- 4) birovni tanqid qilar ekan, o'z ayblarini xam tan ola bilish lozim;
- 5) birovning orqasidan gapirishgayo'l qo'ymasligi jamoa a'zolari bilan birovni g'iybat qilish axloqsizlik ekanligini e'tirof etishi;
- 6) odamlar oldida ikkixil gapirishga, ikkiyuzlamachilikka yo'l qo'ymasligi;
- 7) birovning shaxsiyatiga tegishi mumkin bo'lgan tanbexlarga o'rin qoldirmasligi zarur. Rahbar etikasi raxbarlik qiluvchi shaxs tabiatini ajralmas xususiyatiga aylanishi lozim bo'lgan axloqiy me'yorlardan iborat. O'z manfaatini jamoa manfaatlari bilan muvofiq tarzda uyqunlashtirish raqbar etikasining muxim tamoyillaridan biridir. Ushbu tamoyil raxbar tomonidan o'zi boshqarayotgan jamoaning moddiy va ma'naviy manfaatini doimo e'tiborga olib, ularni jamiyat manfaatiga mos ravishda yo'naltirish vazifasi turadi. Ayni paytda jamoaning, ayrim shaxslarning manfaatlari jamiyat manfaatlariga zid kelmasligi kerak. Faqat ishni ko'zlaydigan, jamoa a'zolarining imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishi, sog'ligi, dam olishi, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni inobatga olmaydigan raxbar jamoada ixtiloflarning kelib chiqishiga yo'l qo'yadi. Natijada, jamoa faoliyatiga katta ma'naviy zarar etishi mumkin. Ayni paytda jamoadagi ayrim odamlarning shaxsiy manfaati umumiy ishga halal bermasligi kerak, aks holda, rahbar o'sha shaxslarga tobe bo'libqoladi, bu esa maxalliychilik va rasmiyatchilikni keltiribchiqaradi. Raxbar faoliyatidajimoiyva jamoat manfaatlarining uyg'unlashuviga amaliy tajriba, yordamida erishish mumkin. Bunda rag'bar jamoa faoliyatining istiqbolini, o'z xatti-harakatining oqibatini ko'rabilishitalab etiladi. Odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini chuqur o'rganish, ularning dard — tashvishlariga sherik bo'lish ushbu tamoyilni o'zlashtirishga yordam beradi. Bo'lgusi rahbar, o'zida atrof dagilarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish, ularni tushuna olishdek fazilatlariga ega bo'lishi lozim. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun mehnat jamoasining barcha a'zolari o'z burchini qay darajada anglashi, rahbar tomonidan oqilona nazorat qilib turilishi zarur.

Boshqaruv etikasining u yoki bu tamoyillarini egallash o'quv guruxi, kurs, fakul'tet faoliyatini tashkil etish, iqtisodiy — boshkdruv fanlarini o'rganish, ishlab chiqarish amaliyotini o'tash bilan birgalikda olib boriladi. Biroq davlat miqyosida fikrlash layoqati o'z — o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu borada mamlakatdagi madaniy — ma'rifiy tendentsiyalarni o'zlashtirish, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz mehnat qilish talab etiladi.

Madaniy — ma'rifiy muassasalar, alohida jamoalar faoliyatini uyushtirishda tashkiliy tartib tamoyili ham mukim o'rin tutadi. Bunda taqsimotning yagonaligi katta ahamiyatga ega. CHunonchi, har bir odam o'zining bevosita rahbaridan muayyan topshiriq oladi, jamoaning har bir a'zosi muayyan joyga ega bo'ladi va har kim qobiliyatiga yarasha ish bilan ta'minlanadi. Rahbar faoliyatidagi muxim tamoyitularidan yana biri — aniq maqsadga intiluvchanlikdir. Bunda rahbarning har bir ishlab chiqarish vaziyatini qo'yilgan maqsadga etishish yo'lidagi bosqich sifatida baqolay olishi va erishilgan natijani mo'ljallangan reja bilan qiyoslay bilishi; vaziyat o'zgarganda unga yangacha yondashuvni tanlay olish qobiliyati ko'zda tutiladi! Maqsadga intiluvchanlikning etik jihatini inson xayotining har bir lahasida insonparvarlik, yaratuvchanlik, maqsadga intilish tatnkil etadi. Raxbar faoliyatidagi maqsadga intiluvchanlik tamoyili jamoa ishining aloqida jiqatlarini ajarata bilish, har bir inson, har bir ijrochilar guruxi qissasini baholay olish, tabaqalashga erishishni taqozo etadi.

Jamoaning katta — kichikligidan qat'iy nazar, rahbar ma'muriyatning u yoki bu xatti — xarakati turlicha ta'sir ko'rsatuvchi turfa tabiatli insonlar bilan ishlayotganligini unutmash kerak. Jamoa a'zolari faoliyatiga baxo berishda bir xillikka yo'l qo'ymaslik uchun odamlarga individual tarzda yondashish kerak. Jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi urinishlar, muvaffaqiyatlar jamoa a'zolarining tashabbuskorligini rivojlantirishga, erishilgan natijalarga

tanqidiy munosabatda bula olishga va yangi imkoniyatlarni qidirib topishga boqliq. Madaniy — maʼrifiy ishlarda vaqt omili muxim oʻrin tutadi. Tadbirdan ancha oldin ilib qoʻyilgan eʼlon u. boshlanguncha eskirib, rangi ketib qolishi mumkin boʻlganidek, kech ilingan eʼlonning ham ahamiyati yoʻq Madaniy — maʼrifiy soha xodimi har bir ishninu" bajariladigan vaqt — soatini tuqri his qila bilishi, kerak.

Vaqtning tejash tamoyili ham zarur va muxim tamoyillardan biridir. Inson hayoti oʻtkinchi, vaqtni, tejash — umrni behuda sarflamaslik deganidir. Raxbar tegishli masalalar yuzasidan zarur qarorlar qabul qila bilish va undan chekinmaslik; xulosa xususida uzoq vaqt bosh qotirmaslik; qoʻl ostidagilarning mehnat va oilaviy , muvaffaqiyatini oʻz vaqtida sezishg uzilish va , ixtiloflarga yoʻl qoʻymaslik kabi xislatlarni oʻzida —tarbiyalab borishi kelajakdagi muvaffaqiyatlar garovidir.Rahbar obroʻsi rasmiy va norasmiy tomonlardan iborat. Rahbarning lavozimi, rahbatlantirish, jazo choralarining koʻllanishi rasmiy tomonidir. Qoʻl ostidagi, xodimlarni oqilona rahbatlantirish xam rahbarning obroʻsini oshirib boradi.

Ayni paytda jamoa tomonidan rahbarga inson sifatida beriladigan baqo ham katta axamiyatta egadir. Biz bunda uning bilimi, tajribasi, madaniy saviya darajasi, har qanday masalaning muxim jihatlarni ajrata bilish kabi xususiyatlarini eʼtiborga olamiz.

Rahbarning norasmiy obroʻsi esa jamoa orasida namoyon boʻladigan uning axloqiy xatti — harakatiga borib taqaladi. CHunki, hamma rahbarlar qam odamlarga xayriqoxlik, xushmuomalalik, berilgan vaʼdaning ustidan chiqa olishlik, odamlarni xolisona baxolay bilishdek milliy va umuminsoniy qadriyat talablariga javob bera oladi, deb boʻlmaydi.

Bundan tashqari, boshqaruv psixologiyasiga oid tadqiqotlar mualliflari rahbar shaxsning quyidagi xususiyatlarini muxim xususiyatlar, deb hisoblaydi: yaʼni oʻzining va jamoaning xatti—harakati uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish, printsiyallik, faoliyatdagi izchillik, qatʼiyatlilik, irodalilik, oʻziga boʻlgan komil ishonch va q.k.

SHaxsning sanab oʻtilgan xususiyatlari raxbariipg samarali faoliyati uchun muxim, albatta, biroq, bular haqida bilishning oʻzigina etarli emas. Har bir kishi talabalikning dastlabki davrlaridanoq oʻzida rahbarlik xislatlarini shakllantira borishi va shunga ongli ravishda harakat qilishi koʻzlangan maqsad sari qoʻyilgan toʻgʻri hadamdir. Jamoachilik ishida ishtirok etish ham shu maqsadga xizmat qiladi. Har qandayjamoatchilik tadbirini amalga oshirish va uni uyushtirishda qatnashayotgan talaba — tashkilotchida boʻlajak rahbarlik xususiyatlari namoyon boʻladi. Odatda oʻz guruxiga raxbarlik qilayotgan talabaning bilim darajasi, sinov va imtihonlarda berayotgan javoblarini guruh aʼzolari toʻgʻri baholaydi, unda manmanlik, kibru havoning paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymaydi.

Faol —talaba bilimlarni puxta oʻzlashtirish, oʻz oldiga murakkab, ijodiy maqsadlar qoʻyish, gurux, kurs, institut hayotida faol ishtirok etish natijasida oʻz oʻrtoqlari nazarida obroʻ—eʼtibor qozonib boraveradi, zarur paytlarda unga murojaat qilishadi, u bora —bora jamoaning norasmiy etakchisiga aylanadi. Boʻlajak rahbar — madaniy — maʼrifiy soha xodimi boshqalar bilai xushmuomalada boʻlishi kerak. Iison doʻstlari koʻpligi va kamligidan qatʼiy nazar oʻzida muomala madaniyatini tarbiyalashi lozim.

Boshqaruv nazariyasiga doiradabiyotlardashaxs xususiyatlariva qobiliyatini tekshirishga oid maxsustestlar keltiriladi. Bunday testlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdirdir. SHuningdek, anketalardagi savollarga javob berikG xam inson oʻz xulq —atvori, oʻqishda erishayotgan muvaffaqiyatlari haqida maʼlum maʼlumotlarni bilib olishi mumkin. Biz esa balki bu savollar u yoki bu kamchilikni tugatishga yordam berar, degan umiddamiz.

Siz mehnat faoliyatiga oid mazkur savollarga javob berib kuringchi:

1. Oʻzingizning oʻquv-ijtimoiy va boshqa faoliyatingizda nimalarga intilasiz?
2. Ishbilarmonlik nuqtai nazaridan oʻzingizpyg faol shaxs, deb hisoblaysizmi?
3. Ishbilarmonlik munosabatlaringiz oʻrnatilgan odamlar koʻpmi?
4. Ishga oid masalalarda oʻzingizni atʼiyatli, bir soʻzli deb bilasizmi?
5. Hdr doim ham oʻz tamoyillaringizga sodiq, qolasizmi?
6. U yoki bu vaziyatda, odamlarga munosabatda, 'ikkilanasizmi?
7. Ishga oid xatti-harakatingiz puxta oʻylanganmi?

8. Xarakteringizning qaysi jihatlari ishga oid munosabatlaringizga halal beradi? Ishbilarmonlik, tabdirkorlik tushunchalari keng rasm bo'lgan hozirgi paytdahamma unio`zicha tushunadi, lekin barcha ma`qullaydi. Rahbar shaxs ishbilarmonbo`lishi kerak, biroqbu xususiyat ahloq, ma`naviy qadriyatlargazid kelmasligi kerak. Yuqoridagi savollaro`zingazdagi shu xususiyatlarustida mulohaza yuritishga sabab bo`ladi, deb o`ylaymiz. Yildan yilga, vaqt o`tishi davomida tadabalar o`zlaridaishbilarmonlik qobiliyatini takomillashtira boradi. Bunday turdagi xislatlar orasida odamlarga hurmat bilan muomala qilishini alohida ajratib ko`rsatish kerak. Bo`lgusi rahbar jamoa a`zolarining xislatlarini, ijodiy ishlaridagi o`ziga xoslikni ko`ra bilishi, ularni rabatlantirish iiqoyatda muxim, ayni paytda kamchilikniko`rar ekansiz, ulardan ko`z yummaslik, nasihatgo`ylik qilmaslikka ahamiyat berish kerak. Insoniylik va hayrihoxlik ham qar qanday kasb egasiga xos bo`lishi lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Imdj va etiket so`zlariga ta`rif bering
2. Madaniy- ma`rifiy coxa xodimlarining kasbiy etikasideganda nimani tushunasiz?
3. Madaniy-ma`rifiysohaxodimlariningxatti-xarakattamoyillarini sanang va ularga tarif bering.
4. Boshqaruv etikasi nimani anglatadi?
5. Madaniy-ma`rifiy soha xodimi jamiyat olidagi pedagogikburchini qanday tushunasiz?

6-Mavzu: Notiqlik san`ati va targ`ibot-tashviqot ishlari

REJA:

1. Nutq madaniyati haqidagi ta`limotning shakllanishi:
 - a) Qadimgi Gretsiya va Rimda nutq madaniyati masalalari.
 - b) Rossiya tarixida notiqlik san`atining rivoj topishi.
 - v) O`rta Osiyo madaniyati tarixida nutq madaniyatining o`ziga xos mavqei.
2. Notiqlik san`ati haqida.
3. Nutq madaniyati va notiqlik san`ati.

Tayanch so`zlar

Nutq madaniyati haqidagi ta`limotning shakllanishi, Qadimgi Gretsiya va Rimda nutq madaniyati masalalari, Rossiya tarixida notiqlik san`atining rivoj topishi, O`rta Osiyo madaniyati tarixida nutq madaniyatining o`ziga xos mavqei, Notiqlik san`ati, Nutq madaniyati va notiqlik san`ati.

Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi Gretsiya (Yunoniston) da va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi. Nutq oldiga qo`yiladigan talablar ishlab chiqildi. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi, notiqlikni san`at darajasiga ko`tardi. Yetuk inson bo`lishi uchun albatta, notiqlik san`atini egallash shart qilib qo`yiladi. Ana shu ehtiyoj tufayli notiqlik nazariyasi yaratildi. Uning TSitseron, Demosfen, Kvintilian, Aristotel` kabi nazariyotchilari yetishib chiqdi. Eramizning 335 -yilida Aristotelning «Ritorika» si yaratildi. Unda notiq oldiga quyidagilarni vazifa qilib qo`ydi:

- materialni har tomonlama tayyorlash;
- materialni joylashtirish rejasini belgilash;
- materialni o`zlashtirish, nutq qurilishini to`g`rilash;
- notiqning nutq materialini o`rganishi;
- materialni so`z bilan ifodalash;
- nutqni talaffuz qilish, ya`ni nutq jarayoni.

Bu talablar hozir ham o`z kuchini saqlab kelmoqda. O`sha davr sud notiqligida yuksak muvaffaqiyatlarga erishdi, notiqlik san`ati nazariyasiga ulkan hissa qo`shdi.

TSitseronning «Notiq haqida», «Notiq», «Brut» asarlari hozir ham ma`lum qimmatga egadir.

Rim notiqlik maktabining yana bir buyuk vakili Mark Fabiy Kvintiliandir. U o'zining «Notiq bilimi haqida» kitobida bilimdonlikni notiqliqning birinchi sharti qilib qo'yadi. Kvintilian notiqlikka doir bilimni juda yoshlikdan o'rgana borish kerak, deydi. Nutqning tinglovchi uchun tushunarli bo'lishiga katta ahamiyat beradi. U: «Sen shunday so'zlaginki, seni har bir kishi tushuna olsin», - degan edi.

Xullas, qadimgi Yunoniston va Rimda madaniy notiqlik nazariyasi rivojlantirildi. Bu nazariya keyinchalik Yevropada nutq madaniyatiga bag'ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo'ldi.

Rossiya tarixida notiqlik san'atiga bo'lgan e'tibor, asosan Pyotr I davrida ancha kuchaydi. XVII - XVIII asrlarga kelib, rus notiqligida, asosan beshta yo'nalish mavjud edi:

1. Yuqori doiradagi dvoryanlar orasida mavjud bo'lgan saroy notiqligi.
2. Diniy notiqlik.
3. Xalq notiqligi (Xalq qo'zg'oloni rahbarlarining)
4. Harbiy notiqlik
5. Diplomatik notiqlik.

M.V.Lomonosovning xizmatlari tufayli rus tili nutq madaniyati borasida jiddiy nazariy fikrlar o'rta tashlandi, uning amaliy ahamiyati nimada ekanligi ko'rsatib berildi, rus tilining lisoniy boyliklari asosida ijodiy rivojlantirildi. M.V.Lomonosovning «Rus she'riyati qoidalari haqida maktublar» (1739), «Rus grammatikasi» (1755-1957), «Nutq madaniyati bo'yicha qisqacha qo'llanma» (1748) kabi asarlari rus tilini ilmiy o'rganishni boshlab beribgina qolmasdan, rus tilshunosligining keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati bilan shug'ullaning o'ziga xos mavqega ega.

Taniqli siyosatshunos olim Nazrullo Jo'rayev o'zining «Agar ogohsen...» nomli kitobida haqli ravishda yozganidek, «TSivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o'rnashgan. TSivilizatsiya, jumladan Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupada moddiy texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq tarzida vujudga kelgan. Yurtimizda axloq benihoya serqamroq, qiyosi yo'q tushuncha sifatida ardoqlanib kelingan. Ma'nili va bejirim gapira bilish, nutqdagi ma'qul va noma'qul so'zlarni ilg'ay olish, so'zning orqa o'ngini, munosib o'rnini farqlay bilish, nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan».

Va'zxonlikning, balog'at (chechanlik, notiqlik) san'atining usuli bilan nutq oldiga qo'yilgan talablar mukammallashib bordi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy kabilar tilga, lug'atga, grammatika va mantiqshunoslikka bag'ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalariga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib ko'payishi haqida so'z yuritib, har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir. Inson nutqi o'z tuzilishi materialiga ko'ra rostni ham, yolg'onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko'plab munozaralarga sabab bo'ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg'ondan ajratadigan «mezon» ni yaratadi. Bu mantiq fani edi. Inson nutqida shubhali o'rinlar sezilsa, ma'lum «mezon» yordamida ular tuzatiladi. Olim mantiqni o'rganmaganlarga: «Agar u dangasalikni tashlab, oromga berilmasdan, gap bilan bog'lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she'r o'lchovi) va mantiq (logika) ni mutolaa qilganda edi, so'z zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bulardi», - deydi. Demak, Beruniy nutqning ikki xil - nasr, nazm ko'rinishi borligini ko'rsatadi. Nutqning bu turlari ma'lum qoidalar asosida shakllanadi.

Beruniy shakl va mazmun birligiga katta ahamiyat beradi. SHakl mazmunga xizmat qilishi kerak. Mazmunsiz har qanday chiroyli shakl ham el orasida e'tibor qozonmaydi. Nutqning nasriy shaklida ham nazmiy shaklida ham mazmun bosh mezondir. Nutq o'zining har ikki shaklida ham

so'zlovchi o'z oldiga qo'ygan ma'noni ifodalashi shart. Olim yozadi: «So'ngra so'z mana shu ikki qismda (nashr va nazmda) ham so'zlovchi maqsad qilgan ma'nodan iborat bo'lib qoladi». Nasriy va nazmiy nutqda mazmun (ma'no) bor yoki yo'qligini bilish tuzilgan gaplarni bir-biri bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Bu vazifani mantiq fani o'z bo'yniga oladi.

«Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalaning zarur bo'ladi. Ularning birortasiga ham ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay iloji yo'q».

Har qanday tilning o'z grammatik qurilishi, grammatikasi, uning o'z tartib - qoidalari bo'lishi, bu qoidalarning shu tilda tuzilgan nutq uchun ahamiyati beqiyos bo'lgani holda boshqa til uchun nozarur bo'lishi mumkin. Beruniy arab tilshunosi bilan fors tilshunosi orasidagi munozarani keltiradi. Fors tilini arab tilidan afzal ko'ruvchi tilshunos shunday deydi: «Eganing raf'da (bosh kelishikda), to'ldiruvchining nasbda (tushum kelishigida) bo'lganidan va sendagi tilning boshqa sabab va ajoyibliklaridan nima foyda bor. Men arab tiliga muhtoj emasman!». Olim bunda munozarachi bir tomondan haq bo'lsa, boshqa tomondan nohaqligini aytadi. «Uning bu xitobi o'ziga nisbatan to'g'ri, lekin mutlaqo to'g'ri emas», - deydi. Bu bilan olim har bir tilning afzalligi o'sha tidda so'zlovchilar uchun zarur, degan fikrni tasdiqlaydi. Beruniy arab tiliga xos balog'at san'ati xususida so'zlaganda yuqoridagi fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. U balog'a (t) (notiqlik) arablar nutqiga xosligi, bunday nutq texnikasi arablar uchun fazilat ekanligini bayon etadi. Arab nutqida balog'aning mavjudligi «Qur'on» targ'ibotida muhim ahamiyat kasb etadi. Balog'a arab nutqining ziynatidir. Ammo undan foydalangan bir kishining yuqori mansabga erishuvi va boshqa shunday kishining kambag'allikda yashashiga balog'a aybdor emas, deydi, bunday xol boshqa sabablarga asoslangan bo'lib, «balog'aning fazilatini tushurmeydi». Boshqa tillarda balog'ani egallaganlarning obro' topmaganligiga sabab, «balki balog'aning arablar tilidan boshqa tillarga ko'chirishda bozori yurishmaganidir», - deydi.

Ulug' Vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy (870-950) to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va tugal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rliqi haqida shunday deydi: «qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi) ga kelganimizda, bu haqida bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substantsiya -narsalar) va aktsidentsiya (hodisalar) ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman».

Ikkinchi ilm grammatikadir; U jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substantsiya (narsa) na aktsidentsiya (hodisa) ning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan yetkazishdan iborat. SHunday ekan, nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiyiligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi

O'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan buyuk Alisher Navoiy notiqlik san'atini o'z davrida yuksak darajaga ko'taribgina qolmay, nutq madaniyati nazariyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. U «Mahbubul-qulub» asarining 24 - bobini voizlikka bag'ishlagan, «Muhokamatul lug'atayn» va «Majolisun nafa'is» asarlari esa bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, o'zbek tilining boshqa tillar o'rtasida tutgan o'rnini belgilab berishga hamda o'zbek nutqi madaniyatini o'rganishga qaratilgan Navoiy ijodi tufayli o'zbek adabiy tili XV asrda olamga mmashhur adabiy asarlar yaratishga kodir til ekanligini namoyish qildi. Uning asarlari ayniqsa, gazallari o'zbek adabiy tilida nutq madaniyati amaliyotining rivojiga bebaho hissa bo'lib kushildi.

Ko'p gapirmasin. CHunki ko'p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo'lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin.

1. Нутқнинг тўғрилиги
2. Нутқнинг аниқлиги
3. Нутқнинг мантиқийлиги
4. Нутқнинг тозаллиги.
5. Нутқнинг таъсирчанлиги

Notiqlik alohida qobiliyatdir. Mumtoz ma'nodagi notiqlik - bu alohida farqulotda nutqiy san'atdir. CHinnakam notiqlar notiqlik mahoratiga tabiiy qobiliyat bilan bir qatorda o'z tili, nutqi ustida tinimsiz ishlash natijasida erishadilar.

Har qanday og'zaki nutq shakli nutqiy mahorat ma'nosidagi notiqlik bo'lavermaydi. So'zlash madaniyati haqida gap yuritiluvchi va hatto lektorlar, targ'ibotchilar (bular orasida ham haqiqiy ma'nodagi notiqlar kam uchraydi) mo'ljallangan asarlar ham bizningcha «Notiqlik san'ati» nomi bilan atalavermaslik kerak.

«Notiqlik avvalo chiroyli gapirishdir. Ammo nutqning faqat chiroyli bo'lishi hali yetarli emas, har qanday be'mani safsatalarni ham juda chiroyli qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi»

G.O.Vinokur o'zining «Kultura yazika» asarida nutq madaniyatining notiqlik bilan bog'liq tomonlariga alohida tuxtaladi: «Notiqlik nutqi deganda men har qanday monologik og'zaki nutqni emas, balki tinglovchilarni ma'lum harakatga chorlovchi yoki ularda qandaydir g'oyalar, tasavvurlar tizimini uyg'otishga qaratilgan maxsus vazifa bajaruvchi nutqni tushunaman».

Hozirgi kunda notiqlik tushunchasi va notiq atamasi alohida mahorat va san'at ma'nosida emas, balki jo'n, ommaviyroq ma'noda tushunilmoqda va qo'llanmoqda. Hozirda nutq so'zlagan har qanday shaxsni notiq deb yuritiladi. Natijada notiq atamasi o'z asl ma'nosidan uzoqlashdi va u rasmiy yoki norasmiy so'zga chiqqan har bir nutq egasini anglatadigan bo'ldi.

Notiq va notiqlik tushunchalari doirasining bunday kengayishi, ommaviylashuvi notiqlik san'ati sohasi haqida yozilgan ilmiy ishlarda ham «notiqlik» va «notiqlik san'atini» oddiyroq va kengroq ma'noda tushuning va tushuntirishga olib keldi. Bunga ko'ra, notiqlik san'ati endilikda qandaydir nutqiy mahorat (noyob qobiliyat, san'at) emas, balki har qanday odam egallashi mumkin va lozim narsa sifatida talqin etiladi.

Keltirilgan mulohazalardan keyin nutq madaniyati bilan notiqlik san'ati orasidagi munosabatni belgilash muayyan qiziqish uyg'otishi aniq.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati umumiy, o'xshash tomonlarga ega. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi kishilar nutqiy faoliyatining foydali, ta'sirchan, o'tkir bo'lishi uchun ko'rashadi, insonning nutqiy madaniyatini uning nutqiy hayotini ustirishga xizmat qiladi. **Nutq madaniyati ham notiqlik ham nutqiy odob, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziklangan holda ish ko'radi. Ammo shunga qaramasdan bizningcha nutqiy san'at ma'nosidagi notiqlikni, va'ni farqulodda nutqiy mahorat va qobiliyat bo'lgan notiqlikni ommaviy nutq (notiqlik) dan farqlash lozim.**

Ba'zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san'ati og'zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san'atdir. Notiqlikda qobiliyat va mahoratning mehnat bilan qo'shilib ketganini ko'rish mumkin. Har bir xalqning o'tmish madaniy hayotida bu xalqdan yetishib chiqqan va chin ma'noda notiq degan mo'tabar nomga sazovor bo'lgan shaxslarning unchalik ko'p emasligi ham aslida ana shu omil tufaylidir.

Nutq madaniyati tushunchasi aynan notiqlik san'atining o'zi emas, ammo u notiqlik mahoratiga nisbatan olganda, qandaydir o'ta oddiy tushuniluvchi hodisa ham emas.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning maqsadida ish ko'rish qurolining umumiyligida ko'rinadi. Ammo shunga qaramasdan nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir narsa emas. Ular orasida ba'zi muhim farqli tomonlar, belgilar bor. Bular quyidagilardir:

1. Nutq madaniyati chinnakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning me'yorlari bilan bog'liqsir. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum lahja yoki shevada ham chinnakam notiqlik san'atini namoyish qiluvchilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik til materialining xarakteriga qarab emas, nutqning ta'sirchanligiga, nutqiy san'atga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik - bu nutqning og'zaki shaklidir. Notiqlik san'ati - og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir.

3. Nutq madaniyati jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko'zda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsadi, orzusi barchaning, butun xalqning nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Mumtoz ma'nodagi notiqlik esa alohida shaxslarning nutqiy mahoratini, san'atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan, nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadga safarbar qilishni ko'zda tutadi. Ya'ni notiqlik san'atida tinglovchilarni ma'lum maqsadga jalb qilish asosiy o'rin tutadi.

4. San'atkor notiq nutqi asosan ko'pchilik tinglovchiga keng auditoriyalarga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqni birdan ortik shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni o'z ichiga qamraydi.

5. Har bir kishi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan so'zamol shaxs bo'lishi mumkin. Ammo har bir shaxs ham san'atkor ma'nosidagi notiq bo'lmasligi, bo'la olmasligi mumkin. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart.

6. Nutq madaniyati ko'pchilikni, keng xalq ommasini ko'zda to'tib ish ko'ruvchi sohadir. Bu ma'noda nutq madaniyati keng omma uchun mo'ljallangan talabdir, ammo notiqlik - bu avvalo qobiliyat, shaxsiy qobiliyatdir. Alohida san'atkorlik ma'nosidagi notiqlik nutqiy san'atni, nutqiy go'zallikni hisobga oladi. Nutq madaniyati esa kishilarning barchasini san'atkor notiq qilishni ko'zda tutmaydi. U, asosan, ona tilida yoki o'zga bir tilda to'g'ri, madaniy gapira olish va yoza olish faoliyatini tarbiyalashni maqsad qilib oladi.

7. Nutq madaniyati - bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya'ni adabiy tilni va uning me'yorlarini o'rganing va bu me'yorlarni qayta ishlash ishi bilan shug'ullanadi. Notiqlik san'ati esa bunday ilmiy - me'yoriy faoliyatni ko'zda tutmaydi.

8. Notiqlik, ko'proq nutqning mazmuniga mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga e'tibor qiladi, nutq madaniyati sohasi esa ko'proq nutqning til qurilishi - lisoniy tuzilishiga e'tibor qiladi.

9. Notiqlik, asosan, aniq bir shaxs - notiq yoki guruhlar -notiqlar nutqi haqida qayg'uradi. Bunda u notiqni tinglayotganlar, ya'ni keng ma'noda tinglovchilar ommasi nutqini ham ko'zda tutmaydi. Nutq madaniyati esa, bundan farqli ravishda umuman kishilarning nutqiy faoliyatini, nutq madaniyatini ko'zda tutadi. SHu sababli nutq madaniyati maqsadiga ko'ra va nutqiy faoliyati nuqtai nazaridan keng maqsadli soha notiqlik esa tor sohasidir.

10. Notiqlik san'ati notiq uchun oldindan qanday so'zlash sxemasi va rejasini bermaydi va bu tip nutq doimo ham oldindan tayyorlangan, tayyorgarlik qurilgan nutq emas, nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a'zolarini ona tili, ya'ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozosi talabiga ko'ra o'rinli foydalana olish ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma aslida har qanday san'atkor notiq uchun ham zarur.

11. Notiqlik va notiqlik san'ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida hali yosh va yangidir.

Nazorat savollari

1. Targ'ibot va tashviqot deganda nimani tushunasiz?
2. G'oyaviy tarbiyaviy ishlarda tashviqot va targ'ibotning o'rni qanday?
3. Targ'ibot va tashviqot ishlarini omma o'rtasida qanday yo'llar bilan olib borish mumkin?

7-mavzu: Targ'ibot-tashviqot ishlarning asosiy vosita shakl va usullari

Reja:

1. Targ'ibot-tashviqot murakkab va ko'p qirrali sotsial xodisa sifatida.
2. G'oyaviy tarbiyaviy ishlarda og'zaki tashviqotning o'rni .
3. Og'zaki tashviqot ishlarining ommaviyligi va ko'p qirraligi
4. Targ'ibot va tashviqot ishlarida mahalliy faktlar asoslanishi

Tayanch so'zlar

Tashviqot, targ`ibot, ma`ruza, mafkura, g`oyaviylik, san`at, voizlik san`ati, targ`ibot, tashviqotning ta`sirchanligi, targ`ibotchining vazifasi, milliy mafkura, milliy g`oya, nazariya.

Tarqibot-tashviqot har qanday jamiyatning mafkuraviy quroli sifatida uning xayotida muxim rol` o`ynaydi. Tarqibot - tashviqotsiz har qanday jamiyat, davlat bir kun ham yashay olmaydi. SHunday ekan, ayni paytda «tarqibot», «tashviqot» tushunchalarini o`zlashtirish, mazmun va moxiyatini anglab olish talab etiladi. Tarqibot (lotincha propaganda— tarqatiladigan) siyosiy, ilmiy, falsafiy, badiiy va boshqa qarashlar hamda g`oyalarni ijtimoiy ongda joriy etish, ommaviy faoliyatni faollashtirish maqsadida ularni yoyish, tarqatishiga aytiladi. Tarqibot— tashviqot bir —biri bilan yaqindan bog`liq bo`lib, muayyan guruxlar manfaatini ifodalaydi. Tarqibot qilish — g`oyalar, qarashlar, nazariyalarni matbuot, og`zaki, radio — televidenie yoki boshqa vositalar yordamida yoyish demakdir. «Tashvikot» (agitatsiya) tushunchasi xam lotincha so`z bo`lib, «keng xalq ommasiga siyosiy ta`sir ko`rsatish, uni biror bir ishga safarbar etish maqsadida axoli O`rtasida og`zaki yoki yozma ravishda olib boriladigan ommaviy — siyosiy ish, faoliyat» tushuniladi. Qisqasi, tashviqot deganda, biz ommani hayajonga solish, uni o`z orqamizdan ergashtirish uchun ularning hissiyotiga ta`sir etish san`atini tushunamiz. Siz yuqorida «targ`ibot)1. «tashviqot» so`zlarining lug`aviy ma`nosi bilan tanishdingiz. endi «tadg`ibot» (propaganda) so`zining adabiyotlarda qanday ma`nolarda qo`llanilishiga e`tibor bering. Keng ma`noda olganda, bu tushuncha sotsial faoliyatning alohida turini anglatadiki, ma`lum qarashlar, tasavvurlar va emotsional holatlarni vujudga keltirish, ular orqali esa, kishilarning xulq — atvoriga xam ta`sir etish maqsadida bilimlar, g`oyalar, badiiy boyliklar va boshqaxil axborotlarni xisoblanadi. Fan, mafkura, san`atdan farqli O`laroq, targ`ibot (propaganda)ning asosiy vazifasi yangi ma`naviy boyliklarni yaratishdan iborat bo`lmasdan, balki ularni yoyish, joriy qilishdan iboratdir. Fan sohasida, olamni badiiy o`zgartirishda kashf qilingan jamiki narsalar tashviqotchi va tarqibotchi tomonidan idrok qilinadi, tarqibot yordamida konkret kishi uchun bamisoli yangidan kashf qilinadi. Tarqibotning maqsadi faqat ma`navii boyliklarni shunchaki kishilar ongiga etkazishdangina iborat bo`lmasdan, balki, shu bilan birga ularni konkret vaziyatni, auditoriya xususiyatlarini, bu ish kechayotgan sharoitni hisobga olgan xolda ijodiy tarzda qayta ishlashni ham nazarda tutadi. Tarqibotchilik aoliyatida ko`pincha fanning xulosalari, san`at asarlari ommalashtirilibgina —qolmay, balki ularning boyishi, rivojlanishi ro`y beradi. Tarqibot va tashviqot ishi mamlakat ichki hayotini va jaxon sotsial jarayonlarning rivojlanishini tezkor tarzda aks ettiruvchi axborot ishi bilan juda chambarchas bog`langandir.

Sotsial faoliyatning aloxida turi bo`lgan tarqibot va tashviqotning mazmuni, bir tomondan, uning predmetini — muayyan bilimlarni, ma`naviy boyliklarni qayta ishlash, ularga tarqibotchi — tashkilotchilarning manfaatlari va maqsadlariga eng qulay tarzda muvofiq keladigan xamda tinglovchilarning xususiyatlarini hisobga oladigan shakllar tusini berish;

Ikkinchi tomondan — yoyiladigan axborot vositasida tinglovchilarning ongiga ta`sir etishdan iboratdir. Agar yangi bilimlar, ma`naviy boyliklar, fan, mafkura, san`atning bevosita natijasi bo`lsa, tinglovchilarning ongida muayyan holatni vujudga keltirish, dunyoqarashni, vaziyatni baxolay bilish layoqatini shakllantirish va ularga muvofiq keladigan xarakatlarga rag`bat berish esa tarqibot va tashviqotning natijasidir. Uni bunday keng ma`noda tushunish uning g`oyatda xilma —xil boshqa shakllaridan farqlovchi umumiy jihatlarini aloxida ko`rsatish imkoniyatini beradi. Ikkinchi, bir muncha tor ma`nodagi «propaganda — tarqibot» tushunchasi esa muayyan sinflar, partiyalar va davlatlarning mafkurasini hamda siyosatini omma orasida tarqatish, yoyishda faoliyat turi sifatida ishlatiladi.

Uchinchi xil ma`noda olingan tarqibot—propaganda tushunchasi o`z ko`lami jihatidan yana ham tor bo`lib, bunda uning ichki tuzilishi, siyosil~ tarqibot bilan siyosiy tashviqotking nisbati to`g`risidagi masala olib qaraladi. Bunda propaganda va agitatsiya ommaga g`oyaviy —siyosiy, ta`lim — tarbiyaviy ta`sir etishning turli xil usullari va nisbatan mustaqil tizimlari tarzida namoyon bo`lib, ular o`rtasida chuqur ichki aloqadorlik mavjud ekanligi ko`rinadi. Fanda tarqibot

va tashviqotning bir — biri bilan boqliushk tomonlari va ularning o`ziga xos xususiyatlari haqidagi masala batafsil ishlab chiqilgan. Haqiqatdan ham, xayotda tarqibot bilan tashviqot o`rtasida qandaydir devor yoki to`siq yo`q, Aksincha, ular ko`pincha bir — biri bilan qo`shilib ketadi va doimo bir — birini to`ldiradi. Tashviqotchi va tarqibotchi o`zlari o`tkazgan mashg`ulotlar natijalariga beparvo qaray olmaydi, CHunki, ularning so`zi tinglovchilarga ijobiy ta`sir etgan taqdirdagina muvaffaqiyatli chiqqan bo`ladi.

Biroq, tarqibotchining ishi bilan tashviqotchining vazifasi bir-biridan farq qiladi. Tarqibotchining vazifasi ommaga ko`proq g`oyalar tarqatish va ommaviylashtirishdan iborat, u shu ' qadar ko`p g`oyalar berishi kerakki, bu g`oyalar nisbatan unchalik ko`p bo`lmagan kishilar tomonidan o`zlashtirib olinadi. Tashviqotchi madaniy — ma`rifiy soha xodimining zimmasidagi vazifa esa, shu masala haqida gapirganda tinglovchilarning hammasiga, har biriga ma`lum bo`lgan eng muqim misolni tanlabolib ommaga bitta g`oyani singdirish uchun bor kuchini sarflashdan va mazkur masaladagi qarama — qarshilikni to`la tushuntirish ishini tashviqotchiga holdirishdan iboratdir. Tarqibot ishlari ko`pincha bosma matbuot orqali, tashviqot ishlari esa, jonli so`z orqali olib boriladi. Jonli so`z — ya`ni og`zaki tashviqotning asosiy maqsadi — konkret, yorqin, oddiy va tushunarli misollar asosida kishilarning davlat siyosatining to`g`riligiga ishonitirishdan, voqeligimizdagi «faktlar va hodisalarning sotsial ma`nosini ochib berishdan, ularga siyosiy ohang berishdan, axolini mamlakat, jamoa, butun mushtarak ishimiz manfaatlari qanday talab etsa, shunday ish ko`rishga da`vat qilishdan iboratdir.

Xo`sh, g`oyaviy — tarbiyaviy ishlarning umumiy tizimida og`zaki tashviqot qanday vazifalarni bajaradi?

Birinchidan, u turli axborotlar tarqatadi, kishilarni faktlar, voqealar, ijtimoiy hayot xodisalari haqidagi ma`lumotlar bilan ta`minlaydi. o`z — o`zidan ayonki gazeta va jurnallar juda katta tirajda chiqayotgan, radio va televidenie deyarli har bir oilaga kirib borgan hozirgi paytda axoli muntazam axborotni asosan shu vositalar orqali olmoqdalar. Biroq og`zaki tarqibot va tashviqot ham har qachongidek juda katta ahamiyatga ega. Og`zaki siyosiy tashviqot respublikamiz ichki va tashqi siyosatining dolzarb masalalaridan ommaning yaxshiroq xabardor bo`lishida, atroflicha axborotga kishilarning jonli qiziqishi va o`sib borayotgan eqtiyojlarini qondirishda davlat va jamoat tashkilotlariga ko`p jihatdan yordam beradi.

Ikkinchidan, axborot xabarlarini farqlab berish tashviqotning muxim funktsiyasi hisoblanadi. Bu esa ommaviy tashviqotchilar ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasiga oid ma`lumotlarning ma`lum yiqindisini tinglovchilarga shunchaki taqdim etibgina holmay, balki shu bilan birga ularning siyosiy ma`nosini ochib beradilar, axamiyatini, boshqa voqealar va hodisalar bilan, o`z mexnat jamoasining vazifalari bilan aloqadorligini tushuntirib beradilar, degan so`zdir. Bu bilan siyosiy axborotning mazmuni chuqur, har tomonlama ochib beriladi, siyosiy voqealar, faktlar milliy manfaatlar nuqtai nazaridan axolanadi, ular xaqida jamoatchilikning to`g`ri ijtimoiy fikri hosil qilinadi.

Uchinchidan, og`zaki tashviqot chaqiriq, undash funktsiyasini bajaradi. Bunda olingan axborotni, uning ahamiyatini, siyosiy ma`nosini tushuntirib berish asosida kishilar faol ishlab chiharish yoqud boshqa ijobiy ijtimoiy faoliyatga yo`naltiriladilar, ish sifatini va ishlab chiqarish samaradorligini o`stirishga, huquqiy — demokratik davlat qurish vazifalarini hal qilishda kuch — qayratlarini oshirishga safarbar qilinadilar. Bunday chaqiriq u yoki bu xildagi shiorlar shaklida bo`lishi shart emas, albatta, u suxbat, siyosiy axborot, dokladning, boshqa ommaviy tadbirlarning mazmunidan kelib chiqishi mumkin, Ularning ishonarli tarzda, isbotlangan, aniq milliy mafkuraviy yo`nalishga ega bo`lishi ommada unga javoban bunyodkorlik ishlariga eqtiyoj tug`diradi. Tashviqotchilik ishlari ma`lum darajada jo`shqinlik kasb etsa, ommani hayajonga keltira olsa, kishilarning xis — tuyqulariga ta`sir eta bilsa, ularning chaqiriq, undash funktsiyasi kuchayadi. Og`zaki tashviqotning axborot beruvchilik, sharqlovchilik va da`vat qiluvchilik funktsiyalari bir — biri bilan chambarchas boqlangan bo`lib, doimo birga harakat qiladi, bir — birini to`ldirib turadi. Xullas, pirovardida . tarqibot va tashviqot qilinayotgan g`oyalar, nazariyalar — ommaning e`tiqodiga aylanib borishi, ularning ishlarida, faoliyatida o`z ifodasini topishi, xulq — atvor normasi bo`lib xolishi lozim. Davlatlar va partiyalarning siyosatida yuz

bergan o'zgarishlar tarqibot va tashviqotning mazmuni, metodlari va shakllariga jiddiy ta'sir qiladi. Biroq, turli mafkuralar kurashi ham, tarqibot va tashviqot ishlari ham sira to'xtab qolmaydi. Bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralar, g'oyalarning o'zaro kurashi sharoitida mamlakatimizda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Milliy mafkuraning xayotimizdagi o'rnini belgilash, uning ilmiy — nazariy asoslarini yaratish, mafkuraviy tarqibot va tashviqot ishlarining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, shu asosda jamiyatimizda ijtimoiy fikrni shakllantirish masalalari Prezidentimizning bir qator asarlari, farmonlari, Respublika Oliy Majlisining sessiyalaridagi ma'ruzalarida o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, mafkuraning xarakteri tarqibot — tashviqotning mazmuni, metodlari, maqsad va vazifalarini belgilashda hal qiluvchi rol' o'ynaydi. SHu bois ham ma'naviy — ma'rifiy tarqibot ishlarining zamon talabiga, mustaqillik ruqiga mos, yangi bosqichga ko'tarish, maqsad va azifalarini aniq belgilab olishida katta axamiyat kasb etadi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi' tomonidan ma'rifiy — ma'naviy tarbiya, tarqibot — tashviqot ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, muassasalarning birlamchi maqsad va vazifalari etib quyidagilar belgilab qo'yildi; mamlakat aqli ayniqsa, o'sib kyolayotgan yosh avlod qalbi va tafakkurida milliy g'oya, milliy mafkura va umumbashariy qadriyatlarga, demokratik tamoyillarga asoslangan dunyo — qarashni shakllantirish; jamoatchiligimiz ongiga istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr — muxabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va oliyjanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoiylik ruxini yanada chuqur singdirish; milliy qadriyatlarimiz va ulug' utafakkirlarimiz merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, g'oyalari yosh avlod qalbidan joy olishiga ko'maklashish;

— har bir fuqaroda o'z haq -huquqi, imkoniyati va irodasiga tayanish, o'z taqdirining bunyodkoribolish, mamlakatda kechayotgan yangilanishlar, ijtimoiy-siyosiy. iqtisodiy islohotlarning ma'no -moxiyati, maqsadini teran anglagan tarzda uning faol ishtirokchisi va kurashchisiga aylanish tafakkurini kamol toptirish;

— ma'rifiy, tarqibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg'unligi va muntazamligi, xalqchil va haqqoniylikka, jamoatchilik fikri va kuchiga, barcha sohalaridagi sog'lom fikrlovchi fuqarolar salohiyati va harakatiga asoslanishini ta'minlash va q.k.

Milliy mustaqillik, O'zbek xalqining qalbi va tafakkurida milliy g'oya, milliy mafkura va umumbashariy qadriyatlarga, demokratik tamoyillarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishda milliy madaniyat rolini yanada oshirish bo'yicha yangi vazifalar qo'ydi. Mamlakatimizda 4385 ta markaz muassasalari bo'lib, shundan 2558 tasi Madaniyat vazirligi tassarrufida faoliyat ko'rsatmoqda, 6197 ta kutubxonalaridan 6 million 211 ming kitobxon foydalanmoqda. Ana shu madaniyat muassasalari, muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, shuningdek ma'naviyat va madaniyat markazlari tarqibot — tashviqot tizimida muxim O'rin egallaydi. Mamlakatimiz ijtimoiy — siyosiy hayotida, yosh avlod ongiga istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr — muxabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' maqsadga e'tiqod ruxini singdirishda ularning o'zni va roli kun sayin ortib bormoqda.

Madaniyat saroylari va uylari, kutubxonalarning boshqa tashviqot markazlariga o'xshash tomonlari ko'p. Biroq, ular o'ziga hos shakl va usullarda milliy umumbashariy g'oyalarni, davlat siyosatini tarqib qiladilar. Milliy qadriyatlarimiz va ulug' mutafakkirlarimiz merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizniig bahramand bo'lishiga, xar bir fuqaroda o'z haq — xuquqi, imkoniyati va irodasiga tayanib o'z taqdirini o'zi belgilay olishiga, mamlakatda kechayotgan yangilanishlar, ijtimoiy — siyosiy, iqtisodiy isloqotlarning faol ishtirokchisi va kurashchisiga aylanishiga ko'maklashadi. Xalq xo'jalik rejalari va majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun mehnatkashlarni safarbar etishd faollik va tashabbuskorlik ko'rsatadilar. TTTu bilan birga, madaniyat muassasalari ko'p jihatdan boshqa mafkuraviy institutlardan farq qiladi. Ularning qatnashchilari faqat ma'naviy boyliklarning iste'molchilari sifatidagina emas, ko'pincha madaniy ijodning faol ishtirokchilari sifatida xam chiqadilar. Markaz muassasalarida tarbiya, madaniy — ma'rifiy ishlar aholining dam olishi va hardiq chiqarishini uyushtirish bilan birga qo'shib olib boriladi.

Markaz muassasalarining tarqibot — tashviqot ishlari ommaviy hamda ko'p qirralidir. SHu bois xam uning ommaviy tarqibot— tashviqot faoliyati umum ishlarda bir qator sotsial ahamiyatli vazifalarni bajaradi; ya'ni, ommaga siyosiy bilimlar berish, ularning ijtimoiy — madaniy ijodiyotini hamda madaniy dam olishini tashkil etish va shular asosida jamoatchilik fikrini hosil qiladi. Ayni paytda, shaxsga ta'sir etish nuqtai nazaridan ommaviy — siyosiy ishning o'ziga xos funktsiyasi shundan iboratki, har bir kishi bu ishda o'zini faqat tomoshabin yoki faol kuzatuvchi sifatida emas, balki ro'y berayotgan xodisalarning faol qatnashchisi, o'z qarashlarini isbot qiluvchi shaxs sifatida namoyon qilishi mumkin. SHu bilan birga, madaniy — ma'rifiy muassasalarining ommaviy siyosiy ishlari insonga o'zining faol hayotiy nuqtai mazarini vujudga keltirishga yordam beradi va shaxsning ijtimoiy jihatdan o'z—o'zini namoyon qilish vositasiga aylanadi. SHunday qilib, madaniyat muassasalari olib boradigan ommaviy — siyosiy ishning ko'p qirraliligi — markaz faoliyatining muxim xususiyatlaridan biridir.

Tarqibot — tashviqot ishining ommaviyligi ham o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning jamiyat oldidagi vazifasi bilan boqlangandir, Sotsialistik jamiyatda markaz partiya tashkilotlarining tayanch punkti, aholinish— keng doiralari orasida tarqibot—tashviqot ishlarini avj oldirish bazasi rolini bajarar edi. Bunday yo'l tutish O'zbekiston mustaqillikka erishgach, inkor etildi va butunlay. yangi vazifalar qo'yildi (bu haqda avvalroq to'xtalgan edik).

Tarqibot — tashviqot ishining ommaviyligi, milliy g'oya, milliy mafkura shakllantirilayotgan jamiyatimiz uchun ayniqsa muxim bo'lib, bu jamiyatning har bir a'zosiga siyosiy — tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. SHu bois, markazning sotsial — pedagogik rolini saqlagan xolda auditoriyadagi kishilarning konkret ijtimoiy — siyosiy ehtiyojlarini hisobga olish — ishning eng istiqbolli yo'lidir. Siyosat, iqtisod, madaniyatga oulgan qiziqish mavhum qiziqish emas. U ma'lum bir kishini qiziqtiruvchi aniq masalalarda ifodalanadi. Bular juda rang —barang masalalar bo'lib, mustaqil Uzbekistonning ichki va tashqi siyosati haqida jonajon shahari, rayoni, qishlog'i, korxonasi hayoti to'g'risida, iqtisodiyot masalalari xaqida, respublikamiz fani va madaniyati yutuqlari hamda boshqa qo'pgina mavzular to'g'risida bo'lishi mumkin. Ayrim markazlarda auditoriyadagi kishilarning konkret qiziqishlari e'tiborga olinmaydi. Ularning qiziqishlarini bilmaslik natijasida ommaviy— siyosiy, madaniy — ma'rifiy tadbirlar keluvchilar talabini qondira olmaydigan mujmal bir narsa bo'lib holadi.

Har qanday madaniyat muassasasi xodimi o'z tinglovchisi va tomoshabinining qiziqishi, extiyoji, talab va istagi namoyon bo'ladigan masalalarni doimo o'rganadilar, hamda targ'ibor — tashviqot ishlarini shular asosida olib boradilar. O'rganish ishi tashkilotlarda, " korxonalarda muassasalarda to'g'rilan to'g'ri savollar yig'ish, zaldan tushadigan yozuvlar va lektorga berilgan savollarni analiz qilish, doimo va ahyon — ahyonda anketa tarqatib javob olish, interv'yular, kishilar bilan suxbatlashish yo'li bilan olib boriladi. To'plangan materiallar, esa madaniyat hodimiga har bir shahar, qishloq, mehnat jamoalarining hayoti, davlatimizning ichki va tashqi siyosati qanday amalga oshirilishini ko'rsatuvchi juda ko'p qiziqarli axborotlar, fakt va misollar beradi. Bu esa markaz xodimiga bularning hammasini tinglovchilarning kundalik turmush tajribasi bilan bog'lashi va shunday qilib, nazariya bilan cheklanib holmasdan, balki har kunlik amaliyot bilan og'liqligini ta'minlash, istiqloq g'oyalarining hayotbaxsh kuchini yaqhol namoyon qilish imkoniyatini beradilar.

Ana shu konkret materiallar markazda olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishining asosiy mazmuni bo'lishi kerak. Real kishilarning real ishlari xaqidagi konkret axborot auditoriyani qiziqtirib qo'yadi, tinglovchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlariga javob beradi. Ayni paytda, madaniyat muassasalaridagi targ'ibot — tashviqotishlari jonli muloqot shaklida olib boriladi, hamda targ'ibotchi — tashviqotchiga auditoriya bilan bevosita aloqaga kirishish, uning tarkibini shakllantirish, ishni turli belgilarga qarab differentsiyalash imkonini tug'diradi. Targ'ibot ishiga kompleks ya'ni, har tomonlama yondoshish, ayniqsa, muximdir, chunki milliy mafkura xam respublika ahlining turli guruxlari hususiyatlarini hisobga olishi nazarda tutadi. Hozirgi markazda metodik jixatdan to'g'ri tashkil etilgan targ'ibot— tashviqot ishlari madaniyat maskanlariga keluvchilarni ayrim tadbirlarda ishtirok etishdan doimiy markaz tinglovchilari safiga va shundan keyin, barqaror tashviqot jamoalarida faol qatnashishga olib ' kelishini kuzatish mumkin.

Masalan, og`zaki jurnal redkollegiyalari, yoshlar markazlari, mehnat veteranlari, munozara markazlari, markaz mezeplarining jamoatchilik soveti, u yoki bu ommaviy— siyosiy kompaniyalarni o`tkazish shtablari ishtirokchilari ommaviy targ`ibot va tashviqot ishini kishilarning mustaqil ijtimoiy— siyosiy ijodiyotiga aylantiruvchi barqaror tashkiliy tashviqot jamoalari qatoriga kiradi. Chunki, ommaviy tadbirlarda tomoshabiy sifatida emas, balki targ`ibotchi-tashviqotchi yoki tashkilotchi sifatida ishtirok etayotgan kishilar doirasini har tomonlama kengaytirish ommaning tashabbusi va havaskorligini rag`batlantirishning muhim metodik usulidir. Shu bois, madaniyat muassasalari ishlarini to`g`ri tashkil etish, boshqa targ`ibot — tashviqot markazlari ishini ana shu aytib o`tilgan o`ziga xos nazariy- metodik talablarni yaxshi bilishi kerak.

Nazorat savollari

1. Targ`ibot va tashviqot deganda nimani tushunasiz?
2. G`oyaviy tarbiyaviy ishlarda tashviqot va targ`ibotning o`rni qanday?
3. Targ`ibot va tashviqot ishlarini omma o`rtasida qanday yo`llar bilan olib borish mumkin?
4. Og`zaki tashviqot ishlarining ommaviyligi va ko`p qirraligideganda nimani tushunasiz?

8-mavzu: Ma`rifiy targ`ibot-tashviqot ishlarning nazariy asoslari.

Reja:

1. Tashviqotchi faoliyatini o`ziga xos xususiyatlari. Targ`ibotchi-tashviqotchining kasbiy va tashkilotchilik mahorati
2. Kuzatuvchanlik va o`tkirlik.
3. Sotsial-kommunikativ malakalar.
4. Tashkiliy malakalar.

Tayanch iboralar

Sotsiologik yondashuv, sotsial-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, targ`ibot-tashviqotning maqsadi, odam xotirasi, ko`rgazmali xotira, nutqqa qiziqish, pedagogic tamoyil, dunyoqarashni shakllantirish, mafkuraviy vazifa. Isbotlash strukturasi, rad qilish usuli, bevosita va bilvosita isbot qilish, deduktiv xulosa, induktiv xulosa.

Targ`ibotchilik - tashviqotchilik garchi u ko`pincha ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lsa-da, lekin baribir u kasbdir. U har qanday boshqa kasblar singari professional mahorat va malakaga ega bo`lishni taqozo etadi.

Har bir kasbda shunday muayyan talablar mavjudki ular mazkur kishining usha kasbga yaroqligi yoki yo`qligi belgilab beradi. Albatta, ruxshunoslar to`g`ri takidlab o`tkanlaridek, har bir kishi har qanday kasbni ega olishi mumkin, lekin hamma ran buning uchun qancha kuch -g`ayrat va vaqt sarf etilganligidadir. Xush, kishyning u yoki bu kasbga yaroqliligi nimalarga bog`liq? Biz, bu erda uch guruxga bo`lingan omillar keltirishimiz mumkin. Birinchi gurux omillar kishinsh mayllari bilan bog`liqdir: bunda mazkur kasbning kishi/ yoqishi yoki yoqmasligi hsiobga olinadi. Ikkinchi omil kishining malakasi bilan bog`liqdir. Agar men biron ishni qila olsam- va uni yaxshi bajara olsam, demak mening olg`a borishim uchun imkoniyat ko`proq bo`ladi. Uchinchi omil aynan idividual hususiyatlarga, avvalopsixofiziologik hususiyatlarga bog`liq bo`ladi. Keling, odamning qanday o`ziga xos individual psixologik (shu jumladan, psixofiziologik) hususiyatlar uniig tashviqotchilik faoliyati bilan mavofaqiyat ravishda shuqullana olishi uchun ko`proq qo`l kelishini taryflashga o`rinib ko`raylik. Boshqacha qilib aytganda unday faoiyat odamdan unda qanday psixologik fazilatlar bo`lishini talab qiladi? Ulardan ayrimlarini ayni shaxsning eng umumiy tarifiga oid bo`lganlarini biz biroz keyinroq qarab chiqamiz. Biroq, yuqorda aytilganlardan tashqari yana ko`pgina mayda va xususiy belgilar ham mavjuddir.

Ma`lumki, faoliyat davomida «professional» xususiyatlar faqat namoyon bo`lib qolmasdan, shu bilan birga ular shakllanib ham boradi. «Hatto, mo`zikachi bo`lish uchui ham kishi muzika bilan shug`ullanadi hamda mazkur mashqulotlar maboynida va shular

tufayligina u mo`zikachi bo`lib etishadi». Xush, tashviqotchi -lektor faoliyatining o`ziga xos xususiyati va u qanaqa asosiy qismlardan tashkil topadi? SHu narsa ravshanki, auditoriya oldida so`zlash jarayoni bu, buni tushunmaydigan ba`zi kishilar uylaganidek, oson ishlardan emas. Targ`ibotchilik va tashviqotchilik faoliyati o`zining gnostik, ya`ni, ilmiy tarzda o`rganish asoslariga egadir.

Ma`ruza o`qiy olish yoki biron tadbir tashkil etishning o`zi kamlik qiladi. YAna ma`ruzaga tayyorgarlik ko`ra bilish yoki agar u tayyor bo`lsa, unga yangi axborotlarni ustalik bilan kirita bilish zarur bo`lsa ma`ruza mazmunini boshqa tegishli yo`nalishga sola bilish ham kerak. Bundan tashqari o`zining "Sof idrok" deb ataladigan komponentlariga ham ega bo`ladi. YAna, auditoriyalarda muljalyani aniq. olishi, ya`ni aniq maqsadni ko`zlab so`zlash, tashkil etish qobiliyati tashviqotchining professigonal mahoratiga g`oya jiddiy ahmiyat kasb etadi. Aelini olganda sotsial kommunikatsiya, ya`ni fikir olishuv -o`z fikriny o`zgalarga tushuntira olish qobiliyati ham xuddi ana shunga bog`liqdir.

So`ngra, auditoriya bilan bo`ladigan sotsial kommunikatsiya tashviqotchi faoliyatining asosiy komponenti hisoblanady. Nihoyat, o`z faoliyatini to`g`ri tashkil etabilish mahorati to`rtinchi muhim komponent bo`lib xizmat qiladi. Bu erda biz, albatta, har bir tashviqotchi - notiq uchun xos bo`lgan, juda ham spetsifik-kususiy xususiyatlar hisoblangan faolliklar boshqacha qilib aytganda auditoriyani boshqara bilish sa`natini nazarta tutmoqdamiz. endi esa ana shu o`ziga xos komponentlarni bo`laklarga ajratib eng zarur ko`nikmalar va bu ko`nikmalarga xizmat qiladigan tobe komonentlar-bo`laklari - tarkibiy qismlari haqida tushuncha berishga urinib ko`ramiz.

Gnostik malakalar. Targ`ibotchi uchun axborotlarni tula qamtab olish bilan bog`liq bo`lgan malakalar nihoyatda muhim ahmiyatga egadir. Lektor -tashviqotchi bunday axborotlarni tezda ilg`ay olishi, uni tez va samarali tarzda o`z tinglovchilariga etkaza olish hamda bu yangiliklarni o`z bilimlarinyng umumiy tizimiga darhol qo`sha bilish . mahoragiga ega bo`lishi kerak. Ikkinchidan, mavjud axorotlarni qandaydir bir butun holga keltira olish mahoratini ham, boshqacha qilib aytganda " mantiqiy" malakalarni mavjud axorotlar bilan boyitib borish ham shunga taalluqlidir. Garcha bularning hammasi - mazmunga oid o`zgarishlar deb atash to`g`riroq bo`lsa -da, odatda uni "mantiqiy" malakalar deb yuritadilar. Mazkur axborotni tashviqotchi qanday"matnli" shaklda bayon etishidan qat`iy nazar u ma`no jihatidan tashviqotchining o`zi uchun yaxshilab tartib berilgan va mukammal bir holatga keltirgan bo`lishi zarur. Biroq, bu bilan ham gnostik malakalar ham tugamaydi.

Har bir tashviqotchi o`z faoliyatida (axborotni) idrok qilish mahoratini shakillantirgan bo`lish kerak. Bunga birinchidan diqqatga xos bo`lgan: umumiy ko`zatuvchanlik o`tkirlik (ko`ruvchanlik): barqarorlik, kenglik, topa ola xususiyatlar to`grisida alohida - alohida to`xtalib o`tamiz.

Kuzatuvchanlik - bu odamning tegishli ob`ektini to`g`ri baholay olish va o`sha ob`ek bilan samarali ishlay olish uchun muhim bo`lgan barcha yangi ma`lumotlarni ilg`ay bilish va hisobga olish qobiliyatidir. Bizning misolimizda bu tashviqotchi oldindan o`zgarmas dastur to`zib olmasligi kerak, degan ma`notsi anglatadi. U nimani ko`rish yoki nimalarni ko`zatishni oldindan belgilay olmaydi, degan gapdir; u o`zi uchun tnglovchilarning, tadbir o`tayotgan xonaning va shu kabilarning eng muhim turli xususiyatlarini belgilab. olish (va bu axborotlardan keyinchalik foydalanishi ham) mumkin. SHunday bir holni tasavvur qilib ko`raylik. Biror muassasada o`tkazilayotgan sotsial - psixologik mavzudagi ma`ruza vaqtida tashqiqotchi rahbarlikning turli uslublarini bayon etadi. mazkur muassasaning birinchi qatorda o`tirgan direktori mana shu tasvirlab berilgan tipdagi rahbar qiyofasida o`zining ko`rib o`tirganini sezadi. Xo`sh, tashviqotchi mana shuni sezib olishi muhimmi yoki muhim emasmi? Albatta, bu juda muhim , hatto notiq yo`l - yo`lakay o`z ma`ruzasining butun rejasini bir oz o`zgarturib borishi ham mumkin.

Utkirlik va diqqatning ko`chuvchanligi - bu diqqatni izchil ravishda turli ob`ekllarga qarata bilish qobiliyatidir. Bu faqat uning diqqat -e`tibori hamisha bir tinglovchidan ikkinchisiga, auditoriyaning bir qismidan ikkinchi qismiga ko`chib turgayushgi va boshqa shunga o`xshash

xolatlar uchun muhim emas. Bunda ma'ruzachining diqqati mavzuning mazmuniga, uning kompozitsiyasiga va boshqa shu singarylarga ko'chishi buning aksi bo'lishi hammadan ko'ra muhimroq.

Diqqatning barqarorligi deganda tashviqotchining boshqa ishlariga alahsimasligi, uning diqqati o'zi uchun muhim bo'lgan sohaga hamisha qaratilganligina tushunamiz. Eshikning qattiq yopilishi ham, yiltiroq ko'ylak kiygan ayol ham, kutilmaganda zalga kirib kelgan kishi ham, yo'lakdagi shovqin -suron ham uning diqqatini bo'la olmaydi.

Diqqatning kengligi deganda bir vaqtning o'zida juda ko'p belgilari bo'lgan ko'pincha ob'ektlarni bir vaqtning o'zida diqqatdan qochirmay ko'ra olish qobiliyatini tushunamiz. Bu fazilatlarini ham biz alohida ta'kidlab o'tishni istaymiz. Tajribali, malakali notiq "ko'zi yumuq holda ham" auditoriyani ko'rib turishi, hamisha uni ko'zatib turishi zarur. Hatto boshqa ob'ektlarga hayol ko'chganda ham o'zini hushyor tutushi, auditoriyani o'z diqqat - e'tiboridan qochirmasligi kerak.

Topib o'la bilish qobiliyati degan tushuncha birinchi misolimizda auditoriyadagi uyachalik katta bo'lmagan bir qism belgilarni tashviqotchi tomonidan umuman tanlab olinishini anglatadi. Bunda u o'z faoliyatini samarali tarzda tashkil etishi bilan bog'liq bo'lgan belgilarnigina:

kishilarning yoshini, emotsional holatini, ditsats -darajasini, qanchalik charchaganligi, muloqot boshlashga tayyorligi, manfaatdorligi kabi belgilarnigina ajratib oladi.

Ikkinchidan idrok qilish mahoratiga sotsial idrok etish malakasi, "odamning ko'ziga qarab fikrini bilishi qobiliyati ularning xulq - atvorini, kayfiyatini gashviqo gchi bilan o'zaro munosabatlar dinamikasini va kabilarni sezdiruvchi signallarni "o'qiy olish" qobiliyati kiradi. O'qituvchilik mehnati materiallari asrsidagi maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday shaxs tajribasi natijasida orttirilgan mahorat kishining bilim darajasi - hamda mavjud narsalarni amalda qay darajada tasavvur qila olish darajasi bilan maqkam bo'lar ekan. Sotsial-kommunikativ malakalar. Ular quyidagi asosiy guruxlardan iborat bo'ladi. a) Auditoriya bilan aloqa o'rnatish bilish mahorati. Aloqa o'rnatish - muloqot psixologiyasida odamni birgalikda faoliyat ko'rsatish jarayonidagi harakatlarini ta'minlovchi o'zaro aloqalari bir - biridan farq qilinadi. Nihoyat, muloqotning mazmuni va funktsiyasidan qat'i nazar odamlar aloqa jarayonida o'zaro bir -birlarini taniydilar. Boshqacha qilib aytganda odam. "suhbatga kirishib keta olishi", "suhbatni tugallab. olishi", ruhshunoslar ta'biri bilan aytganda, muayyan 'intizomlik darajasiga" amal qilishi kerak va hokazo. Bunday aloqalarning ancha mukammal ishlab chiqilgan texnikasi-so'zlar yordamida va so'zlar yordamisiz muloqotga kirish yo'llari mavjud.

SHunday qilib, aloqa jarayonlari o'z navbatda muloqotga xizmat qiladi, uning "chegarasini" belgilab har taraflama o'z ichiga olgan tarkibiy qismlarni tashkil etadi. Muloqotga kirisha bilish o'z navbatida xarakteri jihatidan ancha murakkab ishdur. Bu erda "mazmunli maxorat" deb ataladigan, ya'ni lektor qachon va qaysi yo'nalishda o'zaro fikr almashuviga faollik ko'rsatishini tushunish mahoratini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Lekin bundan boshqa aloqa bog'lash usullari ham mavjud -bu o'z istagini nutq, xatti - harakat, imo-ishoralar orqali aynan tushuntira olish qobiliyatidir.

Ko'pincha-alloqa bog'lash xaqida ran ketganda ishning qilib bir tomonini nazarda tutadilar: kishi qanday qilib muloqotga kirishadi va u mana shu alohalarni qanday qilib mustahkamlaydi, degan fikrni nazarda tutadilar. Amalda esa bular bari murakkab. masalalardir. Aloqa o'natish mobaynida hamjihat, bo'lib ketish jarayonlariga oid quyidagi asosiy (ha, faqat asosiy) funktsiyalarinigina ajratib ko'rsatish mumkin: suxbatdoshni suxbatga chorlab bilan muloqotga kirishishning ta'minlanishi: intimlik darajasining elgilanishi, aloqa xarakterining (rasmiy aloqadan norasmiy aloqaga o'tish, va aksincha) o'zgartirilishi, aloqada o'z etakchiligining ta'minlanishi (ya'ni aloqani o'z qo'lida saklab

turysh imkoniyati); etakchilik qilishning suhbatdogadap ikkipchisiga o`tishini ta`minlanishi va boshqalar.

b)aloqani jonlantirish mahorati: Bu-mahorat ham ko`pqirralidir.

Rejalashtirish mahorati - keng tushunchadir. U o`z ichiga masalay, ma`ruza - yoki doklad boshlanguncha bo`ladigan ishlar (mingbarga qanday chiqish, zaldagi shovqin - so`ron boshlanishini oxirigacha kutib tufish yoki shivir - shivirlash tugamasdanoq ma`ruzani boshlab yuborish) rejasi "aloqa uslubini (nutqning sur`ati, ovozning baland va pastlik darajasidan boshlab to qaerda turib gapirishgacha va boshqa shu kabilarni), tanlab olish. Mana shunday oldindan rejalashtirilgan ma`ruzaga quydagi misolni keltirish mumkin Tinglovchilar notiqqa yozib o`zatadigan savollar orasida deyarli har doim ma`ruzachidan topqirlikni talab qiladiganlari ham bo`ladi. Bunday savolta osongana javob berib bo`lmaydi, shuningdek, uni murakkablashtirib savolga chalkash javob berish ham mumkin emas. Bunday savolga javob berish uchun muayyan vaqt va vaziyatni yuzaga keltirish yoki paytini topish zarur bo`ladi. Xullas, lektorning har bir javobi tinglovchilarning fikrini chalg`itmasligi, kalavaning uchini yo`qotib qo`ymasligi" kerak.

v)Alokaurnatishrejasini amalga oshirish mahorati. Xuddimanashu mahoratni shakllantirish tashviqotchini professional faoliyatiga tayyorlashning asosiy,hattoyagona mazmunini tashkil etadi, deya xisoblaydi U qo`yidagi tarkibiy qismlardan iborat bo`ladi.

Birinchidan, muayyan bir stilistik uslubni (registrni) tanlab olish va unga izchil ravishda, roiya qilib borish kerak. Bu targ`ibotchining o`zi turli auditoriyada hal hil mavzularda va hatto bitta mavzuda ma`ruza o`qigan vaqtida gog`o'akademiklarday" viqor bilan turib rasmiy ishchanlik normalariga roiya qiladi yoki ilmiy uslubini ta`kidlab ko`rsatadi, goho esa so`zamolik elementlariga yo`l qo`yib tinglovchilar bilan erkin zuhbat olib borayotanday bo`ladi. Bunda notiqning mahorati shundan iborat bo`ladiki, samarali ta`sir ko`rsatishni eng ko`p darajada ta`min etuvchi zarur usul va shaklini adashmay topib olishi kerak bo`lady.

Ikkinchidan, zarur til vositalari - leksik, grammatik, fonetik va boshqa vositalarni to`liq egallab olish va ulardan differentsial tarzda foydalanish kerak. Tilning bunday vositalaridan to`la ravishda maksimum darajada faol foydalana bilish mahoratini egallab olish zarur. Bu vositalardan har tomonlama differentsial tarzda foydalanish deganda mazkur auditoriyaga ta`sir ko`rsatish nuqtai nazaridan qaraganda ko`proq samara beradigan hamda lektorning fikri va kayfiyatini hammadan ko`ra ravshanroq ifoda eta oladigan vositalarni tanlay olish va foydalana bilish mahorati tushuniladi.

Uchinchidan, ovozni balandlatish, mantiqiy urg`u, intonatsiya va pao`zalar, imo - ishoralar va boshqa vositalardan ongli ravishda va aniq maqsadni ko`zlab foydalanish zarur. To`rtinchidankishining o`z_ovozini o`zi boshqara olish mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu alohida juda katta masala bo`lib, buni egallash ko`p mehnat va istedad talab qiladi. g) Tashkiliy malakalar- Bunday malakalar, aftidan suhbat olib borayotgan targ`ibotchilar uchun muhimroq bo`lsa -da, lekin tashviqotchi -lektorlar uchun ham zarurdir. Bu haqida ran ketganda, biz auditoriyadagi ishni tashkil ega olish, bu ishni aloqa o`rnatish vositasiga aylantirish, savollar berishga "undash", javoblar, bahslar, agar joylardan savollar tushsa, bu savollarga javob berib, "dirijerlik" qilish va shu kabilarni nazarda tutamiz. Lektorning auditoriya bilan aloqasini ta`minlovchi so`zlari (odatda bunday so`zlar ma`ruza boshlanishi oldidan aytiladi), uning reglamenti bunga kirmaydi. Men tanafus qilmasdan bir soatu o`n minut ma`ruza o`kiyman. Keyin esa savolarga javob berish uchun vaqt qoldiramiz. YOki "Agar sizlar biror narsani tushunmay qolsangiz, o`sha zahoti uyalmasdan qo`lingizni kutaring va so`rab oling". YOki bo`lmasa: "Men sizlar charchaganligizni yaxshi bilaman". SHuning uchun ko`p vaqtingizni olmayman - degan qo`shimcha so`zlar mana shunday ma`ruzani tashkil etuvchi momentlarga kiradi.

Lektor o`z faoliyatini uyushtira bilishi ham, ayniqsa, vaqti to`g`ri taqsimlay bilish, odamlar ma`ruzani qiynalmasdan eshytishlari uchun materialni ustalik bilan saralay bilishi ham

anashunday tashviqotchining tashkiliy mahorati va malakasiga bogliq bo'ladi. Yana shu narsa ma'lumki, ma'ruzaning "oltinday qimmatli vaqtida", masalan, bir yarim soat davom etadigan tadbirda oradan bir soat o'tganda keyin auditoriyaga qisqa muddatli tanaffus zarur bo'lib qoladi. Shunday vaqtga tajribali tashviqotchi -targ'ibotchi atayin ma'ruza materialidan "tashqariga chiqib", boshqa bir chiziq gapni (masalan, o'z hayotida bo'lib o'tgan biror voqeani) aytib beradi, yohud o'rinli bir hazil qilib qo'yadi:

Mana endi biz o'zimizning navbatdagi vazifamizga yaqinlashib qo'yidagi muhim savolga javob berishga harakat qilib ko'rishimiz mumkin.

Tashviqotchilik faoliyatini olib borish qobiliyati nima?

Avvalo, qobiliyat deganda nimani tushunamiz? qobiliyat deganda har bir shaxsdagi shunday xususiyatga aytamizki, bu xususiyatlar kishilarga u yoki bu bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallab olishni, u yoki bu faoliyat turini amalga oshirishini aminlaydi. Bunday qobiliyat odamga, birinchidan, Sudo tomonidan berilmaydi. U insonning o'zi bilan kirga tug'ilmaydi - biroq ko'pincha odamlar talantni o'g'ma deb hisoblaydilar. Ikkinchidan, ular kamdan -kam hollarda nihoyatda kichik ixtisoslar loslashtirilgan bo'ladi. Masalan, trigonometriya janiga qobiliyati zur bo'lgan kishining ayni mahalda zrozezerli stanoklarning konstruktsiyasi bilan lug'ullanib yurishini tasavvur qilish qiyin. Keling, shu haqda mufassal tuxtalib o'taylik, faoliyatning tug'ma emaslig'i deganda nimani gush unamiz? Axir aytaylik, biror kishida mutlaqo nyuzik, musiqiy ohanglarni ilg'ab olish qobiliyati eolmaydimi? Bo'ladi. Inson bolasi ana shundaymuayyan bir belgilar bilan tug'iladi. Masalan, o'sha mutlaqo nozik musiqiy ohanglarni ilg'ab olish qobiliyatini olaylik. Lekin bu hali go'dakda "kurtak" holida bo'ladi. Bu ""kurtak hali qobiliyatning o'z - o'zidan rivojlanib ketishiga kafolat bermaydi. Bu qobiliyatni o'stirish, rivojlantirish uchun kishi muayyan bir faoliyat, turi bilan (yoki juda bo'lmaganda o'sha sohaga yaqin bo'lgan ish bilan) shug'ullanishi kerak. Ana shu faoliyat jarayonida qobiliyat ham shakllana boradi.

Nozik ixtisoslashtirilgan qobiliyatlar bo'lmaydi, deganda nimani tushunamiz? Bunday deganda avvalo shu gapning o'zi umuman, kishida maxsus qobiliyatlar bo'lmaydi degan ma'noni tushunmaslik kerak; albatta bunday qobiliyat mavjud bo'ladi. Lekin ularning "qamr.ovi" anchagina keng bo'ladi. Qobiliyatli yoki talantli olim faqat bitta sohada, masalan, "talantli fizik", yoki "iste'dodli bioximik" bo'libgina qolmaydi. Aksincha, ilmiy iste'dodi yaqqol ko'rinib turgan kishilar odatda fanning bir qancha sohalarida o'zlarini ko'rsatadilar. Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Al Xorazmiy va hokazolar entsiklopedik olimlar bo'lishgan. Bu ro'yxatini yana davom ettirish mumkin.

Ho'sh, nega shunday bo'ladi? Chunki qobiliyat kurtagi tor karakterda bo'lmaydi (agar bu absolyut eshitish qobiliyati yoki qandaydir bir sof fiziologik xususiyat bo'lmasa). Agar odamda o'z imkoniyatlarini turli faoliyat sohalarida "o'zini sinab ko'rish" imkoniyati bo'lsa, shu asosda undagi boshqa bir qator qobiliyat "shahobchalari" ham rivojlanib ketgan bo'lar edi.

Aslni olg'anda har qanday kishida ham qobiliyat bo'ladi. Juda bo'lmaganda potentsial qobiliyat egasi bo'ladi. Ko'p kishilarda "ana shu qobiliyat namoyon etilmay qolib ketadi. YOki mazkur kishining asosiy professional faoliyatining diorasidan tashqarida qoladiki, bu boshqa masala".

Aytaylik, kishida u yoki bu sohada qobiliyat, aniqrog'i ana shu qobiliyatini keyinchalik rivojlantirib yuboradigan "kurtak" bo'lmasin. Ho'sh, bu o'sha kishi mazkur sohada ishlab olmaydi, degan ma'noni anglatadymi? Yo'q! Masalan, CHaykovskiyda mutlaq eshitish qobiliyati bo'lmagan. Bunday hollarda bir qobiliyat o'rnini boshqabyar qobiliyax kurtagidan o'sib chiqqan iste'dod qoplaydi. Agar kishi muayyan bir sohada mutlaqo qobiliyatga ega bo'lmasa. Hatto mana shunday holax ham uning muvaffaqiyatli ish olib borishga xalal bermasligi mumkin. Faqat uning bu sohada professional mahoratga ega bo'lishi va yuksak ijodiy cho'qqillarga chiqishi murakkabroq bo'ladi.

Endi tashviqotchy - lektorning professional mahorat jihatddan yuksak darajada bo'lishiga yordamberadigan ba'zi bir qobiliyatlar to'g'risida aytib o'tish mumkin.

1. Qiziqarli, o`qimishli soha deb ataladigan fanlar negizidagi professional ilmiy faoliyat bilan bog`liq bo`lgan qobiliyatlar.

Bunday qobiliyatlar ilmiy – ommaviy mavzularda ma`ruzalar o`qiydigan notikdar uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bunga axborotlarni darhol ijodiy tarzda qayta ishlay olish va unga sistema asosida tartib berish qobiliyati singari fazilatlar kiradi. Bunday fazilatlar olim "g`oyalarni "jamlab", muammoga printsiptial yangicha bir nuqtai nazar bilan qarash niyatida bo`lganda, "aqlidan ozdiradigan teorema " yaratganda paydo bo`ladi va hokazo. Lektor uchun bu juda muhim. Uning uchun yana bir xususiyat muhim ahamiyatga ega, bu -qobiliyatlarning kengligi, ya`ni turli fanlardan olingan materiallarni osonlik bilan qayta ishlab birlashtirish va bir vaqtning o`zida bir xildagi faktlarga turli nuqtai nazarda turib qaray olish imkoniyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday qobiliyat giostik malakalarga muvofiq keladi.

2. Ishrilektual funktsiya, xotira, diqqat -e`tibor, tafakkur, idrok etish bilan bogliq bo`lgan qobiliyatlar.

Asliny olganda idrok etish ham, diqqat -e`tibor^Aham, tafakkur ham, xotira ham tarbiya qilinadi.

Xotirasi "yaxshi" yoki xotirasi "yomon" odam bo`lmaydi. Lekin "fotografik xotira" deb aytiladigan xotirali kishilar uchraydiki, bu boshqa ran, (ya`ni agar ular isgasa, har qanday katta tekstni ham esda saqlab qolish mumkin), ba`zi kishilarda obrazli xotira mantiqiy xotiradan ustun turadi yoki aksincha bo`ladi: bir xil kishilarda mexanik tarzdagi xotira kuchli bo`ladi yoki buning aksi bo`ladi. Ba`zi bir odamda ko`rib eslab qolish kuchli bo`lsa, ba`zilarda eshitib qolish kuchli rivojlangan bo`ladi va hokazo.

Bunday individual farqlar va individual qobiliyatlar o`z -o`zidan xotira faoliyatini muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ishlashini oldindan belgilay olmaydi: xotiraning boshqa bir u yoki bu turi orqali odam materialni bir xilda aniq va to`la eslab qolish hamda takrorlab, qayta tiklash qobiliyatiga egadir. Fotografik xotirlash qobiliyatiga ega bo`lgan kishilar bu ishni ancha osonlik bilan bajaradilar, albatta. U yoki bu turdagi xotiraning ustun kelish uning topqirlik xususiyatini oldindan belgilash imkonini beradi.

Aslini olganda, idrok qilish - ba`zi bir xususiy hollarni, masalan, ranglarni ajratolmaslik singari xususiy holarni hisobga olmaganda - deyarli har doim qobiliyatga bog`liq bo`lmaydi. Aftidan, bu erda eshitish sistemalari ko`proq yoki kamroq rivojlanganligini eslatib o`tish kifoyadir.

Tafakkur sohastsga kelganda notiq uchun g`oyat muhim ahamiyatga ega bo`lgan ikkita o`ziga xos qobiliyat to`g`risida gapirib o`tish kerak. Bu -tafakkurning tanqidiy bo`lishi va uning o`tkirliigi, bir tomondan, lektor har bir ishda o`zi mustaqil ega bo`lishi, "oqimda" yurmasligi, ana shu olg`a surilayotgan fikr -mulohazalarda ishonchli dalillar keltra olishi kerak. Ikkinchi tomondan esa, kutulmaganda sodir bo`ladigan murakkab vaziyatlarda yangi -yangi masalalarni darxol havl qila bilishi kerak. 3. Aloqa o`rgatish bilan bog`liq bo`lgan qobiliyatlar. Bu erda avvalo umumiy aloqadorligini ko`pincha shaxsning "boshqalarga" murojat qila olish qobiliyati bilan bog`liq fazilatlarini eslatib o`tish zarur. So`ngra har kimning o`z shaxsiy notikdik qobiliyatlarini ko`rsatib o`tish mumkin. Masalan, ba`zi bir kishilar uchun aloqa o`rnatish rejasini to`zish va uni amalga oshirish nisbatan oson ko`chadi. Ular turli nutq vositalaridan osonlik bilan foydalanib, ayrim suzlarining ifodalilik xususiyatlarini nozik his etadilar va xokazo. Nihoyat, shunday kishilar ham borki, ularda o`z gavdasini boshqarish, har xil xarakterlar, imo -ishoralar qilish, ovozni past - baland qilish singari masalalar dsyarli bo`lmaydi.

YUqorida aytib o`tilgan qobiliyatlar tashviqotchilik ishida juda katta yordam beradi, albatta. Biroq, ilgari sanab, undagi qobiliyat mana shu malaka va mahoratlarni shakllantirishga ko`maklashadi, xolos. Ma`lumki, odamda hamma narsaga baravar qobiliyat bo`lavermaydi... Bunday qobiliyatga kishi tadbirlarga maxsus tayyorgarlik ko`rishi orqali o`zining ko`p narsalarga qiziquvchi kishi bo`lganligi, qolaversa, qarab chiqilayotgan masala yuzasidan yozilgan bibliografiyalarni yaxshi bilishi tufayli erishadi. Agar ma`ruza materiali mazmunli, ifodali va professional holda berilgan bo`lsa, tashviqotchi o`z ma`ruzasini shu

darajaga keltirish uchun nihoyatda ko'p mehnat qilib qiynalganligini tinglovchilar hatto sezmasliklari mumkin.

Odamning xotirasi "yomon" bo'lsa -chi? Albatta, nutq so'zlovchi mingbarga qo'lida yozilgan ma'ruza matnisiga chiqib, kerakli faktlarni va fikrlarni qog'ozga qaramasdanyoddan aytib bersa, bu g'oyat katta samara beradi. Lekin bunday qilish mutlaqo shart emas. Albatta, biz ham ma'ruzani "qog'ozga qarab o'qib berishga" qarshimiz - notiqning vazifasi o'qib berish emas, balki so'zlab berishdir. Lekin uvaqti - vaqti bilan konspektga karab qo'yish, buning uchun hech kim uni ayblamaydi. Buni ma'lum vaqt mashq qilgandan keyin shu qadar sezdirmay amalga oshirish mumkin. Tashviqotchining individualligi va individuallikning psixofiziologiyasi. Hozirgi zamon ruhshunosligida odam psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini bayon etuvchitort asosiy tushuncha ajratib ko'rsatiladi. Ular qo'yidagilardan iborat: nerv sistemasining umumiy tipi, temperament, xarakter, shaxs. Bundan tashqari, psixologiyada qobiliyat tushunchalari ham mavjud bo'lib, ular haqida biz yuqorida to'xtalib o'tdik.

Nerv sistemasi tiplarining turli klassifikatsiyasi mavjud. SHulardan biz I.P. Navlov amal qilgan tipini tanlab olamiz va tushunarli suhbat bo'lishi uchun shunga suyanamiz. I.P. Pavlov nerv sistemasining qo'yidagi tort tipini ajratib ko'rsatgan. 1) kuchli, muvozanatli, harakatchan; 2) kuchli, muvozanatsiz, harakatchan; 3) kuchli, muvozanatli; 4) kuchsiz.

Bu erda biz "ko'z bilan chamalab" aniqlash mumkin bo'lgan beligalrnigina ksltiramiz, xolos. Kuch. Inson o'zoq muddat qattiq ishlagan vaqtida ham o'zining yuksak darajadagi ishchanlik qobiliyatini saqlab qoladi. KA'sqa muddat bunday ishchanlik qobiliyatini yo'qotib, uni yana tezda tiklab oladi. Murakkab, kutilmagan vaziyatlarda "o'zini ko'lga olib turadi", bardamlikni emotsional tonusi yo'qotmaydi. Salbiy ta'sirlarga berilmaydi, har narsaga hafa bo'lavermaydi. Mayda -chuyda, kishini chalg'itadigan narsalarga e'tibor bermaydi.

Harakatchanlik. Vaziyat o'zgarib qolganda tez va adekvat (mos) tarzda unga javob qiladi. SHakllanib qolganda bulsa -da, lekin endi "yaroqsiz" eski narsalardan osonlik bilan voz kechadi. YAngi malakalarni, odatlarni yangicha sharoitga va odamlarga moslab osonlik bilan ishlab chiqadi. Sokinliqdan ishchanlikka qiynalmasdan o'tadi va aksincha ishchanlikdan sokinlikka hech qanday qiyinchiliklarsiz' o'tadi, bir faoliyat turidan ikkinchisiga o'tishda qiynalmaydi. emotsiyalari tez paydo bo'ladi va yaqqol na.moyon bo'ladi. Tez eslab qolishga jadal tempdagi xarakter va nutqqa qobiliyatli bo'ladi. Muvozanatlik. Xayajonlik, jahl qo'zg'atadigan vaziyatlarda o'zini sokin va vazmin tutadi. Keraksiz orzu - istaklardan qiynalmay voz kecha oladi. CHalg'ituvchi fikrlarni boshdan "quvib chiqaradi" Tasodifiy "ko'tarilish va tushib ketishlarga" yo'l qo'ymasdan, bir maromda ishlaydi.

Binobarin, nerv sistemasining birinchi tipidagi kishi bu fazilatlarining barchasiga ega bo'ladi. Ikkinchi tipdagi belgilarga ega bo'lgan kishi ishchan bo'ladi, ish faoliyatini tez o'zgarishiga va darhol bo'ladigan reaksiyalarga tayyor turadi. Biroq, u hamisha "shoshqaloqlab" yuradi, o'zini - o'zi boshqarishi qiyin bo'ladi, uchinchi tipdagi belgilarga ega bo'lgan kishi ishchanlik qobiliyatiga ega bo'ladi, unda ichki mo'tadillik, qobillik mavjud, biroq nihoyatda "og'ir karvon" bo'ladi, ilgari ishlab chiqilgan malakalardan voz kecha olmaydi, yangi vaziyat va yangicha shart -sharoitlarga moslashli qiyin bo'ladi. Uning ishga "kirishishi" ham, "ishdan chiqishi" ham qiyin, uning emotsiyalari nihoyatda sekin va kuchsiz namoyon bo'ladi.

To'rtinchi, ya'ni nerv sistemasi sust tipga mansub kishi ish qobiliyatining tez tushib ketishi, o'zoq muddatli dam olishga bo'lgan ehtiyoji mayda -chuyda ahamiyatsiz ga'sirlarga bog'lanib qolishi, qiyinchiliklarga nisbatan haddan tashqari ortiqcha emotsional reaksiyasi bilan xarakterlanadi..

SHuni ham alohida ta'kidlab o'tishni istardik -ki nerv sistemalari tiplari nisbiy narsalardir. Birinchidan, u yoki bu tipdagi barcha belgilarga tamomila mos keladigan odam topilmaydi. Ikkinchidan, bu esa eng asosiy, inson hayoti mobaynida bir xil tipdagi nerv sistemasi belgilari bazasida bir -biriga mutloq mos kelmaydigan, turlicha

temperamentlar shakllanib qolishi mumkin, ular negizida esa o'z navbatidaturli xarakterlar paydo bo'ladi.

Temperament - bu psixik jarayonlarning dinamik tarzda kechishini belgilovchi psixik xususiyatlar tizimidir. Bu - muayyan bir faoliyat turi bilan shug'ullanganda, o'sha faoliyatning mazmuniga ham motivlariga ham, maqsadlariga ham bog'liq bo'lmagan holda uning dinamikasini belgilovchi psixik xususiyatlar silsilasidir.

Nerv sisemasining tipi tug'ma bo'ladi. Odam juda kichikligidayoq u yoki bu sifatleri bilan ajralib turadi. Ma'lumki, emizakli bolalar ham har hil harakterda bo'ladi: ba'zilarini emizish vaqtida osonlik bilan chalg'itish mumkin, ba'zilar esa "tutgan joyini kyosib" o'z aytganini qildiradi: bir xillari yangi o'yimchoq talab qilsa, boshqa ba'zi o'zi yaxshi ko'rgan o'yinchoqlarini rad etadi, lekin hali go'dak huzurida temperament to'g'risida gapirib bo'lmaydi, albatta. Bu nerv sistemasining qaysi tipda ekaniga bir xilda bog'lik bo'lmaydi, bu nerv -fiziologik hamda xususan, psixologik omillarning murakkab tarzda qo'shib ketishi orqasida paydo bo'ladi. Temperament odam bolasiga taqdirning sovg'asi sifatida berilmaydi: u shakllanib boradi yoki boshqacha qilib aytganda pishib etiladi. Biroq, odam o'zining hohishiga qarab o'z temperamentini o'zgartira olmaydi.

Temperamentga to'g'ma fiziologik xususiyatlardan tashqari yana kishining hayot va tarbiya sharoiti, boshdan kechirilgan og'ir ruhiy holatlar va shunga o'xshash omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pincha temperamentning ayrim xususiyatlarini yoki ba'zi bir belgilarni ajratib ko'rsatadilar hamda odamni mazkur xususiyatlar unda qay darajada ifoda etilganligiga qarab baholaydilar. Ho'sh, bu xususiyatlar nimalardan iborat? 1. REAKTIVLIK: har xil odamlar o'z ta'siri jihatidan bir xil bo'lgan voqealardan turlicha darajada ta'eirlanadilar (xafa qiladigan so'z aytganda bir xil odam parvo qilmaydi, boshqa bir kishi oppoq oqarib, g'ijillashib ketadi, uchunchi bir kishi xuddi o'shanday xafa qiladigan so'z bilan javob qaytaradi, to'rtinchi bir kishi undan ham battar so'zlar bilan haqorat qilib, agressivlik ko'rsatadi).

2. FAOLLIK: odam qanchalik o'z maqsadi sari intiladi, va bu yo'dda qat'iyat ko'rsatadi, uni bu yo'ldan "qaytarish" shunchalik qiyin bo'ladi.

3. REAKTSIYASUR'ATI: tezlik, topqirlik, darhol eslab qolish va shunga o'xshashlar.

4. NAFISLIKYOKI MAYINLIK: bunda odam sharoitning o'zgarishiga qarab qanchalik tez moslashishi yoki aksincha qanchalik sust, faoliyatsiz, ilgari o'zlashtirilgan do' - ahloq, tafakkur va hokazo odamlarni qayta tiklashga qanchalik moyilligi hisobga olinadi.

5. DIQQATNING TA'SIRCHANLIGI: uning "sezuvchailigi" qay darjada ekanligidan belgilanadi. Mana shu sanab o'tilgan temperament xususiyatlarini juda osonlik bilan tashviqotchi - ma'ruzacha faoliyatiga ham tatbiq etish mumkin. Bir - biriga qarama - qarshi temperamentda bo'lgan ikki lektorning tipik qiyofasini chizib ko'rsatishga xarakat qilamiz.

Mana, ulardan biri. U auditoriyaga ko'rmasdan kiradi. Har qanday vaqtda va har qanaqa auditoriyada bir hilda aniqlik bilan gapiradi. Bunda u nuqul bir xil faktlarni keltirib, bir xildagi kompozitsiyaga rioya qiladi. Ilgaridan o'ziga ma'lum bo'lgan auditoriyada, o'ziga tanish xonalarda so'zga chiqishni sevadi. Ishonch bilan vazmin, sokin intonatsiya bilan so'zlaydi, yo'talgan, pichirlayotgan, mashg'ulot vaqtida xonaga kirib - chiqayotgan kishilarga e'tibor bermaydi. Savollargashohilmasdan mufassal javoblar beradi. Ana shu savollarning barchasini avval yozib olishni, keyin esa bir yo'la javob qaytarishni afzal ko'radi. Auditoriya bilan kechroq aloqa qilsa -da, lekin bu aloqa mustahkam bo'ladi.

Mana, ikkinchi lektor. Ma'ruza oldidan hayajonlangan bezovta. Har doim ham, vazmin, ba'zan gapi noaniq bo'ladi. Hech qachon avvalgi ma'ruzani struktura va mazmun jihatdan o'zgartirmay, har safar unga yangiliklar qo'shib, o'zgartirib turadi. Xona tanlamaydi, tanish auditoriyalarda so'zga chiqishga intilmaydi, xatto bu sohada u yangilik tarafdori - bu bilan u bir mavzudagi ma'ruzani har xil shaklda o'qilishini, oqlamoqchi bo'ladi. Asabiylashib turadi, tinglovchilarning eng mayda xususiyatlariga ham e'tibor beradi va ularga moslashishga xarakat qiladi. Biror narsa xalal bersa masalan eshik ochilib -yopilganda ham

asabiylashib, jaxli chiqaveradi. Xulqida soʻzlash ohangida his - hayajon sezilib turadi. Mashgʻulotning birinchi minutlaridanoq tinglovchilar bilan aloqo oʻrnatib oladi. Savollarga darhol, deyarli oʻylab ham oʻtirmasdan javob qaytaradi. Gapni oxiriga etkazmay soʻrab ola qolaylik hoʻsh, ana shu ikki notikdan qaysi biri "yaxshi -yu", qaysi biri "yomon".SHu narsa maʼlumki, bu erda javoblar bir xil boʻlishi mumkin emas. Hamma narsa, konkret sharoitga auditoriyaga va mavzuga bogʻliq boʻladi.

Misol uchun, aytaylik, ijtimoiy: -siyosiy mavzudagi ommaviy maʼruza boʻladigan boʻlsa, bu ayniqsa, yoshlar uchun oʻqitiladigan boʻlsa, uni ikkinchi lektor oʻqigani maʼqul - chunki ukoʻproq "tashviqotchi", his -hayajonga bayroq diqqat - eʼtiborliroq, tez aloqaga kirishib keta oladiga yaʼni kirishimli kishi.

Korxonalar yoki muassasa mutaxassislari huzurida ilmiy - texnika mavzusida oʻqitiladigan maʼruzani esa, aksincha ikkinchi lektor yomonroq oʻqishi mumkin, bu erdagi maʼruzani birinchi lektor oʻqisa oʻrinli boʻladi. Oliy oʻquv yurtidagi oʻqituvchilarga, aftidan, Zirynchi tipdagi temperament muvofiq seladi. Ayniqsa, birinchi bosqichdagi majburiy ugaʼrualarga ana shu tipdagi temperament mos keladi.

Biroq, bular ham baribir juda shartli gaplar -negaki, talabalar bilan oʻtkaziladigan butun maʼruzalar kursida birorta maʼruza yaxshi chiqmay qolsa, bu unchalik sezilmaydi. Madaniyat muassasalaridayoki korxonalarda oʻqiladigan ommaviy maʼruzada, yo ommaviy tadbirda shunday boʻlsa, bu favqulotda xunuk hodisa boʻladi. Notiq yaigi sharoitga tezmoslasha oladigan boʻlsa, bu - yaxshi, lekin har bir maydanarsa uchun uning jahli chiqaversa va uni yangilishtiraversa, bu - yomon. SHuning uchun aslini olganda, lektorning temperamenti qandayligi unchalik muhim rol oʻynamaydi.

Oddiy qilib aytganda, turli oʻziga xos xususiyatlarga ega maʼruzachi -notiqlar boʻladi, xolos.

Endi xarakterni ruhiy xususiyatlar tizimida sifatida taʼriflanishini tushunib olishga harakat qilib koʻraylik. Olimlar fikricha, xarakter muayyan bir shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat vositalarida namoyon boʻladi, tipik vaziyatlarda ilgʻab olinadi hamda mana shu vaziyatga shaxsning munosabatlari bilan belgilanadi. Bu taʼrifni taxlil qilishga oʻrinib qoʻraylik.

Gap shundaki, odamning unday yoki bunday boʻlib qolishga hayot, faoliyat, mehnat sabab boʻladi. Temperament bir xil xususiyatlarga ega boʻlgan kishilar turli sharoitga tushib qolganlarida, oldilarida turgan turli vazifalarni bajarishida, oʻzlari bajarishi zarur boʻlgan turli faoliyat ularning xarakteridaturlicha iz qoldiradi. Masalan, ikki kishi bir xil keskin va masʼuliyat psixologik vaziyatga tushib koldi deylik. SHunday sharoitda birinchi kishi vahimagatushib qoladi, oyoq-qoʻli boʻshashib ketadi. Boshqasi bunday sharoitda oʻzini qoʻlga olib, ishga qattiq, kirishib ketadi va bajarish mumkin boʻlmaganday tuyulgn ishlarni bajaradi.

Leikin hamma ran shundaki, birinchi kishida nerv sistemasi kuchli tipining barcha elgilari boʻlish mumkin-u har holda uning temperamenti aktiv va plastik boʻlishi mumkin. Ikkinchi kishi esa, aksincha, qatʼiyat, jasorat va kuch -gʻayrat talab qilinadigan ishlarga psixofiziologik jihatdan mutlaqo noqobuldek tuyulgan edi. SHunga qaramasdan birinchi kishi oʻzida mavjud boʻlgan psixofiziologik imkoniyatlarini ishga solib harakat qiladi va gʻolib chiqadi.

SHunday qilibdaraker - bu temperamentning oʻz emas ekan. Odam u yokibu temperament egasi boʻlib qandaydir bir vaziyatda nimanidir bajaradi: u mana shu faoliyat koʻrsatish vaqtida va ayni shunday vaziyatda oʻz temperamentini qanday "ishga solgan boʻlsa", xuddi ana shuning oʻzi uning xakteri boʻladi. Xarakter strukturasi hamisha boshqa kishilarga munosabatni ifodalaydigan xususiyatlar boʻladi (baʼzi kishilar sahiy, ochiq koʻngil boʻladigan yoki aksincha boshqa bir xil kishilar jizzaki takabbur yoki kekkaygan boʻladigan). SHunday xususiyatlar ham borki, ular kishining oʻz -oʻziga munosabatini ifoda etadi, hamda kundalik hayotda manmanlik, shuhrat parsatlik, gʻurur kamtarlik va boshqa shunga oʻxshash soʻzlar orqali ularga taʼrif beriladi. Mutlaqo ravshanki, u yoki bu xususiyatlar bir -biriga bogʻliq boʻladi. Kamtar kishi manmanlik qilib kekkaymaydi, xaddan

tashqari o`z kuchiga ishongan, kekkaygan shahratparas, o`zi to`g`risida nihoyatda yuksak fikrda bo`lgan kishilar ko`pincha takabbur bo`lishadi va umuman, ularning boshqa kishilarga munosabatlari bir xil bo`lmaydi.

SHuning uchun kishi xarakter belgisining yrim tomonlarini alohida holda olib tarbiyalab «o`lmaydi. Harakter bir sistema yoki struktura lfavitida yaxlit holda tarbiyalanadi. Bundan ashqari yuqorida aytib o`tilgan belgilarning shg`indisi (boshqakishilarga munosabati hamda o`z -o`ziga munosabat) bilan birga yana kishining mexnatga)o`lgan munosabatiga aloqador belgilarni ham so`rsatish zarur (yalqovlik, mas`uliyatsizlik lehnatsevarlik, halollikichki intizom) hamda narsa – buyumlarga munosabatlar bilan bog`liq bo`lgan Zelgilar (tartiblilik - tartibsizlik, dalapartishlik). Ma`lumki, xarakter kususiylarining sistemasi shaxsning turli tipdagi munosabatlari negizidan kelib chiqadi. Ayni paytda, munosabatlarning biror tipi (aytaylik boshqa kishilarga munosabatlar) o`z navbatida faoliyatining juda xilma -xil turlarida joriy etilishi mumkin -ku. Muayyan shaxs, ma`lum bir kishining jamoa mehnat sharoitidagi xarakterini belgilovchi sifatlar ko`pincha uning boshqa sharoitdagi xarakteriga, masalan, shaxslar o`rtasidagi ayniqsa, intimmunosabatlari vaqtida namoyon bo`ladigan xususiyatlariga mos kelmaydi. Hamma sohalarda eng "yaxshi" odam - namunali ishlab chiqarish xodimi, faol jamoatchi vasadoqatli do`st bo`lgan kishi oilada "farishta" bo`lmay - qolishi mumkinki, buning natijasidahal qilib bo`lmaydigan qarama -qarshiliklar paydo bo`lib, u og`ir oqibatlariga olib kelishi mumkin va aksincha.

Umuman, xarakterning yaxlitligi turli kishilarda turlicha bo`ladi. SHuning uchun qo`pincha biz: "O`h -ho`, bu kishining xakteri boshqacha - ku!", "Uning xakteri kuchli" degan gaplarni aytamiz. Xo`sh, ana shu muxlaqoilmiy, psixologik bo`lmagan "kundalik"ibora tagida qanday ma`no yotadi? Ruhshunosolim V.S.Merlin yaxlit holdagi xakterning to`zilishiga oid to`rt xususiyatni ajratib ko`rsatadi: xakter xususiyatlarining teranlik darajasi; xakterning aktivligi yoki kuchi; xakterning barqarorligi yoki o`zgaruvchanlik darajasi; xakterning mayinlik darajasi.

Xususiyatlar teranligini ham yaxshisi yana bir misol orqali tushuntirib bera qolmaylik. Misol uchun izzat - nafs tushunchasini olib qo`raylik. Dunyoda mutlaqo izzat - nafi bo`lmagan kishilar topilmasa kerak, albatta. Misolga izzat -nafi bir xilda balaid bo`lgan ikki kishini ola qolaylik. Lekin ularning birida bu belgi markaziy o`rinda turadi, uning xakter me`yori bo`lib, barcha xatti -harakatlarini belgilab turadi. U hatto o`zidagi nihoyatda ijobiy bo`lgan fazilatlarini ham mana shu izzat - nafsiga bo`ysundiradi. O`zining izzat - nafsiga dog` tushirmaslik uchun u bemalol boshqa kishining izzat - nafsini haqorat qilishi va obro`sini to`kishi mumkin. Ikkinchi kishi uchun bu xususiyat xakterning muhim komponenti bo`lsa -da, lekin asosiy etakchi rol` o`ynamaydi: u faoliyat shart -sharoiti, muloqot xakteri bunga monelik qilmagan vaqtlardagina o` izzat - nafi bilan xisoblashadi. U (garchi `ngli ravishda bo`lsa ham) o`z -izzat nafsini bir ko`rsatib qo`yishi lozim, (yoki hatto zarur) deb hisoblangan vaqtlardagina bunga amal qiladi. O`z -o`zidan ravshanki, bu misollardagi farq asosan shaxsning o`ziga bog`liqbo`ladi.

Faollik yoki xakter kuchi "materiallar qarshiligi" deb ataladigan xususiyat bilan belgilanadi. Bu xildagi qiyinchiliklar oldida ba`zi odam chekinadi; boshqachi esa uni engib o`tadi. Ko`pchilik kishilar o`zlari uchun qulay vaziyatlarda sahiy bo`labiladilar, ba`zan juda sahiy bo`lib ketadi. Sahovatning bunday "mikdorlik" xakternstikasi bu erda xakterning faolikka sira ham bog`liq bo`lmaydi. CHunki o`sha hammani qoyl qoldirgan sahiy kishi sharoit o`zgarib sahiylik qilish qiyin bo`lib k,olganda ba`zan u o`zidagi ana shu sahiylyk fazilatini yo`qotib qo`yadi. Mana shuerda "kuchli sarakter" degan tushuncha paydo buladi. Kishi sahiy sh kuchli bo`lishi, takabbur va kuchsiz bo`lishi ham ugumkin.

Harakterning barqarorlik darajasi uning faolligiga bog`liqdir (bu erda barcha xususiyatlar bir -biri bilan o`zaro bog`liq ekanligi yaqqol ko`rinib guribdi). U o`zgaruvchan sharoitlarda o`z -o`zini kdncalik boshqara bilishi bilan, u o`zini qanchalik 'yo`qotib qo`yishi" yoki aksincha, o`ziga xos bo`lgan xakter belgilarining asosiy strukturasini saqlab krla olishi bilan belgilanadi. SHu erda yana konkret misol keltiramiz:

tartibli kishi deyarli hamma sohada ham ko`pincha tartib saqlaydi. Ba`zan tartib saqlash shart bo`lmaganiday tuyulgan joylarda ham bukishi batartib bo`ladi. U o`rmonzordagi ikkichik bir kulbada yolg`iz o`zi yashasa ham har kuni ertalib turib soqol olish mumkin.

Mayinlik darajasi barqarorlik darajasiga qarama -qarshibir ma`noda kelsada, leqin bularni mutlaqo bir xususiyatning ikki "qutbi"debo`lmayi.Buni o`zxarakterini o`zgaruvchan sharoitlarga moslay olish mahorati, deb atash mumkin. Agar barqarorlik darajasi xarakterini o`zgartirmaslik mahorati bo`lsa, mayinlik darajasi esa aksincha zarur bo`lib qolganda vaqtlarda uni o`zgartira olish mahoratidir. Bu-xarakterni shakllantirish va tarbiyalashning asossiy shartidir.

Xarakter xususiyatlari albatta temperamentga bog`liq bo`ladi -bu yana nerv sistemasining tipiga ham bog`liq bo`ladiki, lekin bu ikkalasi mutlaqo boshqa -boshqa tpunchalardir.Xuddi manashu joyda xarakterning teranligi,aktivligi vauning boshqa shu singari umum strukturasiga oid xususiyatlari namoyon bo`ladi."Kuchli kishy" nerv sistemasiiing klassiy shaxsiy tipiga ega bo`lishi mumkin.

Xarakter odam faoliyati davomida shu jumladan, aloqalar vaqtda shakllanadi. Xuddi shuning uchun ham" so`z orqali tarbiyalash", nashat go`ylik qilishning foydasi kam. endi tashviqotchi -targ`ibotchi notiqning individual o`ziga xos uslubi nima, degan savolga javob berishga o`rinib ko`ramiz. Tashviqotchining "individual uslubi bu psyaxologik vositalarning individual -o`ziga xos sistemasi bo`lib, odam o`zining indivvduallagini predmetlar bilan, faoliyatning tashqi shart -sharoitlari bilan yaxshiroq muvofiqlashtirish maqsadida ongli yoki onglanmagan ravishda bu vositalarga murojaat qiladi".

Boshqacha qilib aytganda, faoliyatning individual uslubi - bu odam shaxsining (yoki xarakter, temperament, nerv sistemasi tipining) o`ziga xos xususiyatlarini qanday qoplashi, ya`ni o`zishini ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish kerak degan so`zdir. Biz bu erda o`zimga qanday qo`lay bo`lsa, shunday qilaman, qabilidagi moslashuvlarni nazarda tutayotganimiz yo`q. Buerda ran odam qanday kilganda ko`proq ijtimoiy foyda keltirishi to`g`risida, faoliyatning mazkur turiga jamoatchilik qo`yatgai talablarga qanchalik mos kelishi to`g`risida borayotdir. Umuman, individual ish uslubi haqida ran ketganda uni muayyan bir faoliyat turidan muayyan munosabatlardan ajratib o`rganib bo`lmaydi, Ho`sh, amaliy jihatdan olganda bu qanday ma`no anglatadi? Agar lektori o`zining asosiy kasbi bo`yicha, aytaylik, injener - konsturkor bo`lsa, u holda uning "birinchi"professional faoliyatidgi ish uslubi bilan unyng lektorlik faoliyatidagi ish uslubi bir -biriga anchagina moskelmasligi mumkin (aniqrog`i -mos kelmaydi). CHunki, har ikki holda u o`z oldiga qo`ygan vaziflar har hil. Ularda foydalaniladigan vositalar ham har hil bo`lganligi uchun shupday hol yuz beradi.

Hatto, ma`ruza o`qish faoliyati doirasida ham u tashqi shart - sharoitlar va vazifalar juda xilma kil bo`lishi mumkin. Bularning har biri alohida ndash ishni va hatto ma`lum ma`noda faoliyatning ndividual uslubini o`zgartirishni taqozo etadi. TSulardan birinchisi talabalar orasida o`tkazilgan ma`ruza (muallif -oliy maktab pedagogi). Buerda uditoriyada kimlar bo`lishiga o`zbekistonlik alabalarini yoki chet ellik talabalar ekanligiga ;arab vaziyat keskin o`zgaradi. Ikkinchisi ham kasb -duallimlar oldida o`qilgan professional"" ma`ruza bu erda tinglovchilar kim ekanligi ahamiyatga ega Zo`ladi: toshkentlik yoki toshkentlik bo`lmaganlar, o`zbeklar yoki o`zbek bo`lmaganlar, o`zbekistonlik yoki tet ellik kishilar ekanligiga qarab vaziyat /zgaradi). Uchinchisi: o`z muassasangdagi jamoa oldida shniqsa, professional bo`lmagan mavzuda ma`ruza o`qish.

Leqin baribir vaziyatlar ko`p jihatdan bir mushtaraklikka ega bo`lib umuman tashviqotchilik ishi boshqa faoliyat turlaridan farq qilishini **ko`rsatadi**.

Tashviqotchi - notiqning tinglovchilar bilan aloqa-urnatish asosiy uslublari klassifikatsiyasi quyidagicha:

1. Notiq auditoriyani o`ziga bo`ysundirib, o`zi o`rgangan so`zla shodatiga muvofiq ongli ravishda faollik bilan tinglovchilarni uyushtiradi. Bu tip uchun o`z faoliyatini goksak

darajada anglash va "ratsional moyillik", ya'ni auditoriyaga qarab uslubni, nutq vazifalarini va boshqa shu tinglovchilarida ham, nutq uslubida ham "ortiqcha erkinlikka" yo'l qo'ymaydi. Butip sotsial psixologiyada ancha mashhur bo'lgan rahbarning "avtoritar" tipiga muvofiq keladi.

2. Ba'zi tashviqotchi - notiqning o'zi ma'lum ma'noda auditoriyaga bo'ysunadi. U minbarda turganda, tinglovchilar bilan aloqa o'rnatilganda va hatto nutq so'zlayotgan o'zida mavjo'd bo'lgan hatti -hatarakatlarning xilma -xil vaziyatlaridan keng foydalanadi hamda avvalo auditoriyaga bevosita ta'sir ko'rsatish uchun u yoki bu varanti ongli ravishda tanlab oladi. SHundan auditoriyaga "moslashishi" iborasi iaydo bo'lgan (yomon ma'noda emas!). U o'zini ancha erkin tutadi va "shaxsiy" odatlarini ishga soladi, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashixda nihoyatda mayinlik ko'rsatadi. Bu tip rahbarning "demokratik" tipiga muvofiq keladi.

Lektorning birinchi tipi vaqt o'tishi bilan o'sib borish tendentsiyasiga egadir (bunday vaqtlarda "o'zini tutib oldi" deyiladi). Ikkinchisi esa, aksincha tajribasi oshib borgan sari tobora dinamik tarzda ishlaydigan, ko'proq muloyimlik ko'rsatadigan bo'lab oradi. O'z muamalarini noziklashtirib, tobora ko'proq, differentsiyalashtirib boradi.

Mazkur tiplardan qaysi birini yaxshiroq deb hisoblash mumkin? Hech birinchi ham, deyish mumkin. Hamma ran shundaki, bu lektorning o'ziga bog'liq. Bu notiq faoliyati qanday shart - sharoitlarda kechadi, tashviqotchining o'zi qanday kishi, uning temperamenti, xaraqgeri, shaxsiyati qandayligi bog'liq.

Biz yuqorida sistemaning har hil tiplarini tavsiflashda qisman ta'kidlab o'tgayaimizdek, har bir tashviqotchi o'z individual uslubini topib olishi muhim bo'libgina qolmay, shu bilan birga u "o'z" mavzulari doirasini va o'z auditoriyasini, hatto "o'z" tashkiliy doiralarini ham topib olishi zarur. Tajribasidan qat'iy nazar, hamma tashviqotchilar ham bir hilda muvaffaqiyatli ma'ruza bilan chyqavermaydi.

Ikkinchi tomondan "o'zga" auditoriyalarda katta muvaffaqiyat bilan va nisbatan qiynalmasdan so'zga chiqadigan lektor ko'pincha "o'z" auditoriyasida qiynalib qoladi. Modomiki, bu erda uni yaxshi bilishadi. Bu erda reaksiya boshqa joylarga qaraganda tezroq bo'ladi hamda norasmiy aloqa boshlab yuborish ham osonroq bo'ladi. Xuddi shuningdek,. yuqorida aytilgan gaplar ma'ruzaning tematikasiga ham taalluqlidir, ikkii tipga mansub bo'lgan ma'ruzachi har doim o'zi ko'proq; "shahsiy" munosabatga kirisha oladigan, kompoziyatsiyalarda ko'proq variantlarni ishga sola adiga, faktlarni erkin tanlab oladigan stilistik "erkinlik" larga ko'proq yo'l qo'yadigan mavzularni tanlab olishga harakat qiladi.

YUqorida aytylganlardan shu narsa ravshanki, o'z individual uslubini shakillantirishni istagan yosh tashviqotchi -lektor tajribaliroq ham kasbiga taqlid qilmoqchi bo'lar ekan, bunda u faqat o'z tipidagi notiqga taqlid qilgan taqdirdagina buning nafi tegadi.

Endi biz yosh targ'ibotchi -tashviqotchilarga o'z uslubiga ega bo'lish masalasida yordam berishga urunib ko'ramiz. Buning uchun undan (uning o'zi uchun) ba'zi bir savollarga javob berishni so'raymiz va unga tegishli tavsiyalarni taklif qilamiz:

1. Auditoriya xarakteriga qarab har bir ma'ruzaga puxta tayyorgarlikko'rish uchun zaruriyat sezasizmiyo yo'qmi?(bu yerda-albatta mazkur mavzuda so'zga chiqish tajribangiz borligi nazarda tutiladi).

2. Ma'ruzao'qibbo'lgandankeyino'zingizniholma -hol sezasizmi yoki xuddi o'sha kuniishqobilyatngiznisaqlabqolganholdayanaso'zgachiqishingizmumkinmi?

3. Sizminbargachiqishdanoldino'zingiznibosibolishuchunzarur bo'lgandarajadahayajonlanasizmi?

4. Siz ma'ruzani hamisha ham bir xilda boshlaysizmi?

5. Siz so'zga chiqishga oldinroq yoki ma'ruza boshlaiishi arafasida kelasizmi?.

6. Tinglovchilarbilandastlabki aloqanio'rnatibolishvasizni diqqatbilan tinglashlariuchun etarlidarajada ko'proq (uch besh daqiqa) aqtgazarurat sezasizmi?

7. Tuzibolganrejangizgaqat'iyamalqilganholdagapirishgaxarakat qilasizmi? YOKi rejadan chekiiib, improvizatsiya qilishga moyilmisiz?

8. Soʻzgachiqib turganingizdaxarakatqilib, yurib turishni sevasizmi yoki minbarda qimiramay turib soʻzlashni afzal koʻrasizmi?

9. YOzma ravishda tushgan savollarga oʻsha zahoti javob berasizmi yoki ularni guruxlarga ajratib olasizmi?

10. Maʼruza davomida xazil - mutoyiba qila olasizmi va buhol tez -tez takrorlanib turadimi?

Agar siz mana shu sanab oʻtilgan* savollarga oʻzingiz uchun bir xilda aniq javoblar bersangiz, sizning individual uslubingizni ishlab chiqish uchun asosiy yoʻnalishini belgilab olish mumkin. Masalan, agar siz 1,4,5,6,7,9 savollarga "ha" deb javob bergan boʻlsangiz va 2,3,8,10 savollar "yoʻq" deb javob qaytargan boʻlsangiz, unda iz birinchi tipdagi uslubga mansub boʻlasiz (yoki javobingizga qarab, aksincha boʻladi)

Javoblaringizni differentsiyalash ham mumkin. Agarsiz 2,3,5 savollarga "yoʻq" deb javob bergan boʻlsangiz, sizning nerv sistemangiz kuchli tipga mansub deb aytish mumkin 1,4,6,7 savollar "yoʻq" deb javob berilishi nerv jarayonlarining xarakatchanligidan dalolat beradi. Har qanday holda, ham, basharti siz birinchi tipga yaqinlashib kelayotgan boʻlsangiz oʻzingizni ikkinchi tip modelida tutishga urinmang! Maʼruza iint mazmuyai, kompozitsiyasi tiliga taalluqli barcha ishlarni oldindan koʻrib va tayyorlab qoʻyishga xarakat qiling. Maʼruza vaqtida oʻqishingizga toʻgʻri kelmasa ham mumkin qadar kuprok; yozishga xarakat qiling. Materialni sizga ajratilgan !aqtga ' qanday taqsimlashni oʻylab koʻring. Sizning dlunligingiz oʻqiladigan maʼruzaning chuqur mazmunli, eng kichik detallargacha puxta tayyorlangan, gashviqot ruhida ekanligidadir.

Arap siz ikkinchi tipga yaqin boʻlsangiz biz ;izga albatta maʼruzaga kamroq tayyorlanishni tavsiya etmaymiz, lekin birinchi tipdagi lektor oʻzi uchun koʻzda tutgan koʻaingina narsalarni bu erda bajarishi shart emas. Biroq, biz soʻzga chiqish paytida "formada" boʻlish uchun butun choralarni koʻrib qoʻyishimiz kerak. Ikkinchi tipga mansub boʻlgan notiqalarda nutqning muvaffaqiyati koʻpincha organizmning umumiy holatiga bogʻliq. Siz minbarda turganda oʻz xatti -xarakatlaringizni xatto imo -ishoralargacha maksimal darajada nazorat qilib turishga xarakat qiling.

Ikkinchi tipdagi notiqalar koʻpincha oʻzlarini yoʻqotib qoʻyayotgandek minbarda "titrab" qoladilar. Auditoriyani boshqarishda oʻz yoʻlingizni tezroq topib olishga xarakat qiling. Agar siz bunday boshqarish vositalarini qidirishni boshidanoq oʻylamasangiz zarur boʻlgan vaqtda uni amalga oshirish qiyinroq boʻladi.

Xullas , bunday hollarda har bir kishi oʻz individual uslubini oʻzining temperamenti, xarakteri va dpaxsiyatidagi oʻziga xos xususiyatlarga qarab ishlab chiqmogʻi kerak.

Savol va topshiriqlar

- 1.Targʻibot – tashviqot ishida psixologiyaning oʻrni nimada?
- 2.Targʻibot – tashviqot ishida sotsiologik yondashuv deganda nimani tushunasiz?
- 3.Targʻibot – tashviqot ishida diqqat va uning turlari.
- 4.Xotira va uning turlari
- 5.Targʻibot – tashviqot ishiga pedagogic yondashuv deganda nimani tushunasiz?
- 6.Targʻibot – tashviqot ishining mantiqiy asoslari nima?
- 7.Targʻibot – tashviqot ishida qanday oʻrin tutadi?

9-Mavzu: Auditoriya targʻibot–tashviqot ishlarining obʻyekti sifatida.

Reja:

- 1.Madaniy-marifiy soha targʻibotchilari.
- 2.Real va potensial auditoriya.
- 3.Ommaviy auditoriya va u bilan ishlash.
- 4.Guruhli auditoriya.
- 5.Marifiy targʻibot auditoriyasini oʻrganish.

Tayanch soʻzlar:

Madaniy-marifiy soha targ`ibotchilari, Real va potensial auditoriya, Ommaviy auditoriya va u bilan ishlash, Guruhli auditoriya, Marifiy targ`ibot auditoriyasini o`rganish.

Targ`ibotchilar bular bilim beruvchi, tarbiyalovchi, marifat tarqatuvchi maorif va madaniy-marifiy sohada maxsus tayorgarlik va tajribaga ega bo`lgan kishilardir. Bilimlarni targ`ib qilish ularning asosiy yoki yetakchi kasbiy vazifalaridan birini tashkil etadi. Faqat madaniyat muassalari xodimlarigina emas balki turli o`quv yurtlarining o`qituvchilarini, muzey va sayohat-ekskursiya tashkilotlarining xodimlarini xam targ`ibotchilar safiga kiritish mumkin. Muassa, korxonalar, o`quv yurtlarining o`quvchilari targ`ibotchilarning ilg`or va eng tajribali otryatidir. SHuni xam alohida takidlash lozimki, madaniy-marifiy muassasalarining hech bir ziyolilarning yuqorida tilga olingan guruhga doimiy tayanmasdan turib, to`laqonli ish olib bora olmaydi. Kichik axoli shaxobchalarida madaniyat muassalari faoliyatiga deyarli xar bir oily malumotli mutahassisni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari madaniyat muassasalari bilim va xayotiy tajribaga ega bo`lgan va o`z ibratli ishlari bilan ko`pchilik namuna bo`la oladigan kishilarni shuningdek yuksak axloqiy fazilatlarini targ`ibotchi sifatida chiqishga keng jalb qilishadi. O`z ishinin bilimdonlari va ustalari odatdan tashqari kasb va <<qiziqarli>> tarjimai xolga ega bo`lganlar madaniy-marifiy soha taomilida ko`pincha <<ajoyib kishilar>> deb ataladi. Targ`ibot-tashviqot auditoriyasi turli tuman guruhlar tomonidan bildirilgan istaklarda muxim o`rin tutadi xamda doimo ular bilan uchrashuvlar ko`pchilikni qiziqtiradi. Barcha sanab o`tilgan toifadagilarni madaniyat muassasalarining targ`ibotchilik ishiga keng jalb etish marifiy-tarbiyaviy faoliyatining mazmunini nihoyatda boyidadi. Bunda gap maxsus bilimlarda xam emas (garchi masalan raxbar xodim ishlab chiqarish ilg`ori, sayohatchi noyob malumotlarga ega bo`lgan bo`lsa xam). SHaxsining o`zi targ`ibot predmet va bir vaqtning o`zida, tarbiyaviy omilga aylanadi. Maroqli axborotning manbai yuksak axloqiy qiyofaning namunasi va Vatanimizning mustaqiligi uchun etiqodli xamda yorqin tashviqotchi bo`lish mumkin bo`lgan barcha ajoyib kishilarni toppish ularni madaniy-marifiy faoliyatiga jalb qilish va mustaxkamlash xaqida doimo g`amxo`rlik qilish lozim

Ommaviy auditoriyasi va u bilan ishlash.

Mamlakatimiz axolisining faqat bir qismigina marifiy targ`ibot –tashviqotning real auditoriyasini tashkil etadi yani bular targ`ibot-tashviqot faoliyatiga sezilarli jalb etilgan ularni tasirida bo`lgan kishilarginadir. Axolining qolgan qismini potensial auditoriyani tashkil etadi. Ommaviy g`oyaviy tasir ko`rsatish doirasini kengaytirish xar tomonlama maorif va marifiy tarbiyaviy olib boorish xordiq chiqarishning guruxli va ommaviy shakillarini xar tomonlama rivojlantirish zaruriyati –bularning xammasi deyarli xar tomonlama rivojlantirish zaruriyati – bularning xammasi deyarli xar bir kishini madaniyat muassasalarida targ`ibot-tashviqot faoliyati tasiri bilan qamrab olish zaruriyatini talab qiladi. Marifiy targ`ibot-tashviqot ishlarining mazmuni va metodikasi ko`p qirraliligi bu vazifani real qilib qo`yadi. Qishloq va shaaharlardagi ko`plab madaniyat muassasalari o`z mikrorayonlarning deyarli barcha axolisiga o`z tasirlarini yonmoqdal Axolining turli guruxlarini marifiy targ`ibot-tashviqot tasiri bilan qamrab olish ancha xilmaldir. Qishloqning yuqori sinf o`quvchilariva malumoti o`rtadan past bo`lgan shaxarlik yoshlar bu rejada nisbatan ancha faoldirlar. Yoshi 30 dan oshganlar, ayniqsa oily malumotga ega bo`lganlar madaniyat muassasalarida juda kam bo`lishadi ularning anchagina qismi masalan ilmiy texnik ziyolilar umuman madaniyat maskanlariga kelishmaydi yoki boshqacha qilib ayganda marifiy targ`ibot tasirida emas. Targ`ibotchi –tashviqotchining vazifasi real auditoriyasini shakillantirishda <<talab>> va <<taklif>> ni muvofiqlashtirish uchun ikikta muxim qoidaga amal qilishdir; mavjud talablarga moslashish yoki auditoriyasining moslashuvni taminlash. Birinchi xolatda biz targ`ibot –tashviqot ishlarimizni tinglovchilarniig mavjud qiziqishlari va mayillariga moslashtiramiz ikkinchi xolda esa mikrorayonda yashovchilarning intilaish va istaklarini o`zimiz ishlab chiqqan tarbiyaviy tag`ibot-tashviqotni tashkil etish dasturlariga moslab shaklantiramiz. Odatda barcha xar ikkala yondashuvni qo`lashadi va bu to`g`ri. Biroq to`g`ri mutanosiblikka xamisha xam amal qilinavermaydi. Ko`pincha shaklangan va yorqin namoyon bo`lgan talablar va ehtiyojlarini qondirish tomonga og`ish kuzatiladi. Yani

bunda oson qoniqtirish mumkin bo'lgan talab va qiziqishlarini qoniqtirish ustunlik qiladi. Moslanuvni va moslashtiruvchi faoliyat o'rtasida eng yaxshi mustanosiblik o'rnatish targ'ibotchi-tashviqotchining professional maxoratining tarkibiy qismidir. Odamlarning o'zgarib turuvchi qiziqishlari, didlari mayinlarini doimiy ravishda o'rganish va xarakatlarga tanqidiy munisabatda bo'lish –axolining potensial tayyor qatlami ichdan real auditoriyani shakillantirishda muvaffaqiyat garovi xisoblanadi.

Ommaviy auditoriyani bilish ishlash

<Ommaviy auditoriya> so'zi bilan marifiy targ'ibot-tashviqot ishlarida bir vaqtning o'zida va bir xil funksiyada ishtirok etuvchi odamlarning katta bir guruxi tushinilmoqda. Ommaviy auditoriyaga mo'ljallangan ish shakillaridan keng foydalanish ish marifiy targ'ibot-tashviqot muvaffaqiyatini taminlashda katta axamiyatga egadir. Ayni paytda ommaviy ish madaniyyat muassasalarining olib boriladigan tashviqiy ishlarining tasir doirasini shunchalik qaytaribgina qolmay u insoning vaqti-vaqti bilan odamlarning keng doirasi bilan muomila qilish, odat tusiga kirgan turmush va ishlab chiqarish aloqalari doirasidan tashqari chiqishga muxim axamiyatga ega bo'lgan voqealarni birgalikda nishonlash va boshqa extiyojlarni qondirishga yordam beradi.

Ommaviy auditoriya –shakillantiruvchi tasirning ancha o'ziga xos obyektidir. Ularning xarakterli xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Ommaviy auditoriyani tarkibi doimiy emas. U tadbirdan tadbirga va xatto bir tadbirning o'zida xam o'zgarib turishi mumkin.

Tyb qiziqish va intilishlarning ancha mos kelishi sharoitida ommaviy auditoriya sezilarli darajada bir-biridan farq qiluvchi kishilardan iboratdir. Xatto nisbatan bir xil deb xisoblangan auditoriya (yuqori sinf o'quvchilari kechasi kasb bayramlari) xam didlari mayinlari qiziqishlari psixologok sifatleri turlicha bo'lgan kishilarni birlashtiradi.

Ko'plab boshqa kishilar bilan bevosita aloqa bo'lgan tinglovchilarda qabul qilish xarakteri o'zgaradi xis-tuyg'ulari faollashadi o'zaro tasir anlangan yoki anglanmagan taqlid qilish tez rivojlanadi.

Umuman<ommaviylik omoli> shakilliantiruvchi tasir kuchiga ega bo'lsa xam ayrim cheklashlarsiz deb xisoblamaslik kerak.

Jumladan ommaviy tadbirlar uchun ommaviy qiziqish tig'diradigan (yirik ichki va siyosiy viquealar maxalliy xayotning umum axamiyatli damlari bilan bog'liq). xilma-xil mavzular tanlaymiz.

Bir qator muamolar xam borki ularni ommaviy auditoriyada ko'tarib chiqish maqsadga muvofiq emas. Masalan oilaviy tarbiyaning bazi muammolari va xokazo.

Umuman olganda ommaviy auditoriyaning quydagi xarakterli xususiyatlarini sedan chiqarmaslik kerak.

A) Eng avvalo notiq auditoriyaning strukturasi xisobga olishi kerak. Auditoriyaning strukturasi deganda tinglovchi deganda tinglovchilar o'rtasidagi

Aloqa va o'zaro munosabatlar xarakteri ko'zda tutiladi. Agar madaniyat saroyi yoki markazga turli korhona tashkilotlardan kishilar yig'ilgan bo'lsa ular o'rtasida rasmiy va norasmiy munosabatlar tarkib topgan bo'ladi. Masalan ishchi boshliq xodim va xokazo. Bu munosabatlar (ular O'rtasida) uchrashuvning maruza yoki boshqa biron tadbirning qanday o'tishiga malum daraja tasir ko'rsatmasdan qolmaydi. Bazan shunaqasi ham bo'ladiki bir kishining lekin ancha obro'li kishining bildirgan fikri jamoda nutqqa bo'lgan umumiy munosabatni belgilab xam beradi.

B) Endi aditoriyalarning bir xillik darajasini aniqlash ustida so'z yuritimiz. Bunda tinglovchilarning yoshi jinsi kasbi ular orasidagi xotin-qizlar bilan erkaklarning yoshlarining balog'atga yetgan va qari kishilarning o'rtasida farqni xisobga olish tushiniladi. BU guruhlardan har birining o'ziga xos qiziqishlari extiyojlari bo'ladi tinglanilayotgani yoki tomosha qilinayotgan material-axborotga munosabati xam bir xil bo'lmaydi. Masalan ko'pchilik Xotin-qizlardan iborat bo'lgan bo'lsa auditoriya tarbiya axloq insoniy munosabatlar kabi masalalarga ayniqsa moyin bo'lsa erkaklar (ko'pchiligi) auditoriyasi esa social ijtimoiy davlat munosabatlariga siyosatga sportga professional talimga katta qiziqish bilan qaraydi.

Tabiyki ana shundan kelib chiqib missolar illyustirasiyalar tanlash vaqtida buni xisobga olmasdan bo`lmaydi.

B) Auditoriya tarkibining kasb kori (profsoonal)Jihatdan bir xil bo`lish targ`ibot-tashviqot ishida ancha qulaylik tug`diradi.CHunki bunday bir xillik birion piredmet xaqida butun auditiriyada mavjud bo`lgan umumiy tushunchaga tayanish yani mazkur ixtisosdagi kishilarga mo`ljalangan misollarni keltirish imkonini beradi bu xol nutqni ancha tushinarliroq tasirchanroq qiladi.

C) Agar targ`ibotni –tashviqotni markaz xodimiga tinglovchilar oldida so`zga chiqish kerak bo`lsa u tinglovchilarning miqdoriga xech

Maxal befarq qaramaslik kerak.CHunki bir necha yuz kishilik auditoriya bilan bir necha kishilik auditoriya o`rtasidagi juda katta bo`ladi.Bu ikki xil auditotiyada bir –xil usulda gapirib bo`lmaydi.Negaki so`zlovchining to`plagan miqdoriga bog`liq bo`ladi.U yuz kishi qatnashayotgan auditoriyaga o`ziga erkin tiradi.Xar bir kishiga murojat qilish imkoniga ega bo`ladi.Katta auditoriya bazi kishilarni rohatlantirib yuborsa boshqa kishilarning malum darajada cheklab qo`yadi.Tinglovchilar bilan yutqni joylashuv tartibi ham etibor berishni talab qiladi.

G)Auditiriyaning yana bir muhim xususiyatlaridan biri tayorgarligi darajasidir-bu bir tayorgarlik darajasi malumoti va professional jihatdan xabardorligi bilan belgilanadi.Auditoriyaning tayorlashgani bilan uning maruza doklad axborotni bilish moyilligi intilishi o`zaro bog`liqdir.Bu yerda inson extiyojlari birinchi o`rida turadi.Agar auditoriyada axborotlarni bilish bilib olish istagi bo`lsa o`ziga kerakli materiyalashtirib olishga tayyor turadi va aktivlik ko`rsatadi.Notiq foydalangan ilmiy tushunchalar tizimi g`oyat aniq bo`lishi kerak.shuning uchun xam tinglovchilarning manaviy dunyosiga olib o`tadigan ko`prik rolini bajara oladi.So`ngra tashviqotchi mutaxasis sifatida o`ziga oddiy xaqiqiy bo`lib ko`ringan ko`pgina qoidalarni auditoriyaning katta bir qismiga izoxlab berish talab etilishini cisobga olish kerak bo`ladi.Aksincha lector izoxlab bermaganligi sababli uning nutq tinglovchilarga tushinarli bo`lishi mumkin.

D) Auditoriya yana shunday xususiyatlarni xam borki u faqat targ`ibotchi – tashviqotchilarning qisqasi tashkilotchi –notiqning tasiri bilan qaror topadi.Birinchidan nutqqa qiziqish so`ngra auditoriyaning uni tanlashga qanday kirishganligi va nihoyat tinglovchilarning manaviy extiyojlari qay darajada qondirilayotganligi yoki qondirilamayotgani ko`p jihatdan notiqqa bog`liq bo`ladi.Masalan maruza doklad, suxbat, muozara, baxs-xullas, og`zaki nutqning mazmunini tinglovchilarning extiyojlariga mos bo`lib tushsagina u qatnashayotganlarning diqqatini tortuvchi omil bo`lib xizmat qiladi,agar nutq bunga javob bermasa tinglovchilar fikri boshqa biror narsaga chalg`iydi.

Guruhli auditoriya.Guruhli auditoriyaning ommaviy auditoriyadan tub farqi uning sonidadir.Ammo u yagona va ko`pincha asosiy belgi emas guruhli va ommaviy auditoriya o`rtasidagi aniq miqdoriy chegara qo`yish ancha qiyin.Bu odamlar kimlar va ular nima uchun to`planishgan (yoki nima uchun ularni to`pladik ular nimani qanday qilib amalga oshiradilar)singari savvolarga javob berish ommaviy va guruhli auditoriyani farqlanishida asosiy rolni o`ynaydi.Jumladan 25 tinglovchi uchun o`qilgan maruza bu targ`ibot- tashviqotning ommaviy ish shaklidir va bu o`rinda 25 kishi ommaviy auditoriyani tashkil etadi.Aytaylik shunga o`xshash maruzada mana shu sondagi _tarkibida o`tkaziladigan suxbat endi ishining guruxli shakli xisoblanadi.Bunday xolda bir gurux auditoriya bilan ish olib boramiz.

SHunday qilib guruxli va ommaviy auditoriyalar o`rtasidagi farq qiluvchi belgilar uning sifat tarkibi faoliyat xarakteri va ichki o`zaro tasiridadir.bu belgilar guruxga yoki ommaga pedagogik g`oyaviy tasir ko`rsatishining mazmuni va shakli bilan o`zaro aloqada bo`ladi.Guruxli auditoriya o`zining tarkibi bir xillik darajasi bilan anchagina farqlanadi.

Buning ustiga <<umuman>> bir xilligi bilan emas balki ushbu o`rinda qilinadigan vazifaga tadbiquan farq qiladi.shu munosabat bilan yoki talim darajasining keskin bir xilligi mavjud bo`ladi.Marifiy targ`ibot –tashviqot ishida esa qiziqishining umumiyiligi –aniqlik turli-tuman qiziqishlar ustunlik qiladi.SHu munosabat bilan yoki talim darajasining keskin bir xilligi mavjud

bo`ladi. Marifiy targ`ibot-tashviqot ishida esa qiziqishning umumiyliigi-aniqlik, turli-tuman ustunlik qiladi.

Ommaviy auditoriyada to`g`ridan to`g`ri aloqalar bevosita o`rab olga muxit uning ruxiy tasiri bilan cheklangandir, O`zaro tasirining boshqa turlari odatda maqbul emas. Masalan qo`shnilar o`rtasidagi <<stixiyalik kichik munozaralar>> befar fikir almashunuvlari suxbatning borishinig buzishi mumkin. Targ`ibotchining ommaviy auditoriya bilan aloqasi yaxlit xarakterga egadir. Ayrim ishtirokchining tadbirining borishiga tasir ko`rsatishi bu kamdan kam xolat. Guruxli auditoriya esa ko`p qirrali xisoblanib u o`zaro tasirida bo`ladi. Agar u shunday bo`lmasa ishini guruxli shaklida qo`lashning muxim asoslari barxam topadi agar ommaviy auditoriya ruxiy xolatlarning namayon bo`lishi uchun qulay imkoniyatlar yaratilsa soni va bir xilligi jixatidan kichik bo`lgan gurux birinchi navbatda faaolikni rag`batlantiradi.

Ixcham va bir xil auditoriya bir xil auditoriya bir kishining ikkinchi kishi bilan o`zaro aloqa qilishga imkoniyat beradi. Tajribali tashviqotchi va targ`ibotchilar bunday aloqalarni ongli ravishda tig`diradilar va rag`batlantiradilar (o`zaro savollr, <<Kichik munozaralar va u kabi>>). To`g`ri rasmiylashtirilgan auditoriya o`z bilimlari qobilyatlariga bo`lgan ishonchsizlik faollashishi uchun nixoyatda muximdir.

Shu sababli targ`ibot-tashviqotning guruxli tadbirkorlarning borishi va mazmuni ko`p jihatdan ishtirok etuvchilarning istaklari ularning savollari qarshiliklari takliflari bo`yicha aniqlanadi. bazi ishining guruhli shakli jarayoniqatnashuvchilarning avvalo malum bo`lmagan talablari xozirgina vujudga kelgan yani qiziqishlarining namayon bo`lishi birgalikda xosil qilingan xulosalar tasiri ostida keskin o`zgaradi.

Targibot –tashviqot ishida tinglovchilarning talab va extiyojlarini o`rnatish

Madaniyat0marifiy muassalarning muyaxassis xodimlari o`z auditoriyasini doimiy ravishda kundalik faoliyat bilan bir

Yo`nalishda o`rganadi. Bunda tinglovchilar yoki tomoshabinlarni yaqindan bilish ular xaqida malumotlar to`plash takrorlanmas faktlar beradi lekin buning xavfli tomonlari xam bor. Unchalik ko`p bo`lmagan odamlar xaqidagi mayda tasavurlar xamma xaqidagi bilimlarni ifoda eta olmasligi nazardan qolmdirmaslik kerak. SHu sababli auditoriyani o`rnatish bo`yicha maxsus tadbirlar.

Xozircha ayrim madaniyat muassasasining marifiy tashviqot tajribasida nisbatan dasturlar bo`yicha tezkorlik bo`yicha tekshirib olish boorish ustunlik qiladi. Masalan oylik repertuar ixaqidagi istaklar va kvartal rejalarga takliflar tao`planadi: ommaviy tadbir ishtirokchilarinig talab va istaklar o`rganadi. Bu malumotlardan qayta ishlashdan so`ng rejalashtirishda o`z faoliyatlarini axoli tomonidan berilganbsxolar asosida darxol tuzatib chiqishda foydalaniladi.

Xatto ayrim madaniyat muassasining marifiy tashviqot faoliyatini rejalashtirish uchun axolini asasli ravishda va xar tomonlama o`rganish kerak bo`ladi, Targ`ibot-tashviqot ishi sharoitlarining favqulotda xilma –xilligi, axolining turli guruhlarga alaqaadorligi auditoriyani xamma joyda malakali va doimiy ravishda o`rganishni olib boorish majburuyatini yuklaydi. Ana shu guruxlar to`g`risida olingan mlumotlarni o`rgansak va malakali qiyoslasak ,natijalar bo`lajak farzandlar uchun yaxshi asos bo`ladi. CHunki o`zi xoxlab tadbirlarga keluvchularni tekshirish bilan qanoatlanib qolishdan saqlanish kerak. Aynan butun auditoriyani o`rganish zarurdir. Bunung ustiga potensial auditoriyani ko`p jihatdan katta qiziqish tug`diradigan bo`lsa.

Endi o`rganish kerak bo`lgan ko`rsatkichlarni sanab o`tamiz.

1. Anglangan talablar, takliflar.

2. Marifiy tashviqot, ishiga obyektiv extiyoj qatnashuv sabablari.

3. Tadbirga kelish, qatnashish tezligi (muddati)

4. Asosiy xulosalarga kelishni ko`zda tutadigan auditoriyani tadqiq qilish bu vaqt xajmi tuzulishi umuman bu vaqtdan foydalanish xarakteridagi o`zgarishlar mayli singari dalillarni o`rganishni chetlab o`tolmaydi.

Marifiy targ`ibot auditoriyasi manbai xaqida malumotlar yetarlicha ko`p qirralidir. Bu axoli statistikasini rasmiy malumotlarni; turli adabiyotlar (bo`sh vaqt muammolari bo`yicha tadqiqot) dan olingan faktlar markaz xisob –kitob (axolining marifiy tashviqot tadbirlarida

amaliy ishtirok xaqidagi malumotlar), madaniyat xodimlarining korferensiyalari va kengashlari malumotlari va boshqalar. Biroq eng qimmatli malumotlar sasiologik tadqiqot metodlari orqali olinadi. Bular quyidagilar; (og`zaki, yozma-anketa, sirtli-telefon orqali, mabuot orqali, pochta orqali), anketa usuli (ochiq, yarim ochiq, yopiq, savolli,) intervyu eksprement (lot-tajriba o`tkazish namuna olish) va xokazolar.

Ulardan anketa usuli keng tarqalgan bo`lib (fransuzcha –tadqit etish o`rganish usuli keng degan manolarda qo`laniladi). Ommaviy faktlar (voqea-xodisala) kelib chiqish sabablarini aniqlash mazkur faktlarning turli qirralari umumiy tendensiyalarini jamoatchilik fikrining bu xodisalariga nisbatan munosabati massalarini o`rganadi. Odatda anketa deganda muayyan mavzu tevaragidagi savollar to`plami tushunilib bu savollarga tadqit etiluvchi kishilar guruhi javob berishi tug`uladi.

Umuman olganda anketa (qo`lma-qo`l tarqatish asosidagi pochta va matbuot orqali) ixcham, keraksiz savollarga xoli chuqur mazmunli va tushunarli jumalardan iborat bo`lish yaxshi. Savollarning umumiy soni tadqiqot ko`lamiga bog`liq bo`ladi. Anketaning sifati, mazmundorligi sosiologiyaning prodssional va intellectual darajasiga aloqadordir.

Anketa savollariga turlicha usullarda tuziladi; Misol; markazingiz faoliyatini umuman baxolash zarur bo`lsa siz uni qanday xarakterlagan bo`lar edingiz.

-juda yaxshi.

-yaxshi

-o`rtacha.

-yomon.

-juda yomon.

-fikrim yo`q.

Madaniyat uyida o`tkaziladigan baxs-munozara tadbirlarida faol ishtirok sabablari nama?

-tadbir tashkilotchisiga bo`lgan hurmatim sababli.

-baxs mazmuning dolzarbligi sababli.

-etiborli kishilar ishtirok etishi sababli.

-bo`sh vaqtim bo`lganligi sababli.

-umuman baxs va munozaralarga yoqtirganim sababli va xokazolar.

Xullas, marifiy targ`ibotchilar bugungi kunda madaniyat muassasalariga keluvchilarning qiziqishi, talab va istaklarini o`rganmasdan, umumlashtirib taxlil qilmasdan, ijtimoiy qimmatga bo`lgan xulosalarga kelmasdan o`z faoliyatlarini samarali va muvaffaqiyatli tashkil eta olmaydilar.

Savol va topshiriqlar

1. Targ`ibot – tashviqot ishida psixologiyaning o`rni nimada?

2. Targ`ibot – tashviqot ishida sotsiologik yondashuv deganda nimani tushunasiz?

3. Madaniy-marifiy soha targ`ibotchilari qanday faoliyat olib borishadi?

4. Ommaviy auditoriya va u bilan qanday ishlash mumkin?

10-Mavzu: Targ`ibot-tashviqot ishlarida OAVlarining tutgan o`rni

Reja:

1. Ommaviy axborot vositalari tushunchasi

2. Targ`ibot-tashviqotning mazmunini va ta`sirchan bo`lishini ta`minlashda OAVlarning tutgan o`rni

Tayanch iboralar

Targ`ibot – tashviqot ishida OAVning o`rni, Ommaviy axborot vositalari, Targ`ibot-tashviqotning mazmunini va ta`sirchan bo`lishini ta`minlashda OAVlarning tutgan o`rni

Ommaviy axborot vositalari (qisqartmasi: OAV) keng ommaga [axborot](#) yetkazuvchi vositalardir. [O`zbekiston Respublikasi](#) qonunchiligida davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo`lgan hamda bosma tarzda ([gazeta](#), [jurnal](#), [axborotnoma](#), [bulleten](#) va boshqalar) va/yoki elektron tarzda ([tele-](#), [radio-](#), [video-](#), kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi

telekommunikatsiya tarmoqlaridagi [veb-saytlar](#)) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV, deb ko'rsatilgan.

Gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir. Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilovalar nashr etishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqcadga muvofiq keladi:

- qeng qamrovlilik, bunda jamiyatning barcha a'zolariga g'oyalar xilma-xilligi asosida axborotni yetkazish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi.

- uzluksuzluk - targ'ibotning makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi.

- ketma-ketlik - har bir bosqich uchun taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qiladigan qadriyatlarni singdirish maqsadida tashviqot rejalashtiriladi;

- bosqichma-bosqichlik – ma'lumotni targ'ib qilishning ruhiy jihatlar bilan bog'liq bo'lib, ham targ'ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan o'tishini taqozo qiladi.

- me'yoriyluk - aksiltarg'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishiga olib keladigan balandparvoz, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qoymaydi;

- shaxsii ibrat – axborotni targ'ib qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o'quvchilarga millat manfaatlari, orzu umidlari, intilishlari to'g'risida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o'zi hayotda shu manfaatlarga zid ishlarni qilsa, bu targ'ibotning samarasi nolga teng bo'ladi.

- ilgor targ'ibot-tashvuqot texnologiyalarudan foydalanish - bunda g'oyaviy targ'ibotga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Mazkur targ'ibot tamoyillari inson ongi va qalbiga ta'sir etishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xil bulib, turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi xususiyatlari hisobga olinadi. Targ'ibot olib borishda sanab utilgan tamoyillarning muayyan auditoriya xususiyatlariga mosligini ta'minlash targ'ibot samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

Targ'ibot davomida insonning hislariga, qalbiga murojaat qilish katta samara beradi, albatta. Lekin ishonchli dalillar, e'tiroz uyg'otmaydigan hayotiy ma'lumotlarning keltirilishi bu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishdan hammamiz manfaatdor ekanligimiz haqidagi fikrni uyg'otadi.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga qo'yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadida 2019 yil 1 oktyabrdan e'tiboran bolalar adabiyotlari, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan

mahsulotlar chop etishga ixtisoslashgan nashriyotlar nashirlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun davlat boji to'lashdan ozod qilindi. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish; Davlat organlari va tashkilotlarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni haqida axborot berish va yoritish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; davlat organlari va tashkilotlarining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish; axborot siyosati sohasida zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) bilan samarali amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish; ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma'lumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini ta'minlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish; muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish; axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'ida tegishli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil qilish; davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, ma'lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash; davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati to'g'risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini o'rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular to'g'risida davlat organlari va tashkilotlari rahbariyatiga axborot berib borish;

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida vakolatli vazirliklar va idoralar orqali O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (bosma mahsulotlar, foto-, audio-, videomateriallar va h.k.) bilan ta'minlash; davlat organlari va tashkilotlarining vakolatiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari hamda ularning tasdiqlangan matnlarini belgilangan tartibda o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirish;

Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatiga aloqador matnli, foto-audio- va videomateriallardan iborat ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish. Ana shu xizmatlar tomonidan ijtimoiy jarayonlar haqida ishonchli axborot berish maqsadida matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etilmoqda, hayotimizdagi muammo va hodisalarga tezkor munosabat bildirilmoqda, ularning veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil messenjerlardagi sahifalari yangilab borilmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda katta auditoriyaga ega bo'lgan qariyb 290 ta xususiy va idoraviy Internet nashrlari tashkil etildi. Ular boshqa materiallar qatorida eng muhim rasmiy axborotlar, normativ-huquqiy hujjatlarni o'zbek, rus va ingliz tillarida tarqatmoqda.

Eng asosiysi, ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarish va yangilanish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilib, joylardagi ijtimoiy muammolar, xato va kamchiliklarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratayotganini alohida qayd etish lozim.

Albatta, bugun biz hamma sohada, jumladan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida ham izlanishdamiz. Binobarin, bu yo'lda yutuqlar bilan birga, kamchilik va nuqsonlar bo'lishi ham tabiiydir.

Bu haqda gapirganda, milliy media maydonimizda zamonning o'tkir talab va mezonlari, eng muhim tendensiyalarini ochib berish, tanqidiy tahlil, odamlar kutayotgan mavzu va

muammolarni dadillik bilan o'rtaga tashlash hali ham yetakchi o'rin egallamayotganini aytishga to'g'ri keladi. Afsuski, aksariyat axborot vositalarida ijtimoiy salmog'i yengil bo'lgan, hisobot va balandparvoqlik ruhidagi materiallar hanuz ustunlik qilmoqda.

Yana bir muhim masala – ayrim jurnalist va blogerlarimizda bilim va professional malaka, bahs madaniyati yetishmasligi jamoatchilikni tashvishlantirmoqda.

Bu boradagi eng asosiy vazifa – ana shunday kamchiliklarni chuqur o'rganib, ularni bartaraf etish, mavjud miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga aylantirish, ommaviy axborot vositalarining samaradorligini oshirishdan iborat.

Biz bugun huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, jurnalistikaning butun dunyoda e'tirof etilgan, o'zgarmas talab va mezonlariga amal qilishimiz zarur. Bu mezonlarning eng asosiysi – xolislik va haqqoniylikdir. Binobarin, matbuot maydoniga kirgan inson – u jurnalist bo'ladimi, bloger bo'ladimi, bundan qat'i nazar – ana shu qoidalarga amal qilishi shart.

Biz bo'lg'usi jurnalistlarimiz chuqur bilim va kasb mahoratini, ona tilimiz bilan birga chet tillarni, faol fuqarolik pozitsiyasini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, notiqlik malakasini puxta egallashlariga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Savol va topshiriqlar

1. Targ'ibot – tashviqot ishida OAVning o'rni nimada?
2. Ommaviy axborot vositalari deganda nimani tushunasiz?
3. Madaniy-marifiy soha targ'ibotchilari qanday faoliyat olib borishadi?
4. Ommaviy auditoriya va u bilan qanday ishlash mumkin?

Mavzu: Targ'ibot-tashviqot ishlarining sotsiologik asoslari va tahlili

Reja:

1. Tadqiqot dasturining nazariy asoslari.
2. Sotsiologik tadqiqot usullari.
3. Eksperiment usuli.
4. Intervyu. Test usuli.
5. Xujjatlarni o'rganish usuli.
6. Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil qilish.

Tayanch tushunchalar

So'rov, anketa, [kuzatish](#), statika, intervyu, fundamental, panel, standart, respondent, klinik, eksperiment, tajriba, sotsiometriya, miqdor

1. Ijtimoiy - ma'naviy, iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi, jamiyat hayotining turli jabxalariga zamonaviy texnik vositalar va yangi texnologik jarayonlarning singib borishi, yangi istiqbol mafkurasi oliy maktab tizimidagi ta'lim - tarbiya ishlari darajasining oshib borishiga sabab bo'lmoqda. «Bozor munosabatiga o'tish davrida, -ijtimoiy soha-sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan ayniqsa mushkul ahvolda qolmoqda. Hozirgi murakkab davrda bu tarmoqlarni qat'iy qo'llab quvvatlash, shu sohalarida ishlayotgan kishilar mehnatini munosib baholash uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishi zarur.

Sotsiologik dastur bo'lajak tadqiqot materiallarini to'plash, qayta ishlash va ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Dastur tadqiq etiluvchi ijtimoiy [muammo mohiyatini aniqlash](#), tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash, maqsad va vazifalarini xarakterlab berish, ish farazi (ilmiy taxmin)ni belgilash, usullarini aniqlash, ma'lumotlarni to'plash va taxlil etish sxemasini chizib olish kabi qismlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shunday qilib, dastur, asosan ikki katta bo'lim, ya'ni metodologik-nazariy va amaliy-uslubiy bo'limlardan iborat.

1. Nazariy-metodologik bo'lim mavzu tanlash, tadqiqot ob'ektini xarakterlash, maqsad va vazifalar faraz hamda predmetni aniqlash kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

2. Nazariy-uslubiy esa, ma'lumotlarni to'plash usullarini bayon etish, yig'ilgan materiallarni qayta ishlash, taxlil qilish va tavsiyalar tayyorlash singari amaliy faoliyatlarini mujassamlashtiradi.

Tadqiqot dasturida quyidagilar bo'lishi lozim:

1. Tadqiqot o'tkazishdan maqsad.

Tadqiqot natijalari asosida oliy maktab ma'muriyati, tegishli vazirliklar va keng jamoatchilikka kasb mahorati sirlarini egallash uchun zarur hisoblanuvchi omillarga bag'ishlangan amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqish.

2. Tadqiqot ob'ekti.

Oliy o'quv yurtlaridagi o'quv - tarbiyaviy jarayon hisoblanib, [bu sohadagi umumiy ahvol](#), muammolar, istiqbol mo'ljallari tuliq o'rganib chiqiladi. (boshqa sohalarga ham xuddi shunday).

3. Tadqiqot predmeti.

Kasb maxoratini shakllantirish jarayonida tashkiliy-pedagogik, ijtimoiy-ruxiy omillarning o'rni va ta'siri masalalaridan iboratdir.

4. Asosiy tushunchalarning mantiqiy tahlili.

Tadqiqot maqsadiga, mavzu ob'ekti va predmeti talablariga muvofiq, ilmiy izlanishning analitik xususiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, «umumiy rivojlanish», «kasbiy rivojlanish», «kasbiy mahorat» kabi tushunchalarni tahlil etish, ularning mazmunan o'ziga xosligini aniqlab chiqish.

5. Tadqiqot gepotezasi (farazi).

Asosiy ilmiy taxmin.

6. Tadqiqot vazifalari.

Sotsiologik tadqiqotlarda ilmiy maqsad muhim ahamiyat kasb etib, tadqiqotlarning nazariy yoki amaliy yo'nalishlarda bo'lishini ko'rsatuvchi mo'ljal vazifasini o'taydi. Maqsadni amalga oshirish jarayonida bir qator ijtimoiy ziddiyatli holatlarga duch kelish mumkin.

Dekart, «Agar siz qandaydir o'ylanmagan, kutilmagan, xayolingizga keltirmagan narsani topishni o'ylamaydigan bo'lsangiz, siz bu narsani hech qachon topa olmaysiz degan edi. Dasturda ilmiy izlanishga sabab bo'lgan ijtimoiy ziddiyatli muammolar va ularning asosiy tushuncha, atamaları atroflicha izohlab beriladi.

Dasturda kompleks sotsiologik tadqiqot natijalarini qo'lga kiritish, o'rganilayotgan ob'ekt va predmet xususiyatlarini aniqlash maqsadlarida sotsiologik tadqiqotlar instrumentarisiga alohida to'xtalib o'tishimiz lozimdir. Instrumentariy deganda biz -sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish uchun zarur bulgan metodik va texnik usullar yig'indisini e'tiborga olamiz. Har qanday tadqiqot biron bir muammoni qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat xayotida o'zining ilmiy echimini kutayotgan muammo bo'lishi mumkin.

Sosilogik tadqiqotlarning sifat darajasini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozimdir:

1. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil etish.(yuqorida qayd etganimizdek, buyurtma va ob'ektning mavjudligi).

2. Amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayoni.

3. Empirik ma'lumotlarni sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish.

4..Olingan ma'lumotlarni taxlil qilish umumlashirish. (Biz bunga sal keyinroq to'xtalib utamiz). Har qanday tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga, tadqiqotning asosiy maqsad [va vazifalarini aniqlash](#); ishchi farazni ishlab chiqish, dasturni ishlab chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi.

Tadqiqot dasturi ichki tuzilish jarayoni quyidagicha bo'ladi:

1. Nazariy metodologik qism.

a). Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash.

b). Ob'ekt va predmetini belgilash.

s). Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.

d). Predmetning dastlabki taxmini.

- e). Ishchi farazni ishlab chiqish.
- II. Amaliy sotsiologik tadqiqot ish jarayoni.
 - a). Tadqiqotning umumiy rejasi.
 - b). Asosiy amaliy ish jarayonlari.
 - s). Tanlov ishlari.
 - d). Dastlabki olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.
 - e). Natijalarni umumlashtirish.

Yuqoridagi tushunchalar mazmunining atroflicha ochib berilishi dastur farazini tuzish uchun keng yo'l ochilishiga imkon yaratadi.

Ilmiy faraz-ob'ektning tuzilishi haqidagi nazariy asoslangan ilmiy taxmin bo'lib, mazkur ob'ektning tashkil etuvchi turli xil elementlar va aloqalar xarakteri, ularning faoliyati yuritishi va taraqqiyotini o'zida ifodalaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi bozor iqtisodi sharoitida tadqiqotlar mufassal ishlab chiqilgan dasturlariga ega bo'lishi zarur.

2. Sotsiologik tadqiqot usullari.

Oldingi ma'ruzalarimizdan bizga ma'lumki, sotsiologiyada so'rov, intervyu, kuzatish, eksperiment, xujjatlarni o'rganish, test, statistik, kabi tadqiqot usullari mavjud. Biz endi bu usullarga batafsil va kengroq to'xtalib o'tamiz. **So'rash usuli sotsiologiyada keng yoyilgan tadqiqot shakli hisoblanadi.** Bu usulda guruh yoki ayrim kishilarga savollar bilan murojaat qilib, dastlabki, birlamchi ma'lumotlar to'plab olinadi. So'rash usulining yozma (anketa) va og'zaki turlari mavjud. Bundan tashqari statsionar va sirtqi (telefon orqali, matbuot orqali), ommaviy va ekspertlar uchun, saylanma va yalpi (referendumlar ham shunga kiradi) shakllarda namoyon bo'ladi. So'rash usullarining bugungi kunda keng tarqalganligi, aloxida e'tibor va obro'ga ekanligi ko'pgina sabablarga bog'liqdir. So'rash usullari orqali shunday ma'lumotlarga ega bo'lishi [mumkinki](#), bunday ma'lumotlarni hamisha xam hujjatli manbalardan olish mumkin emas. Lekin shunga qaramay 1930 yillar boshlarida bu usul Sobiq Ittifoqda inqirozga yuz tutdi. Genetika singari fanlar qatorida sotsiologik so'rovlar ham man etilgan edi. O'tkazilganda ham yuzaki ravishda o'tkazilar edi. Anketa usuli va uni qo'llanilishi. **Anketa so'zi fransuzcha atama bo'lib, tadqiq etish, o'rganish, so'rash degan ma'nolarda qo'llaniladi.** Anketa usuli ommaviy faktlar (voqea-hodisalar) kelib chiqish sabablarini aniqlash, mazkur faktlarning turli qirralari, umumiy tendensiyalarini, jamoatchilik fikrining bu hodisalariga nisbatan munosabati masalalarini o'rganadi. Odatda, anketa deganda, muayyan mavzu tevaragidagi savollar to'plami tushunilib, bu savollarga tadqiq etiluvchi kishilar guruhi javob berishi nazarda tutiladi.

Anketa o'tkazishdan maqsad sotsiologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan dastlabki, aksariyat hollarda muayyan mo'ljal olinuvchi ma'lumotlar to'plashdan iboratdir. Anketa ba'zi xususiyatlariga ko'ra intervyu janriga yaqin turadi, ammo beriladigan savollar alohida olingan respondentga emas, balki ko'pgina kishilar guruhiga qaratilgan bo'ladi. Ayni vaqtda tuzilgan savollar og'zaki tarzda emas, balki yozma shaklda beriladi. Anketa jamoatchilik fikrini atroflicha o'rganish omili sifatida sotsiologik tadqiqot usullari orasida alohida o'rin tutadi. Anketa ayni vaqtda shunday janrki, bu usulni qo'llagan tadqiqotchi odatda so'roq qog'ozlari yoki anketani respondentlarga tarqatgandan boshlab tadqiqot ma'lumotlarini to'plash jarayoni ustidan nazorat qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Anketa so'rovi shaklining [asosiy komponentlari sotsiolog](#), respondent va anketadan iboratdir.

Anketa savollari respondent tomonidan to'ldiriladi. Shu boisdan ham anketa bilan ishlash usulida savollar respondent uchun juda ravshan va aniq bo'lishi zarur. Yuqorida qayd etganimizdek, anketa bir necha qismdan iborat bo'lib, tadqiq etilayotgan ilmiy-ijtimoiy muammo uchun zarur bo'lgan, tegishli ma'lumotni olishga imkon beruvchi turli-tuman, ammo mantiqiy-yakuniy savollar majmuasidan iboratdir.

Shu o'rinda yana bir karra qayd etish lozimki, anketa shunchaki tuzilmaydi, balki muayyan tadqiqot natijalariga erishish vositasi sifatidagina tuziladi va amalga oshiriladi.

Demak, anketa vosita, muayyan maqsadga erishish omilidir. Anketaning kirish qismida sotsiolog tadqiqot o'tkazayotgan ilmiy tashkilot yoki tadqiqot guruhi manzilgoxi, tadbirkotning nomi va

maqsadi, anketani tuzuvchining ismi- sharifi, ilmiy unvoni va darajasi, anketa tuzilgan vaqt va respondentga berilgan savollarga qay tarzda javob qilish usuli va nihoyat, to'ldirilgan anketani kimga va qaerga topshirish yo'llari qisqa va lo'nda bayon etiladi. Bu muqaddimaning ahamiyati shundan iboratki, respondentdan kirish qismidan dastlabki ma'lumotlarni oladi va tayyorgarlik ruhiga ega bo'ladi.

3. Eksperiment.

Sotsiologiyada eksperiment usuli ham qo'llaniladi. Aslida eksperimentlar tabiiy fanlarda keng qo'llaniladi, lekin sotsiologiyada uni qo'llash doirasi cheklangan. Laboratoriya sharoitida faqatgina kichik [guruhni joylashtirish mumkin](#), lekin ular ham o'z ustilaridan tajriba o'tkazilayotganligidan xabardor bo'ladilar va o'zlarini odatdagidan farqliroq umuman eksperimentni sun'iy yaratilgan sharoitda bir yoki bir necha o'zgaruvchan miqdorning boshqalariga ta'sirini o'rganish deb ta'riflashimiz mumkin.

Filipp Zimbardo o'tkazgan ajoyib tadqiqot bunga misol bo'la oladi. U o'ziga xos «qamoqxona» tashkil etib, unda maxbuslar va qo'riqchilar rolini talabalar o'ynagan. Uning maqsadi turli rollarni ijro etish talabalar xulq-atvorini qay darajada o'zgartirishini aniqlash edi, olingan natijalar tadqiqotchilarni hayratga solgan. «Qo'riqchilar» tez orada avtoritar muomila tarzini o'zlashtirib olib, mahbuslarga nisbatan haqiqiy dushmanlarga munosabatda bo'la boshladilar. Ularning sheriklarida esa aksincha, haqiqiy qamoqxona maxbuslarida kuzatiladigan apatiya va isyonkorlik belgilari paydo bo'la boshlagan. Bu xolat shunday keskin bo'lganki, eksperimentlarni boshidan to'xtatishga to'g'ri kelgan. Tadqiqotchi qamoqxonalarda xulq-atvorni u yerdagilarning shaxsiy xislatlarini emas, muhitning o'zi belgilaydi, degan xulosaga kelgan.

Bu tadqiqot natijasidan shunday xulosaga kelib chiqadiki, eksperiment tadqiqotning shunday metodini, uning jarayonida biz shunday sharoitni yaratamiz yoki bo'lmasa izlab topamizki, u yordamida o'zimizni qiziqtiradigan hodisalar aloqasi namoyon bo'ladi.

Eksperiment o'tkazish uchun avvalo ob'ekt tanlanadi, so'ngra esa, eksperiment qilinadigan guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni eksperimental holat vujudga keltiriladi. Eksperimentning asosiy maqsadi avvalo, - bu farazni isbotlash yoki inkor etishdir. Hozirda turli sohalarida olib borilayotgan sotsial eksperimentlarning asosi ham yuqoridagilarga uzviy bog'liqdir.

4. Intervyu.

Biz yuqorida so'rov (anketa) usuli haqida batafsil to'xtalib o'tgan edik. So'rov va intervyu metodlari o'rtasida deyarli farq yo'k. Chunki respondent (so'raluvchi) ga berilgan savolnoma bo'yicha tadqiqotchi undan intervyu oladi. Anketa bo'yicha olingan intervyuni ba'zan «formallashtirilgani» yoki «nazorat qilinadi» deb atashadi. Ba'zi intervyular umuman anketasiz o'tkaziladi: odamdan ancha uzoq vaqt mobaynida intervyu olinadi va chuqurroq ma'lumot olish talab qilinganida kam sonli so'raluvchilar so'rov qilinadi. Chuqurlashtirilgan intervyular odatda so'rovlarga qaraganda batafsilroq ma'lumot beradi, lekin bu [usullarning kamchiligi shuki](#), intervyu oluvchi ta'sir o'tkazishi va natijada ma'lumotlar o'zgarib ketishi mumkin; bundan tashqari, javobni taqqoslab taxlil qilish qiyinroq bo'ladi.

5. Hujjatlarni o'rganish.

Hujjatli tadqiqot – ish mobaynida bosma va qo'lyozma materiallardan samarali va sistemali tarzda foydalanish ko'pincha e'tibordan chetda qolib ketadi. Hujjatli tadqiqot – sotsiologik tadqiqot yig'ishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir.

1. Hujjatli tadqiqotlarda arxiv materiallari, davlat xo'jjatlari, davlat xo'jjatlari, xatlar, sud bayonnomalari kiritish mumkin. Tadqiqotda foydalanilayotgan hujjatlar qatoriga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha avval o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari, xulosalarini ham kiritish mumkin. Hukumatlar tomonidan keltiriladigan ma'lumotlar juda keng ko'lamli bo'lib, bir necha manbaalarni o'z ichiga oladi. Masalan, muntazam ravishda, ma'lum vaqt oralig'i bilan, aholini ro'yxatga olish olib boriladi. Bu esa ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha batafsil ma'lumotlar beradi. Bunday so'rovdagi savollarga javob berish majburiy bo'lgani uchun, olingan materiallar ancha to'liq va batafsil bo'ladi. Bulardan tashqari statistik hujjatlar,

guvohnomalar, protokollar, hisobga olish ma'lumotlari ham mavjud. Shaxsiy hujjatlarga: avtobiografiya, xotiranomalar, xatlar kiradi. Hujjatlarni o'rganishning avtobiografik metodini F.Znanetskiy ishlab chiqqan. Sotsiolog hujjatlarni batafsil ko'rib chiqib o'rganadi. Shuning uchun hujjatlar sotsiolog va tarixchi mutaxassislariga qimmatbaho material hisoblanadi.

Hujjatlarni o'rganish metodini o'tkazish, texnikai quyidagicha bo'ladi:

1. Belgilarni, tushunchalarni aniqlash va analiz qilish.
2. Bu ko'rsatkichlarni tekst bilan o'zaro nisbatini aniqlash.
3. Ko'rsatkichlar uyicha miqdoriy analiz qilish.

Kontekst (nutq yoki asarning tugallangan parchasi) ni sharxlab xulosalash.

Xujjatli manbalar ishonchligini turlicha bo'ladi va ulardan foydalanayotgan tadqiqotchi ularning haqiqiyiligini to'g'ri baholay bilishi zarur. Chunki, gazeta, jurnal, maqolalarida, ma'lumotlar ko'pincha ishonchsiz manbalardan olingan bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sotsiologiyadagi tadqiqot usullariga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

1. Anketalashtirish (yozma shakldagi so'rov).
2. Intervyu (suhbatlashish, og'zaki so'rov).
3. Sosiometriya – (guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish).
4. Test – (maxsus [qayta ishlangan vositalar](#), rasmlar, savollar yordamida shaxsiy sifat va qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan so'rov).
5. Ekspert – (mutaxassislarga tegishli bo'lgan so'rov).
6. Panel – (guruxlarning belgisiga ko'ra bir-birini taqqoslash va farqlash).
7. Yaxlit – (jamoatchilik fikrini, aholini ro'yxatga olishni o'rganish).
8. Pilotaj – (informasiya olish).

Ushbu sotsiologik so'rovlarning barchasi maxsus o'z xususiyatlariga ega. O'rganilayotgan muammoni ular xususiyatlaridan kelib chikib, hal kiladi.

6. Tadqiqotlarni tahlil etish va umumlashtirish.

O'tkazilgan har bir sotsiologik tadqiqot tahlil etilib, umumlashtiriladi. So'rov natijalarini qayta ishlash va statistik taxlil qilish qulay, ammo bu usulga qarshi kishilarning aytishlaricha, qayta ishlagan natijalar to'g'ridek tuyuladi, lekin bu javoblarning aksariyati o'ta yuzakilikni hisobga olganda, natijalar aniqligi shubxa o'yyotadi. Bundan tashqari, javob berishdan bosh tortirish holari ko'p uchraydi, ayniqsa, anketalar pochta orqali yuborilganda. So'rov o'tkazish sharoitlari va natijalarini izohlashda qo'llaniladigan til ko'pincha javob berayotgan real tirik shaxslardan juda uzoqdir. Savollar pochta orqali yuborilganda so'raluvchi kishini tasavvur xam etish mushkul.

Umuman olganda, tadqiqotchilar va respondentlar o'rtasida aloqa qanchalik to'g'ri va bevosita bo'lsa, xulosalar shunchalik informativ va asosli bo'ladi. So'rov natijalari imkon qadar chuqurlashtirilgan materiallar bilan to'ldirilishi kerak.

Yig'ilgan material tahlil qilinib, tadqiqotga to'rtki bo'lgan muammoga muvofiqashtirilishi kerak. Olingan ma'lumotni qayta ishlash va tadqiqot mavzusiga moslashtirish oson kechmaydi. Hatto, barcha savollarga aniq javob olish imkoniyati bo'lganda xam ko'plab tadqiqotlar to'g'allanmay qolib ketadi. Tadqiqot natijalari tahlil qilingandan sung, hisobot tayyorlanishi shart. Odatda jurnal maqolasi yoki kitob shaklida chop etiladigan hisobot tadqiqot tabiatining izohi va qilingan xulosalarni asoslashdan iborat bo'ladi. Bu oxirgi bosqich hisoblanadi. Ko'plab hisobotlardan javobsiz qolgan savollar kelib chiqadi va qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish talab etiladi. Har qanday indivudial tadqiqot faoliyati ijtimoiy hamjamiyat doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqot jarayonining bir qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasida tadqiqot bilan bog'liq muammolarni o'rganishda vujudga keladigan eng muhim muammolardan biri – sabab va oqibatlar taxlilidir. Ikki xodisa yoki xolatning sababli bog'lanishi – bu shunday bog'lanishki, unda bir hodisa yoki xolat boshqa birini keltirib chiqaradi. Misol uchun tog' yon bag'rida turgan avtomobilning qo'l tormozi qo'yib yuborilishi ko'rsatilgan oqibatni keltirib chiqaradi. Xuddi tabiiy fanlar kabi, sotsiologiya ham barcha

hodisalar o'z [sabablariga ega](#), degan taxmindan kelib chiqadi. Sotsiologik tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sabab va oqibatlarni aniklashdan iborat.

Ma'lumotlarni taxlil qilish bu farazni tekshirish, olingan bilimlarni o'rnini aniqlash, axborotni ishlab chiqish, EHM ga taxlil uchun beriluvchi ma'lumotlarni tayyorlash.

Informasiyalarni ishlab chiqish, guruhlash. Sotsiologiyada taxlil uchun matematik metodlarni o'zni xam ahamiyatlidir. Bu matematik metodni qo'llashdagi asosiy muammo matematik apparatni tuzib chiqishdir. Matematik usullar sotsiologik tadqiqotlarda quyidagi vazifalarni hal etadi:

1. Taxlil.
2. Tanlash.
3. Modellashtirish.
4. O'lchash.

Hulosa qiladigan bo'lsak, sotsiologik tadqiqotlarda matematikani qo'llanishining muxim jixati – sotsial hodisalarni modellashtirishdir.

Har qanday so'rovda so'rovni boshlashdan oldin quyidagi omillarni hisobga olish va baholash kerak:

- Javob olishingiz kerak bo'lgan asosiy savol (yoki savollar) - so'rovning maqsadi;
- Natijalarga erishish uchun sarflanadigan xarajatlar;
- So'rovnoma o'tkazish texnikasi va shakli;
- O'qish davomiyligi;
- Qabul qilingan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligi;
- Qabul qilingan axborotni qayta ishlash usullari;
- Natijalarni taqdim etish shakli.

Bu yo'riqnomada yuqorida ko'rsatilgan omillarni amalda bajarishga yordam beradigan usullar ko'rib chiqiladi. Ular monitoring tadqiqot vositalarini ishlab chiqishni uslubiy ta'minlashni sifat jihatdan takomillashtirishga qaratilgan.

Anketa (Inglizcha so'rov; nemis Befragung) - so'rovnoma tuzish va so'rov o'tkazishdan iborat birlamchi ma'lumotlarni olish usuli; u ijtimoiy fanlarda, aholini ro'yxatga olishda, jamoatchilik fikrini o'rganishda ishlatiladi. Anketa **sotsiologik so'rov usulining asosiy turlaridan biri**, bunda kerakli ma'lumot manbai bo'lgan tadqiqotchi va respondent o'rtasidagi muloqot so'rovnoma orqali amalga oshiriladi. Anketa usuli yordamida eng kam xarajat bilan yuqori darajadagi ommaviy tadqiqotlarni olish mumkin. Ushbu usulning o'ziga xos xususiyati deb atash mumkin **anonimlik**(respondentning shaxsi yozilmaydi, faqat uning javoblari yoziladi). So'rov, asosan, ba'zi masalalarda odamlarning fikrini bilish va qisqa vaqt ichida ko'pchilikka etkazish zarur bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

Anketalar turlari.

Respondentlar soni bo'yicha:

- **Individual** anketa so'rovi (bitta respondent);
- **Guruh** anketa so'rovi (bir nechta respondentlar). Guruh anketasining uslubiy va tashkiliy turi - **sinf so'rovi** Tanlov protsedurasi qoidalariga muvofiq bir xonada to'plangan bir guruh odamlar tomonidan bir vaqtning o'zida so'rovnomalarni to'ldirishdan iborat;
- **Katta** so'roq qilish (yuzdan minglab respondentlarga).

Qoplamaning to'liqligi bo'yicha:

Qattiq(namunaning barcha vakillari o'rtasida so'rov); **Tanlangan**(namunaning bir qismini so'roq qilish).

Respondent bilan aloqa turi bo'yicha:

To'liq stavka(geodeziya ishtirokida); **Yozishmalar**(savol beruvchi yo'q):

Pochta orqali so'rovnomalarni yuborish; Matbuotda anketalarni chop etish; Internetda anketalarni chop etish; Anketalarni yashash joyida, ishda va boshqalarda etkazib berish va yig'ish.

So'rov o'tkazilish bosqichlari.

1 -qadam. So'rovning maqsadini aniqlash.

- 2 -**qadam.** Maqsadli auditoriyani tanlash.
- 3 -**qadam.** Anketani tuzish.
- 4 -**qadam.** Anketani sinovdan o'tkazish.
- 5 -**qadam.** Anketani o'tkazish va so'rovnomanini qayta tekshirish.

Anketalarni tuzish- tadqiqotning asosiy gipotezalarini savollar tiliga tarjima qilish jarayoni murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayondir. So'rovnoma suhbatdoshga haqiqat va mazmunli mazmunli ma'lumot olishini ta'minlashi kerak. Ilmiy qimmatli anketani tuzish - qoida tariqasida **jamoaviy ish.**

Ishlab chiqarish kerak:

- Maqsadlarni belgilash;
- Savollar va farazlarni tahlil qilish;
- Savol va javob variantlarini shakllantirish;
- Namunani ishlab chiqish;
- So'roq qilish usulini tanlash.

Anketa odatda quyidagilardan iborat:

- **kirish qismi** so'rovnomaning maqsadini tushuntiruvchi respondentga murojaat, to'ldirish qoidalari ko'rsatmasi, olingan ma'lumotlardan foydalanuvchining manzili;
- Qoida tariqasida, so'rovnoma deb nomlangan so'z bilan boshlanadi. **pasportlar** bu erda respondentdan o'zi haqida ba'zi ma'lumotlarni (masalan, jinsi, yoshi, ta'lim darajasi, ish joyi, yashash joyi, oilaviy ahvoli, bolalar soni va boshqalar) taqdim etish so'raladi;

Rivojlanishning birinchi bosqichi- so'rovnomaning mazmunini aniqlash.

Bu respondent hayotining faktlari (uning bilimi, fuqarolik holati, o'tmishdagi va hozirgi harakatlari va boshqalar) yoki uning motivlari, baholari, munosabatlari haqidagi savollar to'plami bo'lishi mumkin. Agar fikrning intensivligini bilish zarur bo'lsa, unda tegishli reyting shkalasi savolning matniga kiritilgan.

Anketani ishlab chiqishning ikkinchi bosqichi- kerakli turdagi savollarni tanlash.

Savollar bo'lishi mumkin:

1. Shakli bo'yicha:

Ochiq- javob beruvchining xohishiga ko'ra, ham mazmunan, ham shaklda javob berishga ruxsat berish (o'zboshimchalik bilan javob taklif qilish). Bunday savollarda aniq javob berish istagi yo'q. Bunday holda, ma'lumot to'liqroq olinadi (va bu ularning ortiqcha) va ishlov berish va talqin qilish qiyin, noaniq, bu esa turli mavzularning javoblarini solishtirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, bunday so'rovnomalarni to'ldirish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Bundan tashqari, ular noaniq talqin qilinishi mumkin. Shuning uchun, ularni so'roq qilishda, ular kamroq ishlatiladi.

Yopiq- tayyor javob variantlarini bering, odatda faqat "ha" yoki "yo'q" javob beradi. Javob beruvchining fikriga eng mos keladigan variantni tanlagan respondent uni savollar ro'yxatiga belgi bilan belgilaydi. Agar belgilangan javob variantlari soni ikkita bo'lsa, bunday savol chaqiriladi ikkilamchi Tanlangan savollarning yana bir turi - bu javoblar shkalasi... Masalan, savol tug'iladi: siz jambonni qanchalik tez -tez sotib olasiz? Javob variantlari:

- Hech qachon
- Vaqti -vaqti bilan

Yopiq savollarning shubhasiz afzalligi-bu javoblarning bir xilligi va ma'lumotlarni qayta ishlashning nisbiy qulayligi, kamchiligi esa-aniqroq talqin, taxminiy javob va kerakli javobning yo'qligi.

Yarim yopiq savollar- tayyor javob variantlari bilan bir qatorda, sizning javob variantingizni quyidagi formulada taqdim etish imkoniyatini o'z ichiga oladi: Agar sizga javob varianti bo'lmasa, o'z variantingizni ayting.

2. Funktsiya bo'yicha savollar bo'lishi mumkin:

Asosiy

· Aqlli

Boshqaruv

Tushuntirish va boshqalar.

Savol turi javobning to'liqligi va to'g'riligiga ta'sir qilishi mumkin.

Savollarni shakllantirishga qo'yiladigan talablar:

- Ular o'rganilayotgan toifadagi odamlar uchun tushunarli bo'lishi kerak;
- Lakonik;
- Tushunishdagi noaniqlikni bartaraf etish;
- Asabiylashtirmang, kamsitmang;
- Yaxshi va aniq bosilgan.

Anketalarni tuzishda eng ko'p uchraydigan xatolar:

- 1) javobni oldindan belgilash;
- 2) super tafsilotlar;
- 3) savollarning noaniqligi;
- 4) savollarning o'ziga xos kuchi etarli emas.

So'rovnomani tayyorlashning oxirgi bosqichi berilgan savollarning soni va tartibini aniqlash bilan bog'liq. Har xil turdagi anketalar uchun savollar ketma -ketligi boshqacha.

1. "Ochko'zlik sindromi" ga qarshi turish va undan voz kechish mumkin bo'lgan keraksiz savollarni ko'tarmaslik kerak. Shu bilan birga, muammoning haddan tashqari soddalashtirilishi, cheklangan miqdordagi savollarning shakllanishi olingan natijalarni kerakli yo'nalishda talqin qilish imkonini beradi.
2. Anketa uzoq va zerikarli bo'lmasligi kerak (20-25 savoldan oshmasligi kerak).
3. Ochiq savollar sonini cheklash kerak (o'z javobingizni yozmoqchi bo'lgan joyda). Tushuntirish oddiy - har kimning vaqti kam, shuning uchun ham javob mantiqiy bo'ladi, lekin ma'nosiz bo'ladi (masalan: "Nega aynan shu ijodiy uyushmani tanladingiz?" - "Kerakli"), yoki umuman javob bo'lmaydi. .
4. Suhbatdosh savollarni shunchaki o'qishi va tegishli javob variantlarini aylantirishi kerak. Bu vaqtni tejaydi va ko'p savollarga javob beradi. Javob variantlarini sanab o'tayotganda, barcha mumkin bo'lganlarini sanab ko'ring, lekin ma'nosizlardan qoching.
5. Anketaning izchilligi qoidalariga rioya qilish zarurligini ta'kidlash kerak. Bu ilmiy maqsadlarda nafaqat individual masalalar, balki barcha savollarni o'zaro ta'sirli tuzilmalar va ularga berilgan javoblarning o'zaro ta'sir elementlari sifatida tushunish paytida topiladigan ma'lumotlardan foydalanish uchun zarurdir.
6. So'rovni boshlashdan oldin, to'ldirilgan so'rovnomaning kichik testini o'tkazing, yaxshisi hamkasblaringizga emas. O'nta to'ldirilgan so'rovnoma etarli bo'ladi va siz anketadagi bir nechta aniq kamchiliklarni tuzatishingiz mumkin bo'ladi.

SAVOL FORMULASIYASI TEXNOLOGIYASI:

1. Savollar turini aniqlang: "ochiq", "yarim yopiq" yoki "yopiq";
2. Savolga javob berish uchun aniq formatlarni taklif qilish;
3. Har bir savol qanday maqsadni ko'zlayotganini aniqlang;
4. Savolni tuzishda maksimal aniqlikka erishish;
5. Taklif etilayotgan javoblar to'plami hatto qisman bir -biriga to'g'ri kelmasligi kerak;
6. Tadqiqot muhitining hozirgi tilidan foydalaning;
7. Giyohvandlikni ko'rsatadigan so'z va iboralarni ishlatmang;
8. Ikki ma'noli savollardan qoching;
9. Aniq javob variantlarini taklif qilish;
10. Savollar haqiqiy bo'lishi va javobi bo'lishi kerak.

Mavzu: Targ`ibotchi-tashviqotchining kasbiy va tashkilotchilik mahorati.

Reja:

1. Kasbiy-pedagogik madaniyat turlari.
2. Targ`ibotchi-tashviqotchining pedagogik texnikasi.

3. Jamoatchilik fikri - tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli

Kasbiy-pedagogik madaniyat turlari: axloqiy, texnologik, didaktik, psixologik va boshqalar. O'qituvchi-pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda O'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'im berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g'oyasi - milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy ezigulikka undaydigan olijanob g'oya sifatida ulug'langan. Mazkur g'oyani yosh avlod ongiga singdirishda o'qituvchi kadrlarning ruh beqiyos. Bu esa ulardan avvallo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo'lishni, bilimi, mahorati, ilmiy nazariyva amaliy salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Biz iqtisodiy o'nnglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nnglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni istayotgan davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim - tarbiyasi bilanshug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini taqozo qilmoqda.

Targ'ibotchi-tashviqotchining pedagogik texnikasi- nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari-bu avvalo, Targ'ibotchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasi va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirgi javoblik psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir. O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lil o'rganiladi: Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (miraika, pantomimika);
 - ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyolini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
 - mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
 - nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish. nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'lay olishi.
- Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:
- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
 - ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
 - ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
 - o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

Targ'ibotchining kompetentlik va kreativlik ko'nikmalari ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Kompetentlik-ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi bilim va tajribalarga asoslangan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va

ko'nikma [tushunchalaridan kengroq](#), chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondoshuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari 1970-yillarning boshlarida paydo bo'ldi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi talabalarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi, talab etiladigan masalalarni hal etish bilan bog'liq. 1965 yil, Massachusets universitetining tilshunos olimi N.Xomskiy tomonidan kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim taklif etilgan.

1996 yilda Evropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda "kompetensiya" tushunchasi "uquv", "qobiliyat", "mahorat" singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. 1999 yilda Evropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuv e'tirof etildi. O'qituvchining kompetentligi-bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni o'z faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasining, ishining ustasi bo'lish, sohasining siru-asrorlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir.²⁰

Pedagoglar kreativ ko'nikmalar, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, turli xil vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni tahlil etish, o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik o'qituvchining ta'limda o'quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida boyitishini ta'minlaydi. O'qituvchining o'z-o'zini takomillashtirish kompetentligi ma'naviy, motivatsion, intellectual va amaliy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o'z-o'zini boshqara olishga qaratilgan. U shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlariga ko'ra faoliyat usullarini egallaydi, bu unga o'zida zamonaviy o'qituvchiga xos bo'lgan shaxsiy va kasbiy [sifatlarini rivojlantirish](#), tafakkurini, madaniyati va xulqini shakllantirishga yordam beradi.

Kreativlikning mohiyati-intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. O'qituvchining kreativligi-pedagogik jarayonga ijodiy yondoshuviga aytiladi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatini bildiradi. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya)

Kreativlik zamonaviy pedagoglar uchun zamon bilan hamnafas borishini ta'minlab beradi. Chunki, kreativlik ish olib borish degani pedagog o'z faoliyatiga har tomonlama yondashish, ya'ni ijodiy-innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. pedagogning kreativ tafakkurida taraqqiyot takomili, o'sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo'tadil saqlanishining instrumenti, uning ongli quroli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda pedagogik jarayonning eng muhim funksiyalarini amalga oshiradi.

Aqlning peshqadamligi-belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasining o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyati. Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida to'g'ri deb o'ylangan shablon yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob

bera olmay qolganligini anglash, yangi yoʻnalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, oʻz faoliyatini yangidan qura olish va masala yechiminining yangi yoʻnalishlariga oʻzini safarbar eta olishdir.

Oʻqituvchi faoliyatida shaxsiy sifatlar bilan birga oʻz sohasining ustasi boʻlish, pedagogic koʻnikma va qobiliyatlar ham muhim ahamiyatga ega. Uning bu koʻnikmalariga: bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik kiradi.

Pedagogik mahoratni egallash va rivojlantirishda (malaka oshirish, takomillashtirishda) oʻqituvchi oʻzi bilgan va oʻrgangan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalami shakllantirib boradi. Demak oʻqituvchi kasbiy mahoratini oshirishga intiladi. Uning chegarasi bormi? Bizga maʼlumki. boʻlajak oʻqituvchining pedagogik mahorati aslida pedagogika oliy taʼlim muassasalarida rasmiy ravishda egallanadi va bunga tajriba] [ustozlar](#), olimlar jalb etiladi. Soʻngra oʻquv -tarbiyaviy faoliyat bilaj shugʻullanish huquqini beruvchi hujjat bilan taʼminlanadi. Shu bilan birga, baʼzan yosh oʻqituvchining tajribasi va malakasi yetarli emasligi ham tan olinadi. Demak, oʻqituvchining kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish uchun, awalo uning malakasini oshirishga sabab boʻladigar pedagogik mahoratini shakllantiradigan zamonaviy manbalarni, omillari, vosita va metodlarni izlab topish zarur. Ushbu yondashuv oʻqituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirish muammolarini hal etishda muallim ahamiyat kasb etadi. Taʼkidlash joizki, har bir oʻqituvchi koʻnikma va malakalarni oshirish bilan birga, oʻz kasbiga sadoqatli boʻlishi, uni sevishi hamda uzluksiz takomillashtirib borishi shart. Bunda belgilangan maqsad sari intilish, albatta pedagogik mahoratning eng yuksak choʻqqilarini egalashga ishonch - oʻqituvchi uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon ilmiy pedagogik tadqiqotlar tahliliga koʻra, oʻqituvchining kasbiy mahoratini oshirish muammolarini hal etish quyidagicha talqin etiladi:

- oʻquv - tarbiyaviy jarayonni eng qulay uslublarini topish va jori etish,
- oʻz mehnatini muntazam ilmiy asosda tashkil yeta olish;
- oʻqituvchi pedagogik qobiliyatini va pedagogik madaniyatir oshirish:
- pedagogik muammolami mohirona hal etish yoʻllarini takomillashtirish;
- amaliy va nazariy bilimlarni doimiy oshirib boorish
- kasbiy ijodkorlikni uzluksiz rivojlantirish.

Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, Sharq va Gʻarb olimlari tomonidan tahlil qilingan oʻqituvchining pedagogik faoliyati haqidagi koʻpgin mulohazalar hozirgi kungacha oʻz ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak millati va kelib chiqishidan qatʼiy nazar ajdodlar merosini takomillashtirish evaziga hozirgi kunda taʼlim va tarbiyani yanada yuksak bosqichlarga koʻtarish mumkin.

Targʻibotchi qobiliyati - bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina oʻqitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan yordamchi xususiyat va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql-idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik, kamchiliklarga tanqidiy eʼtibor. sobitqadamlik;
- oʻqituvchining nutqi: notiqlik sanʼati, soʻz boyligining teranligi;
- aktyorlik xususiyati: [mimika va pantomimika](#), xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish. pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega boʻlish

Targʻibotchi faoliyatida fuqarolar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir. Fuqarolar bilan taʼlim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar oʻrnatish, ijobiy iqlim yarata olish, oʻziga ishontira olish va jalb qilish - oʻqituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati boʻlib, bunda bevosita targibotchi bilan bogʻliq boʻlgan minglarcha ruhiy jarayonlar, maʼlum bir qolipdan chiqishi mumkin boʻlmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada fuqarolar bilan aloqa oʻrnatishning shakl va uslublariga qatʼiy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, targibotchi va fuqarolar munosabatida majburiy itoatkorlik oʻrnini ongli intizom egallashi, ularda mustaqil fikr yuritish koʻnikmalarini hosil qilishdan iborat.

Targibotchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa oʻrnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta, bu nihoyatda qiyin jarayon, zero tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa oʻrnatishning

samaradorligiga bog'liq. Ushbu jarayon bevosita o'qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog'liq, o'quvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san'atiga va pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullarini bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llay bilishiga taalluqli bo'lib, ular uzluksiz shakllanadi.

Targ'ibotchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- ommani ishonitirish;
- omma ongiga ta'sir etish;
- o'zgalarga taqlid qilish.

Ommani ishonitirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo'lib, targ'ibotchi fikr-mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi. Ishonitirish targ'ibotchining kasb faoliyatiga taalluqli bo'lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. Targ'ibotchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishonitirish usuli targ'ibotchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa, targ'ibotchiva fuqarolar orasida o'rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo'ladi.

Ishonitirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, targ'ibotchining his-tuyg'usi, nutqi va ishonitira olish san'ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o'quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishonitirish usuli jamoa bilan hamda alohida shaxs bilan individual suhbatlar o'tkazish, siyosiy mavzulardagi targ'ibotda keng qo'llaniladi. Ishonitirish usuli yordamida fuqarolarning dunyoqarashi shakllantiriladi. Bu ayniqsa fuqarolar ongini begona mafkuraviy g'oyalardan himoya [qilishda muhim ahamiyatga ega](#), ishonitirish asosida fuqarolarga ideal va mustaqil fikrlar qayta quriladi, ularni ba'zi psixik ta'sirlar tufayli sodir bo'ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, o'ziga va kelajagiga ishonch uyg'otadi, o'z-o'zini tarbiyalashda, mustahkam irodani shakllantirishga undaydi.

Fuqarolar ongiga ta'sir o'zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo'lib, targ'ibotchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi. Fuqarolarning o'zaro suhbatlari va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta'sir etishning o'ziga xos [xususiyati shundan iboratki](#), fuqarolarning psixikasi va xulq-atvoriga sezilarsiz ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ta'sir o'quvchilar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan alohida ahamiyatga ega, o'quvchilarning ijodiy faoliyatida, xatti-harakatlarida, intilishlarida yo'l-yo'riqlar ko'rsatish tarzida amalga oshiriladi.

Ongga ta'sir-shundaybir psixik jarayonki, o'quvchilar targ'ibotchining yoki biror shaxsning ta'siri ostida, o'z ongining yetarli nazoratsiz voqelikni idrok etadi. Agar targ'ibotchi bunda pedagogik mahoratga psixologik tajriba va bilimlarga ega bo'lmasa, fuqarolar ongiga ta'sir qila olmaydi, natijada targ'ibot-tashviqot jarayoni ijobiy natijalar bermaydi. Targ'ibotchifuqarolarning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'la olmaydi.

Targ'ibotchifuqarolarning ongini tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan, jamoa norasmiy yetakchilarining turli yashirin buzg'unchu g'oyalardan himoya qilishga mas'ul shaxsdir. Targ'ibotchifuqarolarning ongiga ta'sir o'tkazishda yetakchilikni o'z qo'liga kiritishi uchun:

- fuqarolarning salbiy xatti-harakatlarini tufayli sodir bo'ladigar emotsional his-tuyg'ularga berilmasligi;
- har bir fuqaroning psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;
- har bir fuqaroga alohida shaxs sifatida hurmat e'tibor bilar munosabatda bo'lishi;

—jamoaning norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning xatti-harakatidan doimo ogoh bo'lishi;

— pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o'zida takomillashtirib borishi;

— o'ylanmay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr-mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasligini targ'ibotchi doimo his etishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli fuqarolar ongi tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi g'oya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabiiy hol. Targ'ibotchilar fuqarolarning ongiga ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olsalar, ular ongini turli keraksiz g'oyalardan himoya qila oladilar. Shuni unutmaslik kerakki, fuqarolar o'zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta'sirga moyilligi tufayli har qanday ta'sirga nihoyatda beriluvchan bo'ladilar. Taqlid qilish shaxsning psixologik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror inson harakatiga, namunasiga, ibratiga amal qilishidir. Shaxs o'zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvor namunalariга ongsiz ravishda taqlid qiladi. Fuqarolar o'zlarining xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilish yo'li bilan ulardan o'zining muhitida foydalanadi. Taqlid qilishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'quvchilar o'z xatti-harakati va muomalasi jarayonida o'zi ko'rgan, kattalar bajargan harakatlarni takrorlashga intiladi. Taqlid qilishning yana bir xususiyati o'quvchi badiiy asarlarda o'qigan, kinofilmlarda ko'rgan sevimli idealidagi qahramon obraziga, xarakteriga, jasoratiga, imo-ishora, nutq, kiyinish uslublariga beixtiyor taqlid qiladi, o'z faoliyatida takrorlaydi. Beixtiyor taqlid qilish o'quvchi shaxsi shakllanishining ilk bosqichlarida muhim ahamiyatga ega. Shaxs taqlid qilish yo'li bilan nutqni, buyumlarni, turli harakatlarni o'rganadi, xulq-atvori shakllanadi, ruhiyatidagi ushbu jarayon asta-sekin va ko'r-ko'rona davom etadi.

Targ'ibotchi kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik faoliyat olib borish jarayonida o'zaro fikr almashish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning ko'rib chiqilgan asosiy turlari - shaxsni ishontirish, ular ongiga ta'sir etish, taqlid qilish - bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlardir va ayni vaqtda, o'ziga xos farqlarga ega. Ishontirish va onga ta'sirning o'zaro bog'liqligi shundan iboratki, biz ta'sir ko'rsatish usulining unisidan ham, bunisidan ham foydalanganda ko'pincha notiqlik san'atini namoyish etamiz. Targ'ibotchining so'z boyligi va notiqlik malakasi ishontirish va ongiga ta'sir etishning muhim manbalaridir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish targ'ibotchining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri bo'lib, avvalo targ'ibotchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosida fuqarolar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jarayonid namoyon bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish - tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan [maqsad asosida tarbiyalash](#), ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bulaming birortasi e'tibordan chetda qolsa, o'qituvchining ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishishi qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini begilaydi, ularning pedagogik jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish mazmunida tarbiya mohiyati ifodalangan bo'lib, uning mazmuni mamlakatning ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqib asoslanadi. Tarbiya mohiyati turli davrlarda har xil ifodalanga bo'lsa ham, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyatiga ko'ra bir-biriga o'xshash g'oyalarni ifodalaydi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli

bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'iqligi qadimdan o'z isbotini topgan. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab kamolotga yetkazishdan iborat. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy tarbiyaviy usullari hayotdan, millatning yashash tarzidan, milliy an'ana va urf-odatlardan kelib chiqib tanlanadi. Ular o'quvchilar tarbiyasini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish nuqtai nazaridan tanlab oladi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini pedagogik jihatdan ma'lum bir maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iborat. Ushbu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning xulq-atvorini shakllantiradi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab - ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. O'quvchining u yoki bu xatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'lib, ijobiy jihatlari rag'batlantirib boriladi yoki aksincha, nojo'ya xatti-harakati to'xtatib qo'yiladi. Istiqbol - ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo'ladi. Ushbu usul maktab o'quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlanadi.

Rag'batlantirish va jazolash - tarbiyaviy ta'sirning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va xatti-harakat, axloqiy hislat, topshiriqlarning so'zsiz bajarilishi uchun o'quvchi rag'batlantiriladi. [Nomaqbul xatti-harakat](#), tartibbuzarlik, o'z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi, uni qo'llash jarayonida o'qituvchidan nihoyatda ehtiyotkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri - tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalari gaqarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning eng muhim sharti o'qituvchining insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashishini talab etadi. Ushbu usullar kasbiy mas'uliyatni his etadigan yagona intilishga qaratilgan jonli kishilarning jonli munosabatidir. Pedagog ta'sir qilish o'quvchilar psixikasining anglanmaydigan sohasiga qaratilgan bo'lib, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilarning yaqindan aloqada bo'lishini, ularning o'zaro bir-birlariga ishonishini, o'zaro tushunishir ta'sir qilish mazmuni, shaxsning bir butun holatiga amaliy ta'sir qilishi nazarda tutadi. Shunday qilib, ta'sir qilish ta'lim-tarbiya samaradorligi hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirib borishda yo'l-yo'riq yaratib, o'quvchilarning faolligini rag'batlantiradi. O'qituvchi tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklarini, ularning o'zaro kommunikativ munosabatlari hamda faoliyat o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmashligi shart. O'qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchi pedagogik ta'sir ko'rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun, o'quvchilar orasida o'zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo'lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o'qituvchi har bir o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi, fikr almashishi, ular qayg'usini, tuyg'ularini tushunishi va hamdard bo'lishi zarur. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- mimosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;

- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'ratish
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib berish lozim.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun hamisha tarbiya obyekti deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator qoidalari ham mavjud bo'lib, targ'ibotchi o'quvchilarga pedagogic ta'sir ko'rsatishda ushbu qoidalami mukammal bilishi lozim.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonosada. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
4. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2015 yil 6 dekabr
5. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Ma'rifat, 2016 yil 16 yanvar.
6. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuqlarimiz asosi // Ma'rifat, 2016 yil 11 may.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2016 yil 7 dekabr
8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
9. Mizziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi Pf-4947-son farmoni // Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2017-yil 23 dekabr
12. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. // Xalq so'zi, 2017 yil 8 dekabr
